

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

**11**  
ISSUE-2



*Journal of new  
century innovations*

## AREAS

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X





# JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS

**VOLUME - 11 | ISSUE - 2**

**AUGUST - 2022**



**DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS  
AND ITS PROSPECTS**

***G‘aybullayeva Habiba Ismoilovna***

*Primary school teacher of Secondary School 2 of Zarafshan city of Navoi region*

**Annotation:** in this article, an attempt was made to provide information on the topic of the development of creative abilities of students and its prospects.

**Keywords:** the mechanisms of creative imagination of children, the need for their creative development, the phenomenon of creativity, creative intelligence - this is an asset, meticulous, etc.

Ideas about the need for self-creative development of a child, independent thinking, the need to take into account his individual interests, etc., are repeated in different options. But at the same time, upbringing and education often hinder the natural process of self-development of the individual, trying to forcefully introduce his creative beginning into previously "prepared frames" and lead the study plans along an easy path. The ability to listen carefully and remember diligently is a distinctive feature of the reader who will become an example to this day.

Creativity is a synonym for the original way of thinking, that is, the ability to break the usual, accepted boundaries. Creative intelligence is an asset, a selective one, a mind that can find them in places where others have not seen problems. All these features are manifested in the process of creativity. And this process is interesting to everyone, even when it comes to "serious mathematics". The 20th century was a rich age to verify that the phenomenon of creativity, the characteristics inherent in it, the beginning of creativity are based on objective laws. The publication of Gilford's work made it possible to establish a principled difference between the two types of thinking. The linear machine is oriented in search of a one-to-one correct conclusion from the proposed options based on strict logic. Complementary thinking is aimed at creating as

wide a coverage as possible of decisions that correspond to the inner feeling. He distinguished the following main aspects of creativity:

ability to identify problems;

- the ability to develop a lot of ideas;

- variability - the ability to develop various ideas;

- originality - the ability to respond to influencers (out of mold), to come up with ideas that are not directly linked, to find answers that are different from the usual ones;

- the ability to solve problems, that is, the ability to see, analyze and synthesize new signs in the object, finding a new way of use, while showing variability in semantics. From Gilford's scientific investigations, it has been found that there is very little connection between the ability to creativity and the mastery of reading, while the personal characteristics of the "ideal excellent" and the "creative person" are seriously different from each other.

How to teach a child to the mechanisms of creative imagination?

Some older people think that " joy "and" lightness " are exactly the same. In essence, humor and curiosity are the closest distance between the serious problem itself and the child's mind. Imagination and mathematics, fantasy and science are not opponents and enemies of each other, but allies. If so, and we really want to bring children to the pleasure of creativity, then we need to focus on three main goals: - to convince children that Unsolved secrets and riddles can be revealed by their own forces; - to teach the main ways of creative imagination that allow you to find and unravel these secrets;-to use the mechanisms of creative imagination to develop perception, attention, memory, emotions and thinking.

Methods for using reverse fairy tales in lessons Stage 1. The teacher writes on the board a list of basic words and concepts that depend on the topic of the lesson. Stage 2. The teacher offers students to choose a fairy tale that everyone knows. Based on the chosen fairy tale, the teacher demonstrates how, with the help of students, it is

possible to draw up a drawing that reflects the appearance of the main characters, their actions and the sequence of adventures that are in the main plot. Stage 3. With the help of what methods the teacher shows the students that the fairy tale is possible to change the places of the main characters, change their actions, and so on. Stage 4. The teacher, together with the students, proposes to draw up a scheme of a "new fairy tale", in the concepts related to the topic of the lesson play an important role. Stage 5. The teacher proposes to compose an oral or written story-reading tale together, in pairs or in a small group.

**Literature:**

1. N.N. Azizhозhaeva. Pedagogical technology and pedagogical skills. T. Tdpu named after Nizami. 2006.
2. R.A.Mavlonova, N.X.Rakhmankulova. "Innovation in primary education". T., TDPO 2007-y.
3. Gulomov A. Principles and methods of teaching the native language. - T.: "Teacher", 1992.
4. Garibaev H. and et al. Ways of organizing behavioral education. - Gulistan, 2004.

**KAMAYISH REJIMLARIDA NEFT OLİSHNING GEOLOGIK  
OMILLARINI O'RGANISH**

*Toshkent Davlat Texnika Universiteti*

*2-kurs magistratura talabasi Raximov Umidbek Komil o'g'li*

*Ilmiy rahbar Professor Agzamov Avaz Hamidullaevich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, turli sharoitlarda neft olishning geologik omillari, kamayish rejimlarida ham geologik omillarni o'zgartirmasdan bir rejimda tutib qolish, neftni olishda va neft-quduq atrofida qo'llaniladigan texnikalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** biogen, neftgazgeologiya, evalyutsion-katagenetik, rentabelli, geologiya

**Annotation:** This article provides information about the geological factors of oil production in various conditions, the preservation of geological factors in one mode without changing the geological factors even in recovery modes, as well as the technologies used in oil production and around an oil well.

**Keywords:** biogenic, oil and gas geology, evolutionary-catagenetic, profitable, geology

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о геологических факторах добычи нефти в различных условиях, сохранении геологических факторов в одном режиме без изменения геологических факторов даже в режимах восстановления, а также о технологиях, применяемых при добыче нефти и вокруг нефтяной скважины.

**Ключевые слова:** биогенная, нефтегазовая геология, эволюционно-катагенетическая, рентабельная, геология.

Neft va gazga geologik-qidiruv ishlarini tayyorlash va bajarish jarayonida yo'riqnomal sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning yoqilg'i-energetika

kompleksini rivojlantirish to'g'risidagi zamonaviy geologik va ekologik fanlarining asosiy holatlaridan foydalanish lozim. Neftgaz mutaxassisligining geologik-qidiruv ishlari konlarni izlash va qidirishni to'liq ekologik ta'minlagan holda yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Bunda izlash qidirish jarayonida, ishlarning turi va hajmlarini ketma-ketligi va amalga oshirish rejimlarida, ularni minimal xarajatlar bilan bajarish muddatlarida optimal sharoitlar saqlanishi kerak. Geologik-qidiruv ishlariga sarflangan ahamiyatli xarajatlarni o'z vaqtida qoplash maksimal neftgaz potensialiga ega bo'lgan regionlar va maydonlarni izlov-qidiruv burg'ilashga kiritish bilan belgilanadi va o'lchamlari bo'yicha ahamiyatli yangi konlarni ochilishi bilan ta'minlanadi. Bu neft va gazni izlashning zamonaviy strategiyasini tashkil etadi.

Neft sanoati 150 yildan ortiq tarixga ega. Uning boshlanishini 1858-yilda AQSH da Dreyk tomonidan mexanik yo'l bilan chuqurligi 29 m burg'ilangan neft qudug'i bilan bog'lashadi. Gaz sanoati 1889-yilda Kanadada burg'ilangan quduqdan gaz oqimi olingandan so'ng boshlangan. Bu uzoq davr mobaynida burg'ilashga kiritilgan izlov obyektlari va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlariga bog'liq ravishda izlov ishlarining usullari ahamiyatli o'zgardi. XIX asrning 60-70 yillarida neft "yo'llari" deb ataladigan, yer yuzasida neftning chiqishi kuzatilgan kichik hududlar chegarasidan chiqishmagan. Ikkita mahsuldor quduqni birlashtiruvchi bu "yo'llar"da geoglarning ishtirokisiz chuqur bo'limgan quduqlar joylashtirilgan. Quduqlar aslida ishlatish quduqlari bo'lgan. Navbatdagi barcha quduqlar birinchi mahsuldor quduq atrofida uzoqlashtirib borgan holda joylashtirilgan. XIX asrning oxiridan neft quduqlarini joylashtirishda geoglarning ochilgan neft uyumlarining geologik suratga olish bilan xaritalangan antiklinallarga bog'liqligi qayd etilgan tavsiyalaridan foydalanishgan. Shu tariqa yer yuzasiga neft chiqishi bo'yicha neft uyumlarini izlash ilmiy asoslangan "antiklinal nazariya" bilan almashdi. Bu nazariya neft izlash ishlarini faollashtirdi va ko'p konlarni ochilishiga olib keldi. Geologik suratga olish antiklinallarni aniqlash uchun ko'plab o'n yillar burg'ilashdan avval izlov-qidiruv ishlarining muhim elementi bo'lgan.

Birinchi quduq geologik suratga olish bilan aniqlangan antiklinalning gumbazida yoki asimmetrik antiklinallar holatida nishab qanotiga siljitib joylashtirilgan. Birinchi quduqda neft olinganda navbatdagilari uyumni konturlash uchun burg'ilangan. Izlash va qidirish vazifalari ishlatish quduqlari bilan yechilgan. XX asrning ikkinchi o'n yilligida ochilib qolgan antiklinallar fondining keskin kamayishi tufayli ko'milgan antiklinallarni topish uchun 100 metrgacha chuqurlikdagi xaritalash quduqlaridan yoki tuzilma xaritalari tuzish yo'li bilan belgilangan gorizontlar bo'yicha ijobiy tuzilmalarni aniqlash uchun chuqurroq tuzilma quduqlaridan foydalanib boshlangan. Bu vaqtida yer qa'rining cho'kindi qalinligida yotgan yotqiziqlarning tuzilma rejalarini o'rganish uchun neftgazni izlash ishlari amaliyotida geofizik usullar qo'llanib boshlandi. Izlov burg'ilash uchun istiqbolli obyektlarni aniqlash va tayyorlash usullari zaxirasi ularni komplektlash yo'li bilan ahamiyatli kengaytirildi. Masalan, Ruminiya, Kaspiyoldi, Meksika kurfazi sohilida tuz gumbazlarini aniqlashda kompleks gravirazvedka va seysmorazvedka qo'llanilgan; Apsheronda geologik suratga olish va tuzilma burg'ilash; Saxare, Yaqin Sharqda geologik suratga olish va gravirazvedka. XX asrning o'rtalarigacha tuzilma burg'ilash geologik suratga olish va dala geofizikasi tadqiqotlari bilan kompleksda antiklinal turdag'i obyektlarni aniqlash va tayyorlashning asosiy vositasi bo'lgan.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan geologlar va geofiziklarni yangi jihozlary bilan ta'minlagan ilmiy-texnik revolyutsiya yutuqlari tufayli, kompleks geologikgeofizik tadqiqotlarga o'tib, regional ishlarning kuchayishi va noantiklinal tutqichlar bilan bog'liq uyumlarni izlash va qidirish rolini o'sishi va neftgaz izlash jarayonining yo'nalishini o'zgarishi ko'zga tashlandi.

Yangi neftgazli territoriyalarni o'rganish uchun quduqlarning yangi toifalari qo'llanila boshlandi – tayanch va parametrik.

1950 – yillardan neft va gaz uyumlarini izlash uchun maydonlarni tayyorlashdi tuzilma burg'ilashning ulushini qisqargani sezildi, katta chuqurlikdagi tuzilmalarni o'rganish majburiyati yuklatilgan seysmorazvedka yetakchi o'rinni egallaydi.

Neft va gazga izlov-qidiruv ishlarining takomillashishida quduqlarda geofizik tadqiqotlar (QGT) usullarining vujudga kelishi va rivojlanishi katta rol o'ynadi. Bu usullar kern olishni keskin qisqartirish, quduqlar kesimini taqqoslash va tuzilma vazifalarini muvaffaqiyatli yechish, quduqlar kesimida istiqbolli oraliqlarni aniqlash, neftgazlilikni bashoratlash imkonini yaratdi.

Neft va gazga geologik-qidiruv ishlarining zamonaviy davri ularni amalga oshirishning tog'-geologik va tabiiy-iqlim sharoitlarining murakkablashishi bilan xarakterlanadi. Bu shu bilan bog'liqki, istiqbolli obyektlar murakkab geologik tuzilishga ega, borish qiyin bo'lgan regionlarda hamda ilgaridan ma'lum bo'lgan regionlarda cho'kindi qoplamaning katta chuqurliklarida joylashgan. Bunday sharoitlarda neftgaz izlash ishlarining geologik samaradorligi yer qa'rining neftgazliligini bashoratlashning yuqori darajasi va zamonaviy usullardan foydalanib geologik-qidiruv ishlarini o'tkazish hisobiga ko'tarilishi mumkin. Hozirgi kunda neft va gaz izlovlilar arsenalida yetarli miqdorda zamonaviy usullar mavjud: dala geofizikasi va aerokosmik tadqiqotlar, har xil turdag'i geokimyoviy suratga olish, quduqlarda geologik, geofizik va geokimyoviy kuzatishlar bilan chuqur burg'ilash.

O'z bag'rida neft, gaz va suvni saqlay olish va ishga tushurilganda ularni bera olish qobiliyatiga ega bo'lgan tog' jinslari **kollektorlar** deb yuritiladi. Kollektordarning asosiy qismi cho'kindi jinslardan tashkil topgan. Terrigen (qumlar, qumtoshlar, alevrolitlar va bir qancha gilli jinslar) va karbonat jinslar (ohaktoshlar, bo'r, dolomitlar) neft va gaz kollektori hisoblanadi. Kollektor jinslar ikkita xususiyati bilan tafsiflanadi – **g'ovakligi** va **o'tkazuvchanligi**, ya'ni qatlama flyuidlari (neft, gaz va suv) harakatlanishi mumkin bo'lgan g'ovak, darzlik va bo'shliqlar tizimi bilan. Bo'shliqlarga ega bo'lgan hamma tog' jinslari ham neft va gaz uchun o'tkazuvchan ya'ni kollektor bo'la olmaydi. Shuning uchun kollektor tog' jinslarining xossalari o'rganishda ularning faqatgina g'ovakligi emas balki o'tkazuvchanligi ham aniqlanadi. Tog' jinslarining o'tkazuvchanligi bo'shliqlarning ko'ndalang (flyuidlarning harakati yo'nalishiga) o'lchamlariga bog'liq.

**G'ovaklik.** Tog' jinslarining g'ovakligi deb, ularning orasidagi qattiq jinslar bilan to'lмаган bo'shliqlar va darzliklarga aytildi.

O'lchamlariga qarab bo'shliqlar yoki g'ovakliklar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'ta kapillyar ( $>0,5$  mm) – bunday g'ovaklarda suvning harakati gidravlika qonuniyatlariga bo'ysunadi. Ularda suv, neft va gaz gravitatsion kuchlar ta'sirida erkin joylashadi.
2. Kapillyar g'ovaklar ( $0,5-0,0002$  mm) – bunday g'ovaklarda molekulyar bog'lanish kuchli bo'lganligi sababli suyuqliklarning harakati juda qiyin kechadi.
3. Subkapillyar g'ovaklar ( $< 0,0002$  mm) - bunday bo'shliqlar gilli jinslarga xos bo'lib, suv, neft va gazni o'tkazmaydi.

**O'tkazuvchanlik.** O'tkazuvchanlik – bu bosimlar farqi bo'lganda tog' jinslarining o'zi orqali suyuqlik va gazlarni o'tkazish xossasidir. Barcha tog' jinslari u yoki bu darajada o'tkazuvchan. O'tkazuvchanlik qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi kollektor jins, va qancha kichik bo'lsa, shuncha yaxshi flyuid qaytaruvchi (qoplama) hisoblanadi. Kollektorlarning o'tkazuvchanligi darzliklar bo'limganda boshqa yo'nalishlarga nisbatan qatlamlanishga parallel yo'nalishda katta bo'ladi.

Qoplamalarning muhim xarakteristikasi **yorib o'tish bosimining kattaligi** hisoblanadi – qoplama orqali neftning (gazning) sizilishi boshlanadigan bosimlar farqi. Bu tushuncha bilan ikkinchisi bog'liq – qoplama orqali sizilish to'xtaydigan bosim. Yorib o'tish bosimining ko'rsatkichi katta oraliqda o'zgaradi va gillar hamda neftlarning xossalariga bog'liq (qovushqoq neftlar uchun oshadi). Neft va gazni gilli jinslarning mayda g'ovaklari orqali yorib o'tishi qachonki bu g'ovaklardan kapillyar suvni siqib chiqarish uchun yetarli kuch yuzaga kelsagina sodir bo'ladi. Shunday qilib, gilli jinslarning ekranlash qobiliyati ko'pincha ularning strukturasi va g'ovak kanallar tizimidagi kapillyar bosimning kattaligi bilan aniqlanadi. Flyuidlarning ekranlovchi qatlam orqali o'tishi g'ovaklar orasidagi to'siqlarni mexanik yemirilishi va shu tarzda migratsiyalanish yo'llarini hosil bo'lishi hisobiga ham sodir bo'lishi mumkin. Qoplamalarning ekranlash xossalariga ularning monomineralliliginи buzilishi ham ta'sir ko'rsatadi. S.V.Fedorova va A.K.Zamarenovlarning eksperimental ma'lumotlariga ko'ra ohaktoshlardagi gilli qism 3 dan 24 % gacha oshganda yorib o'tish bosimi 5,98 dan 21,11 MPa gacha oshadi. V.D.Ilin va boshqalar tomonidan sulfat jinslarning ekranlash qobiliyatini tadqiqot qilish natijalari shuni ko'rsatadiki,

sulfat jinslarda kalsit va dolomitning miqdori 5-10 dan 20-30 % gacha oshganda yorib o'tish bosimi 2-3 dan 0,1 Mpa gacha pasayadi.

Qoplamlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadigan geologik omillar ularning qalinligi, tarqalishi, tarkibining bir xilligi, tektonik buzilishlar, qoplamaadagi litologik va stratigrafik "tuynik" hisoblanadi.

Konning sanoat ahamiyatini aniqlovchi *tog'-geologik* omillardan eng muhimlari konning o'lchamlari, zaxiralarning konsentratsiyasi, neft va gazning tovar sifati va uyumlarni ishlatish sharoitlarini belgilovchi geologik tuzilishining murakkabligi hisoblanadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, konning sanoat ahamiyatini aniqlovchi *tog'-geologik* omillardan eng muhimlari konning o'lchamlari, zaxiralarning konsentratsiyasi, neft va gazning tovar sifati va uyumlarni ishlatish sharoitlarini belgilovchi geologik tuzilishining murakkabligi hisoblanadi. *Tog'-geologik* va texnologik omillar mineral xomashyoning miqdori va sifatini, uni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qazib olish va qayta ishlash imkoniyatini belgilaydi. Zaxiralar balansi holatini sotsial-iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda tahlil qilish konni birinchi navbatda ishga tushirish uchun ajratish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan omillar bilan muvofiq ravishda konni geologik-sanoat baholashda navbati bilan uyumlarning asosiy parametrlari aniqlanishi, neft, gaz va yo'ldosh komponentlarning zaxiralari hisoblangan, zaxiralarining konditsionligi asoslangan, ularning ishonchlilikini miqdoriy va sifat shakllari belgilangan, ishlatishning taxminiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichchlari aniqlangan bo'lishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абидов А.А., Эргашев Й., Қодиров М. Нефть ва газ геологияси. Русча-ўзбекча изоҳли луғат. Тошкент. "Шарқ" 2000.
2. Абидов А.А. Современные основы прогноза и поисков нефти и газа. Ташкент. "Фан" 2012.
3. Алексеенко В.А. Геохимические методы поисков месторождений полезных ископаемых. Учебник. М., Недра, 2000.

4. Абрамчева Т.В. Экономическая эффективность нефтегазоразведочных работ. Уч. пособие. Ухта 2003.
5. Бурцев М.И. Поиски и разведка месторождений нефти и газа: Учеб. пособие. Москва. Изд-во РУДН, 2006.
6. Бакиров А.А., Бакиров Э.А. и др. Геологические условия формирования и размещения зон нефтегазонакопления. Москва. Недра 1982.
7. Бакиров АА, Бакиров ЭА, Габриэлянц ГА, Керимов В.Ю., Мстиславская Л.П. Теоретические основы поисков и разведки нефти и газа. Под ред. Э.А. Бакирова и В.Ю. Керимова: Учебник для вузов. В 2-х кн. - 4-е изд., перераб. и доп. - Кн. 2: Методика поисков и разведки скоплений нефти и газа. - М.: ООО «Издательский дом Недра», 2012.
8. Баженова О.К., Бурлин Ю.К., Соколов Б.А., Хайн В.Е. Геология и геохимия нефти и газа. М., Изд-во МГУ, 2000.
9. Бурцев М.И. Особенности заложения поисковых и разведочных скважин на ловушках различного генетического типа. М., Изд-во РГУ нефти и газа, 1992.
10. [https://www.researchgate.net/profile/OdiljonHayitov/publication/339712334\\_NG\\_uumlarini\\_izlas\\_va\\_kidiris\\_metodlari/links/5e60ae51299bf1bdb8543f5a/NG-uumlarini-izlas-va-kidiris-metodlari.pdf](https://www.researchgate.net/profile/OdiljonHayitov/publication/339712334_NG_uumlarini_izlas_va_kidiris_metodlari/links/5e60ae51299bf1bdb8543f5a/NG-uumlarini-izlas-va-kidiris-metodlari.pdf)

## ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

*X. R. Bobobekova, M. X. Nurullayeva*

*Samarkand branch of TUIT*

*forever—2@mail.ru*

*malikanurullayeva01@gmail.com*

### **Аннотация:**

В данной диссертации выделены практическая значимость и аспекты цифровой экономики, и в первую очередь ее способность значительно повышать уровень жизни людей и ее главная польза. В настоящее время в экономической теории и практике ряда стран появилось понятие цифровой экономики. Его отличало бурное развитие цифровых технологий, революция в информационной сфере и ускорение глобализации экономики. Эффективность их использования трансформировалась в увеличение знаний, а социально-экономические отношения все больше и больше расширяются.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, цифровые технологии, разработка, система, интернет-экономика, CRM, обратная связь, распределение бюджета.

### **RAQAMLI IQTISODIYOTNING AMALIY AHAMIYATI**

### **Annotatsiya:**

Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotining amaliy ahamiyati va jihatlari, va birinchi navbatda insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshira olishi va bu uning asosiy foydasi ekanligi yoritib berilgan. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar,taraqqiyot, tizim,internetiqtisodiyoti, CRM, Fidbek, budjet taqsimoti.

## **PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DIGITAL ECONOMY**

### **Annotation:**

In this thesis, the practical importance and aspects of the digital economy, and first of all, its ability to significantly increase people's living standards and its main benefit, are highlighted. Nowadays, the concept of digital economy has appeared in the economic theory and practice of a number of countries. It was distinguished by the rapid development of digital technologies, the revolution in the information sector and the acceleration of the globalization of the economy. The efficiency of their use has been translated into increasing knowledge, and socio-economic relations are expanding more and more

**Keywords:** digital economy, digital technologies, development, system, internet economy, CRM, Feedback, budget distribution.

В настоящее время в экономической теории и практике ряда стран появилось понятие цифровой экономики. Он характеризовался бурным развитием цифровых технологий, революцией в информационной сфере и ускорением глобализации экономики. Эффективность их использования выражается в увеличении знаний, а социально-экономические отношения все больше и больше расширяются. Как заявил Президент нашей страны Шавкат Мирзиёев, «Для достижения развития нам необходимо и нужно овладевать цифровыми знаниями и современными информационными технологиями. Это дает нам возможность идти кратчайшим путем к росту». 1 Цифровая экономика – это экономическая деятельность, тесно связанная с электронным бизнесом и электронной коммерцией на основе цифровых технологий, а также совокупность цифровых товаров и услуг, производимых и реализуемых в результате этой

деятельности. Иногда ее называют интернет-экономикой, новой экономикой или веб-экономикой. Впервые в 1995 году американский программист Николас Негропонте ввел в практику термин «цифровая экономика», и сейчас этот термин используют политики, экономисты, журналисты, предприниматели — практически все во всем мире.

Также цифровая экономика — это не какая-то экономика, которую нужно создавать с нуля. Это означает перевод существующей экономики на новую систему путем создания новых технологий, платформ и бизнес-моделей, внедрения их в повседневную жизнь. Основными особенностями данной системы являются:

- высокая степень автоматизации;
- электронный документооборот;
- электронная интеграция систем учета и управления;
- электронные базы данных
- наличие CRM (системы взаимодействия с клиентами);
- корпоративные сети.

Преимущества:

1. Уменьшаются затраты на платежи (например, экономится билет в банк и другие ресурсы).
2. Получайте больше и быстрее информации о товарах и услугах.
3. В цифровом мире есть большие возможности для выхода товаров и услуг на мировой рынок.
4. Товары и услуги быстро совершенствуются за счет быстрой обратной связи (мнения потребителей).
5. Быстрее, качественнее, удобнее.

Практическое значение и аспекты цифровой экономики, которая, прежде всего, значительно повышает уровень жизни людей, что является ее основным преимуществом. Во-вторых, цифровая экономика — это основная функция коррупции и «черной экономики». Потому что цифры все запечатывают, хранят в памяти, быстро предоставляет информацию, когда это необходимо. В таких условиях невозможно скрыть какую-либо информацию, совершать тайные сделки, не давать полную информацию о той или иной деятельности, компьютер все выявит, потому что обмануть систему невозможно. В результате не получится отмыть «грязные

деньги», украсть средства, потратить их неэффективно и бесцельно, приумножить или спрятать. Это увеличит приток легальных средств в экономику, налоги будут уплачиваться вовремя и правильно, распределение бюджетных средств будет открытым, средства, направляемые в социальную сферу, не будут разворовываться, школы, больницы, дороги выдвинутые деньги поступят в полном объеме, и т.п. В-третьих, решение государства развивать цифровую экономику открывает новые направления в сфере информационных технологий и в целом в сфере электронных документов. Поворот к «цифровым технологиям» был вызван развитием глобальной сети Интернет и качественной связью. Стоит отметить, что сегодня пользователи этой системы активно используют ботов Telegram для заказа еды, различной парфюмерии и современной одежды. Также активно развиваются различные интернет-магазины и электронные платежные системы, поэтому наши граждане верят в электронные транзакции. До сих пор пользователи совершают лишь небольшие сделки, не требующие больших затрат, и не готовы увеличивать средний объем покупки. Теперь речь идет о развитии осуществления средних и крупных хозяйственных сделок и финансовых операций посредством цифровых технологий. Короче говоря, термин «цифровой» относится к активному использованию информационных технологий во всех сферах. Если в обычной экономике основным ресурсом считаются материальные блага, то в цифровой экономике это будет обрабатываться и передаваться информация – данные. После их анализа вырабатывается решение для правильного управления.

**Список литературы:**

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 24 января 2020 года.
2. Келли К. Новые правила новой экономики: 10 радикальных стратегий для связанного мира / К. Келли. – Нью-Йорк: Викинг, 1998.

**BAQLAJON O'SIMLIGI HAQIDA. UNING FOYDALI XUSUSIYATLARI  
ZARARKUNANDA VA KASALLIKALRIGA QARSHI KURASH  
CHORALARI**

*Qaxxorova Mohinur Hasanboy qizi*

*Andijon Qishloq Xo'jaligi va agrotexnologiyalar Instituti*

*O'simliklarni himoya qilish ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya**

O'simliklar dunyosi har bir tur vakillarida bo'lganidek, qishloq xo'jaligi ekini baqlajonni ham zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish dolzARB mavzu hisoblanadi.Ushbu maqolada baqlajonnig kelib chiqish tarixi, foydali xususiyatlari zararli organizmlar (zararkunanda, kasallik va begona o'tlar)ga qarshi kurash haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Baqlajon, melongen, alkaloid, Vrora, Erevenskaya-3, nikotin, antosiyani, antioksidant, stolbur, mozaika, ildiz chirish, qorason, serkosparioz.

**Baqlajon o'simligi haqida**

Baqlajon (lotincha Solanum melongena) – ituzumdoshlari (patlican solanaceae) oilasi vakili. Baqlajonning vatani hozirgi Hindiston hududlaridir. U 1500 yil ilgari madaniy holda yetishtirila boshlagan. Ko'p yillik o't o'simlik, yovvoyi xolda Hindiston, Pokiston, Birmada uchraydi, ammo madaniy holda bir yillik o'simlik sifatida yetishtiriladi. Baqlajonning pishmagan barra mevalari iste'mol qilinadi. Chunki biologik pishib ketgan mevalarida urug'lari qotib, qattiq bo'lib qoladi. Shuningdek solanin M (melongen) deb ataluvchi ta'sir modda alkaloid to'planib, uniate'molga yaroqsiz qilib qo'yadi.

Baqlajon ertapishar (ko'chati unib chiqqandan hosili texnik yetilguncha 110-120 kun), ertapishar (120-140 kun) va kechpishar (140 kundan ortiq) navlarga bo'linadi. O'zbekistonda o'rta, ertapishar Avrora navi hamda o'rta kechpishar Erevenskaya-3 navi ekiladi.

Baqlajon poyasi baland bo'yli (100 sm va ziyod),tik o'suvchi va shoxlanuvchi, barglari yirik, ovalsimon, qalin tuklar bilan qoplangan.Baqlajon fakultativ o'zidan changlanuchi o'simlik.Mevasi yirik (0.5 kg gacha),pishkanda qo'ng'ir-sarg'ish,kulrang-yashil rangga kiradi.Uning oq,qizil va sariq rangdagi botanik formalari ham uchraydi.

Baqlajon issiqsevar o'simlik. O'suv davri birmuncha uzun harorat 13-14 C va namlik yetarli bo'lganda urug'lar 4-5 kunda unib chiqadi. 20 C dan pasaysa mevalari o'sishdan to'xtaydi-0.5 C da o'simlik nobud bo'ladi.

Baqlajon yorug'sevar,qisqa(10-12 soat) kun o'simligi.U tuproqdagi oziq elementlarga va namga talabchan.Boshqa tomatdosh sabzavot ekinlari singari ko'chati orqali yetishtiriladi.

### **Baqlajonning foydali xususiyatlari**

Baqlajon vitaminlarga juda boy hisoblanadi. Unda C va K vitaminlari, kletchatkalar Mn, K, Mg, Fe, Cu va xatto oz miqdorda o'simlik oqsili bor.Bunday boy kompozitsiyaga ega bo'lishiga qaramasdan baqlajon past kaloriyalı mahsulot hisoblanadi. Parhezga amal qilganlar uchun ushbu mahsulot ideal yechimdir.

Baqlajon tarkibida antosianin pigmentlari bor, ular nafaqat yorqin rangga ega, balki kuchlin antioksidant xususiyati ham mavjud. Ular surunkali kasallik va qarilikka qarshi kurashda eng katta yordamchilardir.

Baqlajon tarkibida antioksidantlarning ko'pligi tufayli nafaqat yosharishga yordam beradi, balki yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini ham kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, baqlajonni muntazam iste'mol qilish yurak-qon tomir salomatligi uchun xavfli bo'lgan xolesterin va triglitseridlar darajasini pasaytiradi.

Baqlajon qondagi qand miqdorini nazorat qilishga yordam beradi. Uning tolasini yana bir afzalligi shundaki, u ishtahani boshqarishda qatnashadi.

Ushbu mahsulot teridagi yallig'lanishning oldini oladi, husnbuzarlar bilan kurashadi.

Uning tarkibida nikotin moddasi bor. Shu sababli ham shifokorlar uni chekishdan voz kechmoqchi bo'lganlarga tavsiya etadilar.

Baqlajon mevasi texnik pishganda yirik, po'sti to'q binafsha yaltiroq, taxirsiz,urug'i qotmagan holda uziladi.Pishib ketgan mevasining rangi oqara

boshlaydi. Har 5-7 kunda teriladi. Hosildorligi har gektaridan 200-300 ts va ziyodni tashkil etadi.

## **KASALLIK VA ZARARKUNANDALAR**

O'zbekistonda baqlajon kasalliklaridan stolbur, mozaika, shox chirish, bakterial rak, qorason, zararkunandalardan esa kalorado qo'ng'izi hamda g'o'za tunlami, shiralar eng ko'p tarqalgan.

### **Baqlajonning zamburug'li kasalliklari**

Baqlajon ko'chatlarining eng keng tarqalgan kasalligi, boshqa ko'chatlar kabi, qora sondir. Zamburug' tuproqda yashaydi va qulay sharoitlarda tuproq bilan aloqa qilish joyida ildizga o'tadi, tomirlarni yopib qo'yadi va o'simlikning oziqlanishini bloklaydi. Poyaning ildiz qismi qorayadi, shundan keyin siqilish paydo bo'ladi, poya ingichka bo'lib, chiriydi, natijada o'simlik nobud bo'ladi.

### **Baqlajon ko'chatlarida qora sonni oldini olish va davolash.**

Zamburug' tuproqda yashaganligi sababli, ko'chatlarni ekishdan avval tuproqni zararsizlantirish kerak. Bu kasallikning rivojlanishiga tuproqning yuqori namligi, kislotali tuproqlar, ko'chatlarni zich ekish, yorug'likning etarli emasligi, haroratning keskin o'zgarishi va ko'chatlarni azotli o'g'itlar bilan ortiqcha boyitilganligi sabab bo'ladi. Zamburug' o'simlikka jiddiy zarar yetkazmagan bo'lsa qorasonni davolash mumkin, aks holda kasallangan ko'chatlardan xalos bo'lish tavsiya etiladi. Ularni tuproq bo'lagi bilan olib tashlash kerak va tuproqqa tabletkalar, kukunlar (Glyocladin) yoki suvda eruvchan preparatlar (Fitosporin, Alirin) foydalaniлади. (Gamair, Planriz, HOM, Previkur). Dorilar yo'q bo'lganda, hech bo'limganda tuproqqa kaliy permanganat eritmasi bilan ishlov beriladi.

### **Baqlajon sklerotinoz kasalligi**

Baqlajon oq chirishi, yoki sklerotiniaz, birinchi navbatda o'simlikning ildiz tizimiga joylashadi, chunki qo'ziqorin yerda yashaydi. Keyinchalik, poyada oq gul paydo bo'la boshlaydi va ildiz ichida muhrlar - sklerotiya hosil bo'ladi. Ozuqaning o'simlikka kirishi sekinlashadi. Barglar va mevalarda qora ho'l dog'lar paydo bo'ladi, meva suvli, yumshoq bo'ladi, vaqt o'tishi bilan - shilimshiq, oq dog'lar bilan qoplanadi. Keyinchalik mevalarda qora sklerotiyalar paydo bo'ladi.

Sklerotiya tuproqda 10 yilgacha yashashi mumkun.Oq chiriyotgan baqlajonni davolash o'simliklarning zararlangan qismlarini olib tashlash va kesilgan joylarni changdan tozalashdan iborat.Bundan tashqari, an'anaviy fungiditsy - mis sulfat, Bordo suyuqligidan foydalanish mumkin. Kasallangan o'simlikni qo'llab-quvvatlash uchun baqlajonlarni kompleks bilan boqish tavsiya etiladi

### **Baqlajonning sarkosporioz kasalligi.**

Bu kasallik brinchi navbatda o'simlik barglarida namoyon bo'ladi, so'ng poyasida dumaloq shaklda xloritik dog'lar paydo bo'ladi.Vaqt o'tishi bilan o'sishi, cho'zilishi mumkin, keyinchalik barg to'qimalari asta sekin nobud bo'ladi.Tashqarida havo nam bo'lsa, baqlajon serkosporasi sporulyatsiya dog'lari ko'rinishida paydo bo'ladi. Barglarning fotosintetik yuzasining pasayishi tufayli mevalar kichik, kam rivojlangan holda o'sadi. Ushbu kasallikning yuqish usuli vegetatsiya davrida sporalarning sug'orish suvi, shamol va boshqa vositalar orqali tarqaladi.O'simlik qoldiqlarida u bir yilgacha hayotiy faoliyatni saqlab turishga qodir. Baqlajonning serkosporozi Cercosporosa physalidis tomonidan qo'zg'atiladi.

### **Baqlajonda sarcosporioz kasalligi oldini olish va davolash.**

Ushbu kasallikni oldini olishda almashlab ekishni joriy qilish,kasallanga o'simlik qoldiqlarini yo'q qilish, namlik meyorini taminlash lozim.Bundan tashqari, sug'orish paytida tomchilar baqlajon barglariga tushirmaslik kerak.Davolash Bordo aralashmasi va boshqa an'anaviy fungitsidlar bilan amalga oshirilishi mumkin. Tuproqqa mineral o'g'itlarni qo'llaganimizda o'simlikning ushbu kasallikka chidamliligi ortishiga erishamiz.

Virusli kasalliklarning oldini olishda ekishdan oldin urug'ga ishlov berish, ko'chatni ekishdan oldin kombinatsiyalangan metil suyuqligi va 1%li Bordo suyuligi aralashmasini purkash, o'simlik chirishi kasalligiga qarshi ekishdan oldin urug'ini 0,2% mis kukuni suyuqligida yoki 0,01% kaliy permanganat suyuqligida ishlashdan iborat kompleks tadbirlar qo'llanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.T.Xo'jashev Umumiy va qishloq xo'jaligi entemologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish asoslari. Toshkent, 2019,
2. Sh.T.Xo'jashev, R. G'aimov, Sabzavotni zararkunandalardan himoya qilish, O'zbekiston qishloq xo'jaligini himoya qilish jurnali, 2012,
3. A.X.Yusupov, R.B.Turg'unov, I.B.Po'latov, SamVMI Chorvachilik va o'simlik maxsulotlarini saqlash, qayta ishslash texnologiyasi. Samarqand, 2019.
4. Z.V.Ilich, O.Qodirxo'jayev, M.M. Adilov, Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent, 2010,
5. D.Y.Yormatova, M.Y.Ibrohimov, D.S.Yormatova, Meva-sabzavotchilik, Toshkent "Talqin"-2008.

**QO'QON XONLIGINING BOSIB OLINISHI**

***G'aybulloyeva Dilbar Ismoilovna***

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-umumta`lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada qo'qon xonligining bosib olinishi haqida qisqacha so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon, Rossiya, O'rta Osiyo, Qashqar, bosib olish, sulola, hukmronlik.

Qoqon xonligi Rossiya imperiyasining orta Osiyodagi strategiyasida alohida ahamiyat kasb etardi. U Rossiya imperiyasi qoshinlari tomonidan 1865-yilda egallab olingan Xitoyning garbiy qismi — Ili olkasi bilan bevosita aloqador edi. Qoqondan Qashqarga, undan esa Hindiston hududiga togri yo'1 borardi.

Bu paytda Qoqonda Xudoyorxon boshliq ming urugi sulolasini hukmronlik qildi. Haddan ortiq soliqlardan va son-sanoqsiz turli majburiyatlardan azob tortgan aholi uning boshqaruvidan norozi edi. Mamlakatda xonga qarshi muxolifat kuchayib bormoqda edi. Abdurahmon Oftobachi (valiahdning tarbiyachisi) boshchiligidagi qipchoqlar xonga oshkora qarshi turgan muxolifatning asosiy kuchi edi.

Ular 1875-yilning iyulida qozgalon boshladilar va qozgalon Qoqon xonligining asosiy shaharlariga yoyildi. Qozgalonchilarga qarshi jonatilgan, eng ishonchli va xonga sodiq deb hisoblangan qoshin qozgalonchilar tomonga otdi. Qozgalonchilarning birlashgan kuchlari Xudoyorxonning tongich ogli Nasriddinni xon deb e'lon qildilar. Ular osh, Namangan, Andijon, Asaka shaharlarini egallahashdi. 2-avgustda Margilon hokimi Murodbek ham ularga qoshilib, Qoqon tomonga lashkar tortib bordi.

Qoqonda kotarilgan qozgalon togrisidagi xabar xon hokimiyatining zulmidan eng kop aziyat chekayotgan xalq orasida galayon keltirib chiqardi. Xonning yaqinlari bolgan amaldorlar va uning soqchilari poytaxtni tashlab qochishga majbur boldilar. Xonning ikkinchi ogli, akasiga qoshilgan Muhammad Amin boshchiligidagi xon

qoshinining qolgan yarmi ham shahardan chiqib ketdi. Voqealar fojiali tugashi mumkinligini his qilgan Xudoyorxon oila a'zolari va a'yonlari bilan 1875-yil 5-avgustda Xojand tomonga yurdi. Shahardagi Rossiya diplomatik missiyasi vakillari ham u bilan birga ketdi.

6-avgust kuni Xudoyorxon Xojandga yetib keldi, song Toshkentga yo'1 oldi. U yerda general-gubernator Kaufman bilan uchrashdi va Orenburgga jonatib yuborildi. Rossiya imperiyasi hukumati Xudoyorxонни o`z himoyasiga oldi.

Qoqon xonligini bosib olish uchun bahona boldi. Qozgalonchilar qoshini qomondoni vazifasini oz zimmasiga olgan Abdurahmon Oftobachi Xojanddan 50 km masofada joylashgan Mahram qalasini egalladi. Unga qarshi yurishga general Kaufman boshchilik qildi. Uning qomondonligi ostidagi qoshinlar Abdurahmon Oftobachiga qarshi 1875-yil 22-avgust tongida Mahram qal'asiga hujum qildi. Jang kun boyi davom etib, ustunlik goh u tomonga, goh bu tomonga otib turdi. Podsho qoshinlari kazaklar qismlaridan general Skobelev qomondonligi ostidagi piyodalar va general Golovachov qomondonligi ostidagi artilleriya harakatlarini qovushtirib, ulardan mahorat bilan foydalanishdi.

Qipchoq otliq sarbozlari va Margilon lashkarlari mahalliy hukmdorlarga qarshi harbiy harakatlar olib borishda katta tajribaga ega bolgan muntazam qoshinlarga bas kelolmadi. Shu kuni kechqurun Abdurahmon Oftobachi Margilon tomon chekindi.

Podsho qoshinlari ham ancha zaiflashib qolgandi. Ular harakatni davom ettirishga tayyorgarlik korish uchun Mahramda uch kun qolishga majbur bolishdi. 7-sentabrga kelibgina Kaufman yolga chiqdi va 11-sentabrda Qoqonga yetib bordi. Yangi xon Nasriddinbekning qurolli kuchlari bolmagani uchun u qarshilik korsata olmadi. 1875-yil 16-sentabrda Kaufman oz qoshini bilan shahar boylab otdi va Qoqon yaqinidagi boglarga joylashdi.

Margilon, Mingtепа, Qorasuv yaqinida bolib otgan janglarda muntazam qoshinlarning ustunligi ma'lum boldi va Nasriddinbek maglubiyatga uchradi. 1875-yil 22-sentabrda Nasriddinbek Margilonda Kaufman bilan shartnomaga imzoladi. Ushbu shartnomaga kora u Kaufman ruxsatisiz harbiy harakatlar olib bormaslikka, Sirdaryoning ong sohilidagi hududlar Namangan va Chust shaharlari bilan birga

Rossiya imperiyasi ixtiyoriga otishiga rozi boldi. Fargona vodisining bosib olingan yerlarida I. Skobelev boshchiligidagi Turkiston general-gubernatorligining Namangan bolinmasi tuzildi va Andijonga yo'l ochildi.

Bu paytda Andijonda hokimiyatni Xudoyorxon ning Jiyani Polatbek oz qoliga olgandi. U Rossiya imperiyasiga qarshi urush e'lon qildi va uning qoshinlariga Abdurahmon Oftobachini qomondon etib tayinladi. Podsho qoshinlari Andijon tomon yurib, uni qamal qildi. Shaharga hujum qilish 1875-yil oktabr boshida erta tongda boshlandi. Hujumchilar artilleriyasi bilan ustunlikka ega bolib, shaharni kun boyi topga tutishdi. Ularga general Skobelev qomondonlik qilardi. Andijon uchun jang podsho Rossiyasining orta Osiygdagi bosqinchilik yurishlari tarixidagi eng shiddatlisi bo'ldi.

Podsho qoshinlari shaharda miltiqlardan ot ochib qarshi olindi. Hamma joydan: uyumlar ortidan, xonadonlar tomidan, mudofaa devorlaridan, daraxtlardan turib oq yogdirildi. Ayrim uyumlar ortiga toplar joylashtirilgan edi. Podsho qoshinlari birinchi hujumda talafot korib, chekina boshladilar. Chekina turib, yo'l boyi barcha xonadonlarga ot qoydilar va shaharda yongin boshlandi.

General Skobelev buyrugi bilan artilleriya shaharni oqqa tutdi. Yonginni ochirishga yo'l qoymaslik uchun bu hol uch soat davom etdi. Kechqurun qoshinlar shaharni egallashga yana bir bor urinib kordilar va bu urinish muvaffaqiyatsiz tugadi. Ertalabdan artilleriya yana shaharni oqqa tuta boshladi va jang deyarli kun boyi davom etdi. Bundan ikki xil maqsad: shaharni tubigacha vayron qilish va shahar himoyachilarining irodasini sindirish kozlangan edi.

Shaharda biron ta tirik jon va biron ta butun uy qolmagandek tuyulsa ham podsho qoshinlari hujumni davom ettirishdi. Biroq shaharga kirishlari bilan qattiq oq yomgiri ostida qolishdi. Shahar himoyachilar qarshi hujumga otishdi, natijada bosqinchilar chekinishga majbur bolishdi. Ular shahar chegarasidan chiqib ketishmaguncha ta'qib qilindilar.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi(darslik)
2. Jahon tarixi(darslik)
3. <https://.uz>

## **AFROSIYOB**

***G'aybulloyeva Dilbar Ismoilovna***

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-umumta`lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

Afrosiyob — Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat 17-asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug'd manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. 4-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo'shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Smarakanvening yunoncha tarjimasi. Movarounnahrda somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, qadimgi Smarakanve 9-asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi.

11 — 15-asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. 15 — asrdan forsiy va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo'ldi.

Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 ga. Tepalikning shim. Siyob arig'i bilan chegaralangan. Jan. tomondan „eski shahar“ deb atalgan Samarqandga qo'shilib ketgan.

Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma'lumotlarni ko'proq bermoqda.

Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi va h.k.ni aniqlashga yordam beradi.

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868 yilda Chor Rossiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari

bilan mayor Borzenkov (1874), podpolkovnik V. V. Krestovskiy (1883), sharqshunos olimlar N. I. Veselovskiy (1884-85, 1895), V. V. Bartold (1904) va V. L. Vyatkin (1905; 1912— 13)lar shug‘ullanishdi. 1919 yilda M. YE. Masson, V. L. Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (9-asr) xarobalarini ochdi. 1925, 1929—30 ylarda V. L. Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko‘plab materiallar to‘playdi. Ammo 1930 yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Samarqand tarixiga doir juda kam materiallar bergen. Urushdan keyin O‘zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan Afrosiyob I. Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o‘tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi 6—5-asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V. Afrosiyob Shishkin (1958-66) va Ya. F. G‘ulomov (1967—70)lar rahbarligida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlam materialari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o‘rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Afrosiyob „arxeologik qo‘riqxona“ deb e’lon qilinib, uni o‘rganish ishiga Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San’atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko‘p asrlik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergen bo‘ronlar davri aniqlandi. Samarqand yushshdlarining shohona saroyi ochildi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi 8—5-alarda Sug‘diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Mil. av. 329 yilda shahar Aleksandr Maqduniy qo‘shinlari tomonidan vayron etilgan, uning izlari hozirgacha shahar mudofaa inshootlarida yaxshi saqlangan. Mil. av. 3 — 1-asrlarda, Kushonlar sultanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergen. Mil. av. 3-asrda shahar qo‘shaloq mudofaa devori bilan o‘rab olingan. U davrlarning qalin madaniy qatlami Afrosiyobning shim.da, uning arki a’losi joylashgan qismida yaxshi

saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak Yo'li o'tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan.



## TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO'Q

---

*G'aybulloyeva Dilbar Ismoilovna*

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 10-umumta`lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanimizning qanchalik muhum ekanligi, tarixiy xotiralar doimiy qalbimizda ekanligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy majlis, fan, ta'lif, madaniyat, muassasa, dolzarb, muhokama.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lif, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan davra suhbatida ta'lif muassasalarida O'zbekiston tarixini o'rghanish va o'qitishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.



Tadbirda deputatlar, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif, Xalq ta'lifi vazirliklari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazining mutasaddi xodimlari, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz xodimlari, "O'zbekkino" Milliy agentligi, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi mutasaddilari, yozuvchilar, tarixchi olimlar hamda jurnalistlar qatnashdi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillardanoq xalqimiz tarixi, boy madaniy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrdagi "O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi, 1998-yil 27-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini xolisona o'rganishning ilmiy asoslarini shakllantirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Milliy davlatchiligidan vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-ommabop, ma'rifiy adabiyotlarni o'rganish, tayyorlash hamda chop etish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan 2012-yil 27-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishning nazariy tamoyillari, mazkur sohadagi dolzarb yo'naliishlar belgilab berildi.

Joriy yilning 12-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishida Yurtboshimiz tomonidan mustaqillikkacha bo'lган voqyea-hodisalarни yosh avlod ongu shuuriga yetkazish, tariximizni chuqur o'rganish borasida jamoatchilik, olimlar va mutaxassislar oldida turgan ustuvor vazifalar ko'rsatib o'tildi.

Istiqlolga erishgunga qadar O'zbekiston tarixi bироqlamalik bilan talqin etildi, ko'plab faktlar buzib ko'rsatildi yoki ular haqida sukut saqlandi. Mustaqillik yillarida tarixiy xotirani tiklash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash, O'zbekiston tarixini chuqur o'rgatish asosida

ularni barkamol rivojlantirishga qaratilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hayotga tatbiq etildi.

Davra suhbatida tarixni tadqiq qilish jihatlari, ushbu fanni oliy va o'rta maxsus ta'lim dargohlarida o'qitishni takomillashtirish vazifalari muhokama qilindi.

Xususan, mazkur bosqichda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarini chuqur tahlil etish, ularni mustaqillik g'oyasi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlandi. Deputatlar ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirishlari zarur.

Tadbirda so'zga chiqqanlar ta'lim muassasalarida O'zbekiston tarixi fani o'qitilishi sifati, zamonaviy darsliklarning mazmun-mohiyati, ularda eng yangi tariximizni yoritish darajasi, mavjud muammolarga e'tibor qaratdilar. Jabhadagi ishlar samaradorligini oshirishga doir takliflar bildirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Htpps://Uzbekistan-geneva.ch
2. <https://MOLUCH.RU>
3. Islom Karimov.(Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q)

**READING AS A LANGUAGE SKILL**

---

*Alimova Sevara Amanbayevna,*

*Norimbatova Shaxnoza Shukurlayevna*

*Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining*

*Ingliz tili fani o`qituvchilari*

**Annotation:** This article focuses on the methodological field and explores the subject of teaching reading strategies to young learners because they are a group that can be easily motivated and therefore taught to read effectively through the children's literature. This on the problem is based on my experience with teaching and I know how important is to offer the learners opportunities to develop their reading skills. I tried to find useful strategies and methods that would help my pupils to become skillful and competent readers and find pleasure in reading.

The research confirmed my belief that using stories in the process of teaching reading comprehension to young learners can improve the pupils' reading skills. My pupils are now able to work independently on reading tasks without stress and the ability to comprehend the text of most of them has improved. I know that they have not become the skillful readers after one project but they know what to do with the reading tasks, have positive experiences from reading and it will help them in further learning.

Key words: language, reading, skill, stress, ability, text, learners, vocabulary, writing tasks, dialogues, book, activity

The important source for language learning is definitely listening because language learners start to acquire their learning skills while they hear words, phrases and expressions of desired language. On the other hand, the language learners come into contact with printed words very early so reading "becomes the main source of expanding and strengthening the language".

Through reading other language skills can be developed. Reading text can be a fine example for further writing tasks, dialogues from the books can enhance the learner's vocabulary needed for speaking or inspire the discussion. Grammar, punctuation and vocabulary can be taught by using reading strategies.

Ellis and Brewster present several reading strategies that can be strengthened by reading mind working with books. They are metacognitive strategies, such as planning, comparing, guessing the meaning of new words, self-assessment and self-correction, cognitive strategies including sorting, classifying, repeating, working with dictionaries or predicting and socio affective strategies that are developed through group and pair work.

Burnett and Myers underline the fact that motivation for reading is usually seeking for information or achieving another similar aim. So gaining comprehension skills is another benefit of reading. Harmer differentiated these comprehension skills according to the purpose the text is read. Young learners can scan the text to gain a piece of information and there is no need for careful reading. Skimming the text is similar in the sense that young learners should not read the text properly but only to get a general idea of what is about. Other two skills require reading in depth. Reading for pleasure is a slow activity that involves the reader into the text. Young learners should concentrate on the text when they read for detailed strategies to be able to understand the text or notice the language. These strategies are necessary for the process of development of critical reading.

Harmer also claims that reading is not a passive skill and that young learners should work with texts actively. They need to understand the meaning of the words, think about the message of the text and be able to agree or disagree with it. The reading texts should be therefore realistic and entertaining.

Burnett and Myers add that one text can be used differently as it is in a real life. Young learner can try to find one piece of information, read for detailed strategy of the text or only flick through the pages of the book to find out if the book is suitable for their needs. The ability to read and use the text in different ways helps young learners

to gain the ability to think critically, which is the most desired skill in a today world full of advertisements and a new media.

**Used literature:**

1. Armbruster, B.B., Anderson, T.H., & Ostertag, J Does text structure/summarization instruction facilitate learning from expository text? *Reading Research*. (1995).
2. Dole, J.A., Duffy, G.G., Roehler, L.R., & Pearson, P.D. Moving from the old to the new: Research on reading comprehension instruction. *Review of Educational Research*. (1991).
3. Durkin, D. What classroom observations reveal about reading comprehension instruction. *Reading Research Quarterly*. (1978).
4. Edmondson, Patricia. "Scaffolding: Strategies for Improving Reading Comprehension Skills.", 2010.

**AYOLLARDAGI BEPUSHTLIK**

***Mavludaxon G‘offorova Abdulaziz qizi***

*Farg‘ona tumani tibbiyot kolleji “Terapiyada hamshiralik ishi” kafedrasи*

*Akusherlik va ginekologiya fani o‘qituvchisi*

+998933725978

*E-mail: [mavludaxongofforova8@gmail.com](mailto:mavludaxongofforova8@gmail.com)*

**Annotatsiya:** maqolada bepushlik sabablari, tasnifi, ayollardagi bepushtlik tahlili, tashxisi, yechimlari va maslahatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, sun’iy urug‘lantirishga doir jarayoni mohiyati yoritilgan.

**Abstract:** the article discusses the causes, classification, analysis, diagnosis, solutions and tips of infertility in women. Also, the process of artificial insemination is explained.

**Аннотация:** в статье рассматриваются причины, классификация, анализ, диагностика, решения и советы бесплодия у женщин. Также объясняется процесс искусственного оплодотворения.

**Kalit so‘zlar:** reproduktiv, oosit, infertillik, sperma, follikula, stress, embrion, urug‘lantirish, progesteron.

Bepushtlik reproduktiv tizimning muammosidir. Bu organizmning ko‘payish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Bunga erkak tizimi, ayol tizimi yoki ikkalasi bilan bog‘liq muammo sabab bo‘lishi mumkin. Homiladorlik uchun quyidagilar bo‘lishi kerak:

- Erkak sog‘lom sperma qilishi kerak.
- Ayol sog‘lom tuxum qilishi kerak.
- Spermatozoidlarning tuxumga etib borishi uchun bachadon naychalari ochiq bo‘lishi kerak.
- Sperma tuxumni urug‘lantirishi kerak.
- Urug‘langan tuxum bachadonga joylashtirilishi kerak.
- Embrion sog‘lom bo‘lishi kerak.

Bepushtlik nafaqat ayolning tashvishi, balki erkak muammosi ham sabab bo‘ladi yoki hissa qo‘shadi. Ko‘pgina juftliklarda bepushtlik bir nechta omillarga ega. Bir nechta holatlarda bepushtlik sababini topib bo‘lmaydi. Qachonki, siz homilador bo‘lishga qodir emasman deb hisoblasangiz, tibbiy yordam ko‘rsatuvchingizga erta murojaat qiling. Sababki, ayolning yoshi va er-xotin qancha vaqt homilador bo‘lishga harakat qilgani davolanishga ta’sir qilishi mumkin.

**Ayollarda bepushtlik (ayol infertilligi)** — jinsiy yetuk yoshdagagi ayollarning bir yil davomida tug‘ruq a’zolariga sun’iy yoki tabiiy yo‘l orqali muntazam ravishda yashovchan, faol spermatozoidlarning kirib borishi natijasida homilador bo‘la olmasligi tushuniladi. Shuningdek homiladorlik har doim homila tushishi bilan kechsa ham bepushtlik tashxisi qo‘yiladi.

Ayollardagi bepushtlikni homiladorlikni ko‘tara olmaslik bilan adashtirmaslik kerak, chunki ko‘tara olmaslikda yetilgan ootsit spermatozoid bilan muvaffaqiyatli urug‘lantiriladi, biroq homiladorlik embrion rivojlanish bosqichida tugaydi, bu abort yoki homila tushishi natijasidir.

Agar ayol jinsiy sheri gida laboratoriya usullari bilan yashovchan bo‘lmasan, zaif spermatozoidlar aniqlansa yoki ular umuman bo‘lmasa, u holda ayol bepusht hisoblanmaydi.

Bepushtlik 2xil bo‘ladi.

1. **Birlamchi** ya’ni to‘laqonli jinsiy hayotda homiladorlik biron marta ham bo‘lmasan

2. **Ikkilamchi** — birinchi muvaffaqiyatli homiladorlikdan so‘ng ancha vaqtgacha homiladorlik sodir bo‘lmaslik.

Ayollar jinsiy sohasi fiziologiyasi va patofiziologiyasi tadqiqlariga bag‘ishlangan ayrim manbalarda, bepushtlik tushunchasi quyidagi turlari bilan to‘ldiriladi:

• **Fiziologik.** Ertal yoshlarda (menarxedan oldin) va post-klimakstik (menopauzadan keyin) davrda bepushtlik normal deb hisoblanadi.

• **Ixtiyoriy.** Yoki ongli ravishda tanlangan bepushtlik — medikamentozlardan (dori-darmonlar qabul qilib homiladorlikni to‘xtatish) yoki jismoniy (spiral, boshqa) ashyo-muolajalardan foydalanish.

• **Vaqtinchalik.** Uzoq muddatli stress, organizmning kasallikdan keyingi yoki kasallik davridagi zaifligi natijasida. Shuningdek, ba’zi mutaxassislar laktatsion amenoreya — muntazam emizishning boshlang‘ich davrida ovulyatsiyaning tormozlanishini ham vaqtinchalik bepushtlik deya hisoblashadi.

• **Doimiy.** Ayollar jinsiy a’zolarini butun yoki qisman olib tashlanishi, jarrohlik aralashuv natijasi hisoblanadi.

Klinikada jismoniy tekshiruvlarda bepushtlikning alomatlari:

- Tana massasining indeksi 20 dan kam yoki 26 dan ko‘p(o‘ta ozg‘in yoki semizlik);
- Endokrin buzilishlari belgilari bilan terining va teri hosilalarining holati;
- Sut bezlarining qoniqarsiz rivojlanish darajasi;
- Bimanual ginekologik palpatsiyada ayolning kichik tos organlarida og‘riq, zichlanish belgilari;
- Bachadon bo‘yni vaginal oyna, kolposkopiya orqali ko‘rilganda ginekologik kasalliklar alomatlari.

Laboratoriya va instrumental tadqiqotlar jarayonida bepushtlikning mavjudligini ko‘rsatuvchi alomatlar quyidagilar bilan belgilanadi:

- Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar (JYYK) uchun infektsion skrining;
- Endokrin bepushtlikni istisno qilish uchun gormonal skrining;
- Ayolning kichik tos a’zolar, qalqonsimon bezining ultratovush tekshiruvi — gormonal bepushtlik;
- Gisterosalpingografiya (GSG) — bachadon nayi o‘tkazmasligi alomatlarini istisno qilish uchun rentgenologik tekshiruv;
- Miya o‘sintalarini (turk egatidagi) aniqlash uchun MRT — hayz siklini nazorat qiluvchi gormonlar ishlab chiqarishini sekinlashtirgan bo‘lishi mumkin;
- Kichik tos a’zolarini spiral kompyuter tomografiyasi (SKT) — bepushtlikning anatomik sabablari;
- Laparoskopiya (qorin bo‘shlig‘i organlarining vizual tekshiruvi) — nay-peritoneal bepushtlik, yopishib qolishi, bachadon o’smalari, tuxumdonlarning retentsion kistalari;

•Gisteroskopiya (bachadon bo‘shlig‘ining devorlarini tekshirish) — bachadon o‘smalari, yallig‘lanishi, bachadon devorlarining yaralari.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda, ayollarning bepushtligi — ko‘plab muayyan sabablar (omillar) bilan bog‘liq. Har doim ham sabablar aniq bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda ular tashxislanmaydi yoki bir-biri bilan birlashib, ayol tanasiga o‘tkazadigan salbiy ta’sirni kuchaytiradi.

Agar bepushtlikning ma’lum sabablarini (omillarini) umumiylashtirsak, bir nechta yirik guruhlarni — bepushtlik sabablarini ajratsa bo‘ladi:

- Reproduktiv organlarning tug‘ma anomaliyalari.
- Reproduktiv organlarda orttirilgan, kelib chiqqan:
  - anatomik va morfologik o‘zgarishlar;
  - funksional buzilishlar;
  - modda almashinuvi muvozanatining buzilishi.

35 yoshdan keyin, ayniqsa, ilgari tug‘magan ayollarda, bepushtlik xavfi oshib borayotgani kuzatilmoqda, sababki, yosh o‘tishi bilan fiziologik jarayonlarning sekinlashishi yoki kontratseptivlardan uzoq muddat foydalanish.

Tibbiy adabiyotlarda gormonal kontratseptivlarni qo‘llash to‘g‘risidagi qaramaqarshi fikrlar mavjud. Tarafdorlar gormonal kontratseptivlarni qabul qilishni bekor qilgandan keyin «rebound ta’siri» tufayli bunday vositalaridan foydalanish foydali ekanligini ta’kidlashadi. Ya’ni urug‘lantirish jarayonini to‘xtatuvchi omillarni bekor qilish, estrogenlarning keskin chiqarilishini rag‘batlantiradi, shu tufayli homilador bo‘lish ehtimolligi oshadi. Ba’zi holatlarda rostdan ham shunday bo‘ladi.

Boshqa tomondan, kontraseptsiya vositalaridan uzoq muddat foydalanishdan keyin fertilizatsiya (urug‘lantirish) vaqtinchalik yoki doimiy ravishda pasayishi hollari qayd qilingan. Albatta, bu holat ayol organizmining ta’sir reaksiyasiga, moslashuvchanlik yoki bir qancha omillarga bog‘liq holda o‘zini namoyon qiladi. Lekin shunisi aniqli, kontraseptik vositalardan foydalanmaslik bepushlikni keltirib chiqarmaslik ehtimoli tarixiy tajribadagi ayon haqiqat.

Bepushtlikning sabablarini aniqlash uchun yordamga ko‘proq ilgari muvaffaqiyatli ravishda homilador bo‘lgan ayollar murojaat qilishadi. Uzoq vaqt

mobaynida qayta homilador bo‘la olmaslik ayollarning ikkilamchi bepushtligi deb ataladi. Agar homiladorlikdan ko‘ngilli ravishda bosh tortish va yosh omilini hisobga olmasak, ikkinchi darajali bepushtlikning eng aniq sabablari — boshdan o‘tkazilgan yuqumli kasalliklar, jumladan infektsion yoki noinfektsion etiopatogenezli ginekologik kasalliklar, shuningdek irsiy omil ham yetakchi.

Qachon ayol bepushtlikka gumon qilinadi?

Ayollardagi bepushtlikni ko‘rsatuvchi eng muhim belgi bu homilador bo‘lishiga qulay shart-sharoit mavjudligida bir yil yoki undan ortiq vaqt davomida homilador bo‘la olmasligi. Xo‘sh, bunday sharoitlarga nimalar kiradi?

- Muntazam jinsiy aloqa;
- Yaxshi spermogrammali jinsiy sherihi;
- Kontratseptsiya vositalarining to‘liq, uzoq rad etilganligi;
- 20 — 45 yosh oralig‘ida bo‘lishi.

Ayollarda bepushtlik normal va buzilgan hayz sikllarida ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayollarning tabiiy hayz sikli 21-35 kun davom etadi va ketma-ket uch bosqichdan iborat.

1. Follikulyar bosqich — tuxum hujayraning yetilishi (kamida 7 kun va 22 kundan oshmaydi);
2. Yetilgan ootsitning yetilishi va ozod bo‘lishli ovulyator bosqich, fertil davrning boshlanishi;
3. Lyuteinli — katabolizm, sariq tana bosqichi (13 — 15 kun).

Ovulyatsiyadan bir necha kun oldin va keyingi vaqt fertil davr (bosqich) deb ataladi, bu davrda homilador bo‘lish eng yuqori ehtimollikda bo‘ladi. Bu davrga qadar va undan keyin homiladorlik sodir bo‘lishi mumkin emas! Biroq, turli ayollarda bu bosqich hayzning turli davrlarida sodir bo‘lishini tushunish lozim. Agar sikl homiladorlik bilan yakun topmasa, demak, organizm estrogen ta’siri ostida keyingi davr uchun tayyorlanmoqda.

Muvaffaqiyatli urug‘lantirish uchun ayolning bachadoniga kamida 10 million faol spermatozoid kirishi kerak. Sog‘lom ayolning vagina muhitini har qanday ayol organizmiga begona agentlar uchun to‘sinq bo‘ladi, xususan, spermatozoidlar uchun

ham. Vaginitda qinda spermiylar nobud bo‘lishining sabablari patologik jarayonlar bilan bog‘liq. Normal muhit spermatozoidlar uchun mutlaq to‘siq emas, faol hujayralar shilliq bilan qoplangan bachadon bo‘yni bo‘ylab harakatlanadi. Bachadon bo‘yni devorlaridagi shilliq, epiteliya hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi.

Normada ayol immun tizimi begona oqsillar — urug‘ suyuqligi va spermatozoidlar kirib kelishiga spetsifik antitanalar (ASAT) ishlab chiqarish bilan javob qaytarmaydi. Spermaning immunologik rad etilishi sabablari hali to‘liq o‘rganilmagan.

Ayollarda ASATning paydo bo‘lishi, ehtimol, 2 turdagи allergik reaktsiyalar turidagi rad etish reaktsiya rivojlanishining natijasi bo‘lishi mumkin. Degenerativ yallig‘lanish jarayonlarida jinsiy a’zolar ichki yuzalarida shilliq miqdorining kamayishi natijasida shilliq qavatning to‘siq xususiyatlari buzlilishi mumkin. Hozirgi paytda bu patologiya immunokorrekteviya, erkin aylanib yuruvchi antitanalar miqdorini kamaytirish, tug‘ruq yo‘llari shilliq qavatining reparativ (tiklanish) jarayonlarini rag‘batlantirish yordamida davolanmoqda.

Boshqa immunologik patologiya — bepushtlik omili, ayol organizmi tomonidan o‘z tuxum hujayralariga qarshi antiovarial antitanalar (AOA) ishlab chiqarilishidir. O‘z immun tizimini buzadigan immun komplekslarning paydo bo‘lishi sabablari murakkab bo‘lib, immunolog shifokorlar vakolatiga kiradi. Barcha autoimmun kasalliklar kabi bu holatni patogenezning erta bosqichlarida davolasaga bo‘ladi. O‘tib ketgan holatlarda prognoz yomonroq.

Gormonal almashinuvning buzilishi hayz siklining buzilishi yoki uning yo‘qligiga olib keladi. Ushbu turdagи bepushtlikning asosiy sabablari quyidagilar:

- Bosh miya shikastlanishlari oqibati, gipotolamo-gipofiziari miya o‘smalari;
- Androgen va estrogen gormonlar muvozanatining birinchisi tomonga siljishi (giperandrogeniya) — ayollar organizmida bu holat tuxumdon yoki buyrak ustidan shikastlanishlarida yuzaga keladi va polikistoz tuxumdonlar sindromi bilan birga kechadi;
- Qalqonsimon bezning funktsional faolligining pasayishi (gipotireoz) — hayz buzilishining sababi hisoblanadi;

- Estrogen miqdorining yetishmasligi, natijada hayz sikli ritmi buziladi, tug‘ruq yo‘llari shilliq qavatining shikastlanishiga olib keladi;
- Lipid almashinuvining buzilishi — yo‘g‘ to‘qimasining ortishi yoki kamayishi bilan birga kechadi va tuxumdonlar vazifasining zaiflashuviga olib keladi;
- Erta klimaks bilan bog‘liq gormonal almashinuvning buzilishi;
- Gormonal tizimning tug‘ma anomaliyalari, tug‘ruq yo‘llarining rivojlanmaganligi bilan birga kechadi.

Endokrin kasalliklar hayz siklining buzilishi, endokrin kasalliklarning tashqi alomatlari fonida (semizlik, charchoq va boshqalar) aniqlanadi.

Stress — organizmning turli xil ogohlantirishlarga umumiylmoslashuvchanlik reaktsiyasi, organizmni (shuningdek gormonlar ishtirokida) tartibga solishning murakkab mexanizmidir. Psixologik omilli bepushtlikda stressning aniq sabablarini izlash befoyda chunki ular har bir ayol uchun individualdir. Umumlashtirilgan holda stressning sababchilari quyidagilardir:

- Ortiqcha salbiy ma’lumot;
- Muntazam hissiy munosabatlar;
- Organizmning fiziologik yoki patofiziologik reaktsiyalari.

Surunkali stressda organizmni himoyalovchi moslashuv mexanizmlari zaiflashadi. Bionazorat tuzilishi (vegetativ asab tizimi, buyrak usti bezi gormonlari, gipofiz va boshqalar) moslashuvchanlik yo‘nalishida ishslashni to‘xtatadi, organizmning patofiziologik o‘zgarishlari yuzaga keladi. Bepushtlikning psixologik omillari ortida organizmning patofiziologik o‘zgarishlari (jumladan gormonal kasalliklar) yashiringan bo‘ladi. Psixologik bepushtlik sabablarini aniqlash uchun stressni sababini izlashni to‘xtatish kerak, buning uchun:

1. Stress omiliga munosabatni o‘zgartirish. Ziyolilik darajasi uncha yuqori bo‘limgan oilalarda farzand ko‘rish bilan bog‘liq muammolar kuzatilmasligi qayd etilgan, biroq, bundan farqli o‘laroq, ziyoli va ijtimoiy maqomi yuqori darajada bo‘lgan ayolar mavhum va aniq stressdan ko‘proq aziyat chekadi. Jismoniy tarbiya, foydali hobbilar, dam olish, ijobiy his-tuyg‘ular gormonal va ruhiy muvozanatni tiklashga yordam beradi.

2. Malakali psixologga murojaat qilish. Har doim ham stressni mustaqil ravishda yengib bo‘lmaydi. Muammolar haqida o‘ylashni to‘xtatib, bepushtlikning haqiqiy sabablarini tushunishga yordam beradigan mutaxassis toping.

Erkaklar bepushtligining genetik omillari tibbiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Ayollar bepushtligining genetik omillari juda oz o‘rganilgan. Genetik ildizlarga ega bo‘lgan ayollarning bepushtligi sabablarining ko‘p uchraydigan patologiyalari ma’lum.

- Ayollardagi giperandrogeniya sindromi (erkak gormonlarining ko‘payishi).
- Endometrioz (bachadon devorlarining o‘sib ketishi).
- Erta menopauza sindromi.
- Birlamchi amenoreya sindromi (Sherevskiy-Terner sindromi).

Shuningdek irsiy bepushtlik bilan kechadigan boshqa kasalliklar ham ma’lum. Kasallik sabablari va keljakda genetik anomaliyalarni bartaraf qilishning usullari — genetik mutaxassislarining o‘rganish predmetidir. Hozirgi vaqtda bepushtlikning genetik omillarini aniqlash bo‘yicha laboratoriya usullari ishlab chiqilmoqda.

***Ko‘pincha, ma’lum adabiyotlarda bepushtlik I va II tur darajalari tavsiflanadi.***

- Ayollarda 1-darajali bepushtlik. Yoki bepushtlik I — bu avval tug‘magan ayolning homilador bo‘la olmasligini ifodalaydi. Odatda kontratseptiv vositalardan foydalanmasdan muntazam jinsiy hayot boshlanganidan keyin bir yil o‘tgach homiladorlik kuzatilmasa, ayol bepusht hisoblanadi.

- Ayollarda 2-darajali bepushtlik. Yoki bepushtlik II — bu avval tuqqan yoki homilador bo‘lgan ayollarning homilador bo‘la olmasligini nazarda tutadi. Bepushtlik muddati homilador bo‘lishga birinchi urinishlaridan boshlab o‘lchanadi. Odatda bir yildan keyin.

- Ayollarda 3-darajali bepushtlik — homilador bo‘lish qobiliyatining yo‘qligi darajasini belgilaydi, mavjud adabiyotlarda ishlatilmaydi.

Shundan kelib chiqib, mutaxassislar muvaffaqiyatli urug‘lanish imkonini maksimallashtirish maqsadida homilador bo‘lishga urinishni hayz siklining 11 dan 18 kunigacha amalga oshirish kerak deb ta’kidlashadi. Shuni eslatish kerakki, birinchi kun hisobi hayz kunining birinchi kunidan boshlanadi. Erkaklarga har 2 kunda bir martadan

ko‘p eyakulyatsiya qilish tavsiya etilmaydi, chunki aynan shunday holatda sperma konsentratsiyasi maksimal darajada ushlab turiladi. Ikkala sherik ham lubrikant ishlatmasligi kerak.

Va jinsiy aloqadan keyin ayol darhol yuvinishi kerak emas. Bundan tashqari, ekspertlar homilador bo‘lish uchun «missioner» pozasida jinsiy aloqa qilishni tavsiya etadi, bunda ayol jinsiy aloqadan keyin 15-20 daqiqa tizzalarini bukib, chalqancha yotishi kerak.

*Ayollarning tug‘ilishini yaxshilash bo‘yicha maslahatlar*

Bepushtlik sababiga qarab, homilador bo‘lish imkoniyatini yaxshilash uchun siz qilishingiz mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi mumkin:

1. **Sog‘lom vaznga erishish:** semirish tanangizga bir necha jihatdan salbiy ta’sir qiladi va ayollarda ortiqcha vazn ovulyatsiyani kamaytirishi mumkin.
2. **Sigaret va spirtli ichimliklardan saqlaning:** ha, har qanday tibbiy risola, maqola va plakat har qanday sog‘liq holati yoki kasalligi haqida sizga chekish va ichish mumkin bo‘lgan barcha yomon ta’sirlar haqida aytib beradi. Narsa, bu butunlay haqiqat! Chekish ayolda kontseptsiya ehtimolini pasaytiradi (va erkaklarda ham urug ‘sifatiga salbiy ta’sir qiladi!), spirtli ichimliklar har doim chaqaloq haqida o‘ylashda yomon fikrdir.
3. **Sti uchun Test:** xlamidiya ayollarda ham, erkaklarda ham bepushtlikni keltirib chiqaradi va uni tampon yoki siydik tekshiruvi bilan osongina tekshirish mumkin. Xlamidiya antibiotiklar bilan osonlikcha davolanadi.
4. Stressni kamaytiring: aytishga osonroq, ammo stress munosabatlarga, hatto ovulyatsiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (erkaklarda sperma ishlab chiqarish uchun). Agar siz homilador bo‘lishga harakat qilsangiz, hayotingizdagi har qanday stressni boshqarish usulini topishga harakat qilganingiz ma’qul – masalan, dam olish yoki jismoniy mashqlar qilish uchun vaqt ajrating.

Ba’zida, er-xotin tavsiya etilgan hamma narsani qilganda ham homilador bo‘la olmaydi. Bunday paytda ham tushkunlikka tushmang, ovulyatsiyani ko‘paytirish, jarrohlik amaliyotini (masalan, bachadon naychalarida, bachadondan chandiqlarni olib tashlash yoki endometriozni davolash uchun) yoki yordam beradigan kontseptsiyani

o‘z ichiga olgan bir qator davolash usullari mavjud. Bu sun’iy urug‘lantirish yoki IVF (in vitro urug‘lantirish) bo‘lishi mumkin.

IVF to‘rt bosqichli jarayon:

1-bosqich: tuxumdonlarni stimulyatsiya qilish, kuzatish va ovulyatsiyani boshlash  
Urug‘lantirish uchun ko‘proq etuk tuxumlarga ega bo‘lish homiladorlik ehtimolini oshiradi

Ayol tanasi odatda har oy faqat bitta etuk tuxumni chiqarganligi sababli, aniq dori-darmonlar tuxumning erta chiqarilishini oldini olish uchun ishlatiladi, boshqa dorilar esa, tuxumdonlarni ko‘proq tuxumdon follikulalarini rivojlantirish uchun;

2-bosqich: tuxum olish

Tuxumdonni stimulyatsiya qilish tugagandan so‘ng va follikullar pishib bo‘lgach, iloji boricha ko‘p tuxum olishga harakat qilinadi. Tuxumni olishda mahalliy behushlik yoki ba’zi hollarda umumiy behushlik amalga oshirilishi mumkin. Etuk follikullar ultratovush yordamida aniqlanadi, so‘ngra igna yumshoq assimilyatsiya bilan etuk follikuladan suyuqlikni olish uchun vagina orqali o‘tadi.

Tuxum olinganligini tekshirish uchun suyuqlik darhol mikroskop ostida tekshiriladi.

Jarayon ikkala tuxumdonagi har bir etuk follikul uchun takrorlanadi. Barcha olingan tuxumlar follikulyar suyuqlikdan olib tashlanadi va inkubatorga joylashtirilgan.

3-Bosqich: Urug‘lantirish

Tuxum olinishidan taxminan ikki soat oldin erkakdan urug‘ namunasi yig‘iladi Keyin sperma joylashtiriladi, inkubatordagi tuxumlar ayol tanasi bilan bir xil haroratga o‘rnatiladi. Ertasi kuni urug‘lantirish sodir bo‘lganligini aniqlash uchun tuxumlar mikroskop ostida tekshiriladi. Agar u mayjud bo‘lsa, olingan embrionlar bir necha kundan keyin bachadonga o‘tishga tayyor bo‘ladi.

4-bosqich: embrionning rivojlanishi va uzatilishi

embrion ko‘chirishni ikkinchi kun orasida amalga oshirilishi odatiy holdir. Embrionni ko‘chirish murakkab protsedura emas va behushliksiz amalga oshirilishi mumkin. Embrionlar naychaga joylashtiriladi va bachadonga o‘tkaziladi.

Shuni eslatib o‘tish kerakki, bunday badiiy yordam orqali tug‘ilish kam vaznli bolani tug‘ishi ehtimolini ko‘paytiradi, bu holat umrbod salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (Bolaning salomatligi [3]. 2002 yil mart oyida nashr etilgan maqola).

Nyu-England tibbiyat jurnalida: Bunday sun’iy usul yordamida tug‘ilish bilan shug‘ullanadigan ona ham sog‘liqni saqlash muammolari duchor bo’lish xavfi yuqori.

Ning 2002 yilgi tibbiy jurnal nashrida yozilishicha, sun’iy urug‘lantirish yo‘llari ayollarning preeklampsiyasini ikki marta oshirdi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki,

Bepushtlikka qarshi kurash bolalik davridayoq, qizlarning jinsiy a’zolari shakllanayotgan paytda unga ta’sir qiluvchi, jinsiy a ‘zolardagi yallig‘lanish va organizm dagi o‘tkir yallig‘lanish jarayonlarining oldini olish va o‘z vaqtida davolash bilan boshlanadi. Nikoh gigiyenasi qoidalariga rioya qilish bepushtlikning oldini oladigan vositalardan biridir. Barvaqt boshlangan jinsiy hayot ayolning butun organizmi funksiyalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bepushtlik bu yakuniy tashxis emas yoinkim, bu bedavo dard emas. Bepushtlikning ko‘rib chiqilgan yechimlari qatorida sun’iy urug‘lantirish kabi bir qancha usullari oxirgi chora sifatida qaraymiz, aslida esa, asl chora sabr va umid. Mana shular evaziga sizni farzandsizlik muddatini uzaytirayotgan stressdan ham qutulish mumkin. Aslini olganda, farzand bu eng oliy tiriklik, shunday ekan, Yaratuvchi va tabiatning o‘zi barcha yechimni qalbimizga va atrofimizga jo qilgan.

#### **Foydalilanigan manbalar:**

1. M. A. Fozilbekova, x. S. Zayniddinova AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI Tibbiyat kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma
2. <https://mymedic.uz/>
3. <https://www.andrology.uz/>
4. <https://www.topdoctors.co.uk/>
5. Female infertility & assisted reproductive technology (ART)

6. © 2011 Merck Serono Australia Pty Ltd | ABN 72 006 900 830 Units 3-4, 25 Frenchs Forest Road East, Frenchs Forest NSW 2086 | Tel: +61 2 8977 4100 | Fax: +61 2 9975 1516 Healthcare Logistics. 58 Richard Pearse Drive, Airport Oaks, Auckland, New Zealand. | Toll free 0800 111 166 | Fax +64 9 918 5101. Merck Serono is a division of Merck. | ® Registered trade mark | FER-FEB-15-ANZ-0010 Last revised: June 2015 | TAPS CH3708
7. ok.ru[namozniurg/topic/70414332313765](http://namozniurg/topic/70414332313765)

**INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING CHEMISTRY**

---

***Shamsiddinov Muxammadjon Ziyavidinovich***

*Tashkent City Yashnaobod district, Tashkent State Institute of Dentistry academic*

*Lyceum teacher of chemistry*

**Annotation:** This article provides information on innovative approaches to teaching chemistry.

**Keywords:** Chemical elements," periodic law and periodic table", inorganic chemistry, information technology.

There are very few works devoted to the use of computer tools in improving the effectiveness of teaching chemistry, and even in the sources there are insufficient opportunities of Information Technology in the educational process. There are very few works devoted to the study of the effectiveness of the use of information and communication tools in the study of chemistry. In the sources there are not sufficiently fully disclosed opportunities in the educational process. The course of chemistry, in particular, the "periodic law and periodic table" of chemical elements, was not developed programs for the transition of the department using new techniques along with computer technology. There are a number of articles and internet sites on teaching the subject of chemistry using electronic manuals and electronic manuals on the topic as a whole. In this regard, P created abroad.A. The electronic manual of Freshney "Education Periodic Table " states that the periodic table of chemical elements is in electronic form, when and by whom each chemical element is discovered, their appearance in nature, their compounds, properties, the location of elements on the world map, the state of motion of the spatial structure of the element atoms allows you to obtain complete information.

In teaching chemistry in our republic, Umonkulov's " D.I. There is an electronic manual" periodic table of chemical elements Mendeleev". This spreadsheet is built on a simple program that allows you to quickly and easily find the physical magnitudes of

chemical elements. The need of academic lyceums for computer teaching programs, manuals, teaching using a computer determines how relevant the subject of research is. In the Uzbek language, however, there is practically no scientific work devoted to this problem account.

The use of a computer in the field of Chemical Science — the statement of topics has been proven by many research scientists by the fact that animated actions in images, the demonstration of chemical processes in nature in a specific way that cannot be seen with the naked eye, are of great practical importance. Active activities during the training session are mainly organized by the student and the teacher. For this, the interaction between them is organized, in most cases, by means of methodological manuals that are used in the course of the lesson. Especially to students who are just taking a step in chemistry, it seems that the course process itself "wonderful", organized by unconventional training, technical means that embody didactic games. The use of educational technical means in classes at the same time gives the expected results in the effective, active organization of classes, such as attracting the attention of the student. The creation of electronic textbooks in teaching chemistry lessons on the basis of innovative pedagogical technologies in the education of a harmonious generation, their application to the educational system of academic lyceums and colleges will help to calm students ' pedagogical skills.

In inorganic chemistry, it is very important to effectively use the necessary exhibitions and teaching aids in the perfection of the methodological aspect of the topic "periodic law and periodic table" of chemical elements. The development of methods for interpreting some new terms in science is required. The topic is bibliographic in nature, and the delimitation of information in the textbook can lead the lesson to a "boring" state. The main task of the educational program from chemistry should be to provide the teacher with the management of chemical processes on the basis of the necessary concepts and laws of the same science, obtaining new-new substances by modern methods and showing them general directions of Use not only on an industrial, agricultural scale, but also in everyday life, in the family.

**Literature:**

1. Tursunov S.Q. Methodological foundations for the creation and implementation of electronic information resources in education: abstract.dis. ... ped.science.candidate. Tashkent. 2011. - 24b.
2. Umonqulov G'. "D.I.Electronic manual "periodic table of chemical elements Mendeleev".
3. Kholmamatova L. Organization of Chemistry Lessons on the basis of a new pedagogical technology. Public education 2007. №5.- 81-83 b.

**TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR**

***Ernazarova Xurshida Komilovna***

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani*

*34-umumiy o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi*

+998917888238

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlarga ajratish, o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o'quv fanlari aro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lif sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi. Tarix darslarida "Pisa" testlaridan foydalanish, "Krossvord" uslubi, "Xaritalar ustida ishslash" va "Raqamlar tarix" uslublari ushbu maqola orqali keng va atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, raqamlar tarix, PISA, didaktik shartlar, xarita, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, innovatsion usullar.

**INNOVATIVE WAYS TO TEACH HISTORY SUBJECTS**

**Abstract:** This article is based on interdisciplinary links in the curriculum by establishing interdisciplinary links in the organization of history lessons and dividing the lessons into specific groups based on the topics, combining the content of the subjects studied in the curriculum. input of organized lesson hours; Ensuring the quality of education and strengthening its educational aspects of interdisciplinary lessons; the lessons reveal features such as students 'scientific outlook and the formation of specific skills and competencies through the use of concepts in the context of closely related or mixed academic disciplines. The use of the Pisa test in history

lessons, the Crossword method, the Map work method, and the Digital History method are covered extensively in this article.

**Keywords:** history, digital history, PISA, didactic conditions, map, interdisciplinary connection, integration, innovative methods.

Ta’lim amaliyoti ko‘rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo‘layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini erkin qo‘llash imkoniyatini beradi.O‘quv fanlari aro aloqadorlikni ta’minalash bo‘yicha o‘qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo‘lish mumkin: 1. Ko‘rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan o‘quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida.Chunonchi, tarix darslarida O‘zbekiston tarixiu va Jahon tarixi darslarida mazmunan o‘xhash bo‘lgan “Osiyo mamlakatlari madaniyati”, “Yevropada o‘rta asr shaharlari”, “Osiyo mamlakatlarining o‘rta asr shaharlari” kabi mavzularni o‘rganish bo‘yicha. 2. Mavzularning bir-biriga o‘xhashligi: o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish. 3. Umumlashtirish - o‘quv fanlarning umumiy qonuniyatları va tamoyillarini mukammal o‘rgatish maqsadida turli o‘quv fanlari bo‘yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o‘quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish. Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o‘qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi: o‘rganilayotgan o‘quv fanlari bo‘yicha mavzularni mazmunan uyg‘unlashtirish orqali o‘quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish; o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida

tashkil etilgan darslarning ta’lim sifatini ta’minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish; darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o‘quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashda o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o‘quv kurslari bo‘yicha, muammolilik, ko‘rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin. O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan dars materiallarini o‘quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o‘zaro aloqador bo‘lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o‘rganish, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo‘lishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik o‘quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o‘quv predmetidan o‘rganilayotgan bilimlarni o‘zlashtirish va o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o‘zlashtirishda ularni qo‘llashni bilish o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir. O‘quvchilarning bilish faoliyatları va o‘quv fanining uyg‘unlashtirilgan mazmuni o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida o‘tiladigan darslarga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi: 1. Fanlararo aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan darsda yangi mavzuni o‘zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo‘lish. 2. Fanlararo aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo‘llash bo‘yicha o‘quvchilarning bilish faoliyatları samaradorligini ta’minlash. O‘qituvchi dars o‘tayotganda boshqa o‘quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta’minlashdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o‘quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o‘tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-

biriga yaqin fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlarni qo‘llash talab etiladi; o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o‘quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta’milnadi. 3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash asosida o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog‘liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lishi. 4. Fanlararo aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog‘liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo‘lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O‘quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o‘zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalg etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin. 5. O‘quv fanlariaro aloqadorlikni qo‘llash asosida o‘tilgan dars o‘quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg‘otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o‘rtasidagi tafovutlar, bog‘liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim. 6. Fanlararo aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan o‘quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o‘quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta’minlovchi ta’limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo‘nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatları alohida ko‘rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda “Atamalar izohi”, «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin davomida diqqat - e’tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o‘z ismning bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi.” Didora-Doro I. qadimgi Fors shoxi”). “Juftini top” o‘yinida o‘quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o‘quvchi tarqatmalar asosida savollarning to’g’ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o‘ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag‘batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrashi, o‘z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta’lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi. Quyida sizlar uchun hozirgi

zamonda innovatsiyon dars o'tish usul va uslublaridan misollar keltirilgan. 1-darslarda "Rasmli testlardan " foydalanish. Bu usul orqali o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati shakllanadi hamda hayotiy masdalalarni hal etishga bo'lган qarashlari uyg'unlashadi

1. Ushbu rasmida ko'rsatilgan inshoot qaysi shahrda joylashgan? A. Buxoroda B. Samarqandda C. Toshkentda D. Shaxrisabzda

2.Abdullaxon II ga atab ishlangan ushbu miniatURA qaysi yilga oid? A. 1570-yil B. 1572-yil C. 1575-yil D. 1577-yil

2. Tarix darslarda « Krossvord» uslubidan foydalanish. Bu uslubda o'quvchilarning matematik savodxonligi ortadi. Ularning fikrlash va mustaqil ishlay olish qobiliyatları shakllanadi.

KROSSVORD – O'YIN METODI Bolalar faqat ular o'zlari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo'ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o'rgatmoqchi bo'lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz.

J. Puaje Quyida 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining bo'limlar yuzasidan tuzilgan krossvordlar jamlanmasini tavsiya etiladi:

**1-5-MAVZULAR BO'YICHA KROSSVORDLAR 1-VARIANT KROSSVORD (Ismlar bo'yicha) ENIGA**

2. To'qqiz kitobdan iborat "Tarix" asarining muallifi. 4. Maqbarasiga temirdan bezak ishlatgan Misr fir'avni.

**BO'YIGA**

1. "Aleksandr anabasisi" asarining muallifi. 3. Miloddan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod qilgan. O'z asarida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan qadimgi yunon tarixchisi va geografi.

1 2 3 4 EclipseCrossword.com

4. arix darslarida turli xil mavzulashtirilgan xaritalardan foydalanish.

Tarix darslarida avvolo o'quvchilarga xarita bilan ishlashni o'rgatish lozim . lekin afsuski ba'zi darsliklarimizda mavzulashtirilgan xaritalar kamlik qiladi.

Ayniqsa 6-sinf o'quvchilari uchun qadimgi manzilgohlarning joylashgan o'rnini o'rganish uchun xaritalarning o'rni beqiyos Shuning uchun quyida beriladigan xaritalar orqali mavzuni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

**SONLAR ISHTIROKIDAGI "RAQAMLI TARIX" TA'LIMIY O'YINI**

O'quvchilaringiz tarix fanida berilgan sonlarni yodlashga erinchoqlik qilayaptimi yoki qiynalayaptimi? Unda o'quvchilaringizni qiziqtirishning samarali yo'llarini havola etamiz.

Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi.

Agarda o'quvchiga mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lган voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq

barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin: Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. O'quvchida qiziqish bo'lmasa, har qanday metod, usulni qo'llamang samara berishi qiyin. Men tarix darslarida o'zim yaratgan qiziqarli boshqotirmalardan iborat "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinidan samarali foydalanishga harakat qilaman. "Raqamli tarix" ta'limiy o'yini quyidagicha o'tkaziladi: Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo'lgan sanalari, statsistik ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulida (amallarni noodatiy usullarda hisoblash) shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma'lum son izohlanadi. Tarix darslarida o'quvchilarning matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini mavzuni mustahkamlash va takrorlash vaqtida o'quvchilar yoki guruqlar bilan ishlashda qo'llanishi maqsadga muvofiq. "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur.

Qiziqarli boshqotirmalardan iborat bo'lgan "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini tarix darslarida qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Tarix fanini o'rghanishning eng murakkab tomonlaridan biri hisoblangan sanalar va statistik ma'lumotlarni o'quvchilarni qiziqtirgan holda ularning xotirasida saqlab qolishida yordam beradi;
- Xayolan davrlararo sayohat paydo bo'ladi;
- Tarixiy voqealar qaysi davrda yuz bergenligini izohlay olish ko'nikmasini shakllantiradi;
- Matematik savodxonlikni oshirishga yordam beradi. 6-sinflar uchun 1-10-mavzular bo'yicha Masalan: 1-BOSHQOTIRMA: Hurmatli bilimdonlar!

Quyidagi boshqotirmani yeching? Gerodotning mashhur «Tarix» asaridagi kitoblar soni. Gerodotning mashhur «Tarix» asaridagi kitoblar soni. 1 Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng qisqa masofasi (km) Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng qisqa masofasi (km) 2 ? 3 Misrliklar birinchi bo‘lib tuzgan taqvimdagi bayram kunlari Misrliklar birinchi bo‘lib tuzgan taqvimdagi bayram kunlari 4 ? 5 ? 3 1-boshqotirma: “Raqamli tarix” ta’limiy o‘yinida berilgan boshqotirmaning javobi 22 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligining 1-10-mavzular ichidan 22 soni bilan bog’liq ixtiyoriy bitta ma’lumot aytin? Nil daryosi guyi gismining qora tuproqli serhosil dalalardan iborat qismining eng uzun masofasi 22 km

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiyl o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. «Ta’lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
2. Tarix o’qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil

**MATEMATIKA FANIDA XALQARO DASTURLARNING O'RNI**

*Berdiyorov Mirkomil Sadatovich*

*Toshkent shahar Olmazor tumani 134-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Matematika fani o'qituvchisi*

*Abdullayev Ilhomiddin Kamoliddin o'g'li*

*Toshkent shahar Olmazor tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining*

*Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PISA haqida umumiy tushuncha, PISA dasturuning o'quvchilar hayotidagi roli, mavzularga kreativ yondoshuv, vizual o'quv materiallari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarning kreativ fikrlashiga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda Xalqaro PISA dasturining ahamiyati tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** PISA, kreativ fikrlash, matematik-ilmiy savodxonlik, test.

Hozirgi vaqtida maktabning asosiy muammosi o'quvchilarning o'qishni istamasligi. Ammo o'yin jarayonida hatto eng passiv o'quvchi ham darsga kiritiladi, o'quvchilarhar qanday qiyin topshiriqlarni ham bajara oladilar. Faylasuflarning o'yin borasida o'z nuqtai nazari bor, ular quyidagilarni ta'kidlaydilar: "O'yin o'quvchilarning rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki yaratilgan o'quvchilar hayotining o'ziga xos shakli, bu ma'noda bu maxsus pedagogik ijoddir".

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ushbu dastur dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur asosidagi baholash tizmi hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) tasodifiy tanlov asosida o'tkazilgan va 2009, 2012 yillardagi PISA

natijalari o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha yutuqlari quyi pog’onada ekanligi ko‘rsatilgan. Keyingi sinovlar 2021 yilda bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan. PISA da ilmiy savodxonlik o‘quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallah, jarayonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarini dalillar asosida tushintirish hamda xulosalash asosida idindifikasiya qilinadi va tavsiflanadi. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalardan biridir.

PISA butun dunyodagi 15 yoshli o‘quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi olib keladi. PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi o‘quvchilarda dalillarga asoslangan xulosaga kelishda ko‘maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo‘lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko‘nikmani ta’lim orqali rivojlantirishga olib keladi. PISA dasturidagi ushbu faoliyat

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Nickerson kreativ fikrlashni bo‘gувчи aynan maktab bilan bog‘liq bir qator amaliyotlarni mavjudligini e’tirof etadi va ularga quyigalarni kiritadi:

1. vazifani bajarishning yagona to‘g‘ri usuli, savolga yagona to‘g‘ri javob bo‘lishi kerak, degan g‘oyaning mavjudligi;
2. nufuzli insonlarga bo‘ysunish va ulardan qo‘rqish kerak, degan munosabatni targ‘ib etish;
3. har qanday holatda ham dars rejasiga amal qilish;
4. originallik o‘ta noyob xislat ekanligiga ishonib qolish;
5. bilim alohida sohalarga bo‘linishi haqidagi ishonchni targ‘ib etish;

6. qiziquvchanlik va sinchkovlikni ma'qullamaslik;
7. bilim olish va muammoni yechishning qiziqarli mashg'ulot bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Demak, pedagog ustozlar ham o'quvchilarning kreativ fikrlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun pedagoglar dars jarayonida yuqorida keltirilgan kreativ fikrlashni bo'guvchi omillardan vos kechishi lozim.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma'lumot yig'ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo'ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so'rovnama. Test qismi o'quvchilar g'oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish asosida ma'lumot beradi. So'rovnama ushbu ma'lumotni o'quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma'lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), mакtab muhiti haqidagi tasavvurlari, mакtab va uning tashqarisida shug'ullanadigan faoliyat kabi ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Aniq-ilmiy fanlar savodxonligini aniqlash PISA dasturini bitta bo'limi bo'lib, bunda hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasiga ega ekanligi o'rganiladi. Bu bo'limning asosiy maqsadi atrofimizdagi olamni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish hamda biologik hodisalarga kreativ yondashishdan iborat. Aniq-ilmiy savodxonligini aniqlashda birinchi navbatda PISA tizmiga asoslangan o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o'quvchilarga tadbiq qilish kerak. Tadbiq qilingan o'quv materiallari sinfda o'quv jarayonini yaxshilashga va o'quvchilarning faolligini oshirishga hizmat qilishi lozim. Buning uchun o'quv materiallari ko'proq amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lsa, maqsadga muofiq bo'ladi. Chunki amaliy mashg'ulotlar o'quvchilar bilimini boyitishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va kreativ fikrlashga olib keladi. Gretsiya maktablarida 7- va 9- sinf o'quvchilarining matematika fanidan bilimini baholashda vizual o'quv materiallaridan foydalilanadi va uning quyidagi hususiyatlari tahlil qilinadi.

- \* Vizual o‘quv materiallarini PISA va o‘quv qo‘llanmalarga kiritish chastotasi
- \* Vizual o‘quv materiallarining turlari (rasm, diagramma, jadval va boshqalar)
- \* O‘quvchi egallashi kerak bo‘lgan bilimlarni aniqlashda vizual tasvirlar aniq roli,
- \* Vizual o‘quv materiallarida ma’lumotlar keng doirada tahlil qilishini
- \* Talab qilinadigan javoblar formati (grafik tahlil qilish, jadvallarni to‘ldirish, vizual ko‘rsatmalarini bajarish, raqamlı javoblar).

Shunday qilib, aniq ilmiy savodhonlikni oshirishda biologiya fanidan PISA Tarifikatsiyadan o’tkazmaydi deb asabiga tegadida odamni dasturiga oid o‘quv materiallarni ishlab chiqish va dars jarayoniga qo‘llash, o‘quvchilarning bilimini boyitishga, egallagan bilimlarini o‘z hayotida qo‘llashga hamda matematik jarayonlarga kreativ yondashishga olib keladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Kyriaki Anagnostopoulou, Vassilia Hatzinikita, Vasilia Christidou. PISA and biology school textbooks: the role of visual material // Procedia - Social and Behavioral Sciences 46 ( 2012 ) 1839 – 1845
2. Lucas, B. and E. Spencer (2017), Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Generate Ideas and Can Think Critically., Crown House Publishing, <https://bookshop.cantebury.ac.uk/Teaching-CreativeThinking-Developing-learnerswho-generate-ideas-and-thinkcritically> (accessed on 26 March 2018).
3. Nickerson, R. (2010), «How to Discourage Creative Thinking in the Classroom», in Beghetto, R. and J. Kaufman (eds.), Nurturing Creativity in the Classroom, Cambridge University Press, Cambridge, <http://dx.doi.org/10.1017/CBO9780511781629.002>.
4. OECD. 2012. Assessment and Analytical Framework. (Online).

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK SAVODXONLIK**

*Usmanova Nazokat Yulchiyevna*

*Toshkent shahar Olmazor tumani 278-maktabning*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Xatamova Dilafruz Ibrahimovna*

*Toshkent shahar Olmazor tumani 15-maktabning*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Zamonaviy ta'lilda ta'lim muassasalardagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzlusiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan.

**“Misollar zanjiri” o'yini**

O'yin jihozи: 3 qatorga mo'ljallangan misollar jamlamasi, darstaxta, raqamli ko'rgazmalar.

O'qituvchi o'yin qoidasi bilan tanishtiradi. Bu o'yinni og'zaki va yozma ravishda, sinf sharoiti va o'quvchilar o'zlashtirishiga qarab tashkil etish mumkin.

Masalan, o'qituvchi birinchi misolni aytadi, ya'ni 19 - 7 desa, bundan keyin keladigan misolni o'quvchilarning o'zlari tuzadilar, ular o'z misollarini oldingi misolning javobi bo'lgan sondan boshlaydilar. 5, 6 ta misol tuzganlaridan so'ng o'qituvchi ishni doiraviy misollar hosil bo'ladigan misol tuzish bilan tugatishni

taklif qiladi, ya’ni birinchi misolning javobi 12 bo‘lsa, oxiridagi misolning javobi 12 bilan yakunlanishi kerak. Bu o‘yinni qayiqchalar bilan o‘tkazilganda qayiq jo‘nab ketgan joyidan suzib, yana jo ‘nab ketgan joyiga qaytib kelishi mumkin, samolyot ham uchib ketgan joyidan aylanib kelib, yana o‘sha joyga qo‘nishi mumkin. Misollar ana shunday zanjir shaklida yoki doiraviy misollar o‘yini tarzida berilishi mumkin.

$$28 + 10 = 38; \quad 38 + 7 = 45; \quad 45 - 6 = 39;$$

$$39 + 20 = 59; \quad 59 - 2 = 57; \quad 57 - 19 = 38;$$

Misollarni uchala qatorga ustun shaklida doskaga yozib berish ham mumkin. Doskada yozilgan misollarni o‘quvchilar musobaqa tarzida yechadilar.

1-qator

$$17 + 20 = 37;$$

$$37 + 30 = 67;$$

$$67 - 9 = 58;$$

$$58 - 21 = 37;$$

$$28 + 4 = 32;$$

$$32 - 4 = 28;$$

$$32 - 28 = 4;$$

2-qator

$$87 - 82 = 5;$$

$$5 + 70 = 75;$$

$$75 - 16 = 59;$$

$$59 - 54 = 5;$$

$$39 + 5 = 44;$$

$$44 - 5 = 39;$$

$$44 - 39 = 5;$$

3-qator

$$64 + 30 = 94;$$

$$94 - 25 = 69;$$

$$69 + 11 = 80;$$

$$80 + 14 = 94.$$

$$54 + 13 = 67;$$

$$67 - 13 = 54;$$

$$67 - 54 = 13.$$

Uchinchi uslubda yechiladigan misollar o‘zaro bog‘liqligi nimada?

O‘quvchilar o‘ylab, fikrlab aytib berishlari kerak.

18 + 6, 27 + 5, 6 + 18 kabi misollarda bir xil bo‘lgan misollar bormi-yo‘qmi? Izlab topish kerakligi aytildi. Bolalar qo‘sish natijasini ko‘rgazma bilan ko‘rsatadilar va bu misollar qaysilagini aytadilar. Bu yerda javobi 24 ga teng bo‘lgan ikkita misol bor: 18 + 6 va 6 + 18. O‘quvchilar bu misollar nima uchun “zanjur misollar” deb atalishini izohlashlari kerak. O‘quvchilarning o‘zlariga ham ana shunday “zanjur misollar” tuzib kelish topshirigi beriladi. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini ortirishga katta yordam beradi.

“Misollar zanjiri” o‘yinini og‘zaki ham bajarish mumkin. Buning uchun birinchi misolni o‘qituvchi aytadi, undan keyin esa bolalarning o‘zлari misol tuzadilar. Ular o‘z misollarini oldingi misolning javobi bo‘lgan sondan boshlaydilar. Shunday qilib, birinchi misolning javobi ikkinchi misolning boshlanishi, ikkinchi misolning

javobi uchinchi misolning boshlanishi bo‘lib, shu tarzda zanjir bo‘lib ulanib ketadigan bo‘lishi kerak. O‘yin davomida eng muhimi jismoniy daqiqalar o‘tkazish jarayonida she’riy usullardan foydalanish mumkin.

### **Nega javoblar bir xil?**

Dugonalar gaplashib o‘tirishardi.

— Qizlar, istagan biror soningizni o‘ylanglar, — dedi Nargiza.  
— O‘yladik,—deyishdi qolganlar.  
— Endi o‘z o‘ylagan soningizni 2 ga ko‘paytirib, keyin ko‘paytmaga 2 ni qo‘shinglar.

— Shunday qildik.  
— Endi yig‘indini 2 ga bo‘lib, so‘ngra undan dastlab o‘ylagan sonlaringizni ayiringlar.  
— Buni ham bajardik.  
— Javobi 1. Shundaymi?  
— Ha, shunday, — deya uning topqirligiga tan berishdi dugonalari.

Maqsuda 1, Mohigul 2, Jasur 3, Jahongir esa 5 sonlarini o‘ylashgan ekan. Shunga qaramay barchaning javobi bir xil chiqishi juda g‘aroyib edi. Qiziq, siri nimada ekan-a?

$$( C \bullet 2 + 2 ): 2 - C = 1.$$

### **9 ga oid 9 topshiriq**

1. 9 gacha bo‘lgan raqamlarni qo‘shib, natijani nechiga bo‘lsa, 9 chiqadi?
2. 9 gacha bo‘lgan raqamlami ikkitadan yozing, ularning yig‘indisidan 9 hosil bo‘lavserin.
3. 9 gacha bo‘lgan raqamlardan shunday sonlar hosil qilingki, ularni 9 ga bo‘lganda 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 chiqsin.
4. 9 ga qaysi sonni ko‘paytirilsa, ko‘paytma 9 bo‘ladi?
5. Qaysi songa 10 ni qo‘shib, 10 ga bo‘lsa, 9 chiqadi?
6. Qaysi sonning o‘z-o‘ziga ko‘paytmasi 9 bo‘ladi?
7. Maktablarda 9-oydan boshlanadigan o‘quv yili necha oy davom etadi?

8. Qaysi songa 9 ni qo'shsa, yig'indi 9 ga teng bo'ladi?9. Qaysi sondan 19 ni ayirib, 9 ga bo'lsa, 9 chiqadi?

Buni kim bajaradi?  $9 \cdot 9 \cdot 9 =$

Bu juda qiziq. 9 ni istalgan songa ko'paytirsak, natijada raqamlar yigindisi 9 ga qoldiqsiz bo'linadi. Buni qanday tushuntirasiz?

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi".
2. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi" Qayta ishlangan II nashri.
3. Bikboeva N.U. va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi"

**CHET TILI O'RGANISHDA INTERFERENSIYA HODISASI HAQIDA  
TUSHUNCHALAR**

---

***Ismoilova Shodiya Xusanboy qizi***

*Farg'onan Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqola intonatsion tizim darajasidagi til aralashuvi muammolari va uning o'ziga xosligi, tilshunoslar tomonidan ushbu hodisani turlicha baholash masalalariga bag'ishlangan. Til darajasida bilingualizm sharoitida va yangi yo'naliislarni shakllantirishda intonatsion tizim darajasida lingvistik aralashuvni o'rganish bo'yicha fikr-mulohazalar va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvistik interferensiya, intonatsion tizim, intonatsiya modellari, bilingualizm, nutq intonatsiyasi, interferensiya tushunchalari, til darajalari.

Fikrning noto'g'ri anglanishi faqatgina grammatik yoki leksik jihatlarga bog'liq bo'lib qolmay balki intonatsiyani notug'ri qo'llash orqali so'zlovchi tinglovchi uchun tushunarsiz fikr bildirishi mumkin. Intonasjon aksent yoki boshqacha qilib aytganda, intonasjon xatolik natijasida yuzaga keladigan intonasjon interferensiya fikrning ma'no jihatdan noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Tilshunoslar (Palmer, 1924; Cook, 1968; Martinkenas, 1987; Vishnevskaya, 1993; Interferensiya zvukovix sistem, 1987) ning fikriga ko'ra o'zga tildagi aksent ko'p hollarda aynan intonatsiyada ko'zga tashlanar ekan. Ko'plab ingliz millati vakillari xorijliklar nutqidagi grammatik xatolikni kechiradilar. Sababi mazkur xatolik so'zlovchining nutqi noto'g'ri talqin qilinishining aksi deb qabul qilinmaydi. Biroq intonatsiyadagi xatolik madaniyatlar o'rtasidagi muloqot jarayonining buzilishiga ta'sir etishi mumkin deb hisoblab, bu xatoni jiddiy qabul qilishlari mumkin. Nutqqa intonasjon libos kiydirilmas ekan ingliz millati vakili so'zlovchi xorijlik ekanligini osongina tushunib oladi.

“Xorijiy tilni o‘rganishdagi eng katta qiyinchilik bu aynan o‘sha til intonatsiyasini o‘rganishda namoyon bo‘ladi” – deb ta’kidlaydi tilshunos olim L.R.Zinder. Chindan ham intonasion interferensiya murakkab va jiddiy xarakterga ega hodisadir. Intonatsiyani notug‘ri qo‘llagan nutq egasining xorijlik ekanligini aniqlash til egasi uchun unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Shuningdek, intonatsiyadagi xatolik nutqning tushunish borasida qiyinchiliklarga olib kelishi bilan bir qatorda uni asl ma’nosini qanday ekanligini yoki uning semantik qirralarini ochishda ayrim xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. 1924 yildayoq tilshunos olim H.Palmer o‘zining “English Intonation with Systematic Exercises” nomli asarida quyidagilarni yozib qoldirgan: “Ingliz tiliga xos bo‘lmagan talaffuz” yoki “xorijiy aksent” deb qabul qilinadigan holatlar ko‘pincha xorijiy tildagi intonatsiya orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida so‘zlaydigan xorijliklar tilni benuqson qo‘llaydilar, biyron so‘zlaydilar go‘yoki tilda “suzadilar” va hattoki urg‘uni ham to‘g‘ri qo‘llaydilar. Biroq ularning intonatsiyasi shundayki, biz ularni xorijlik ekanliklarini darrov payqab olamiz va ko‘p hollarda ularning nima haqida gapirayotganlari biz uchun mavhum bo‘lib qolaveradi”.

Ingliz tili intonatsiyasi borasida juda ham ko‘plab va salmoqli ishlar olib borgan taniqli tilshunos olim V.Kuk yuqoridagi fikrni quyidagicha sharhlaydi: intonasion xatoliklar grammatik xatoliklar kabi tilga oid xatoliklardir; biroq inglizlar grammatik xatoni intonatsiyadagi xatoga qaraganda to‘g‘ri qabul qiladilar: ingliz millati vakili grammatik xatoga ko‘z yumishi mumkin, biroq intonasion xatoga hech kachon yon bosmaydi. Intonatsiyadagi xatolikni eshitgan ingliz uni tildagi xatolik deb emas balki, so‘zlovchining nima demoqchi ekanligiga (nutqiga) nisbatan notug‘ri munosabatda ekanligining aksi deb qabul qiladi.

Intonatsiya ham fonetikaning supersegment birliklaridan biri sifatida nutqdagi ijtimoiy madaniy ma’lumotni yetkazib beruvchi vosita hisoblanadi. Olimlar segment va supersegment vositalarning roli borasidagi turlicha izlanishlar olib borganlar va bu izlanishlarida ularga turlicha izoh berilgan. Ayrim tadqiqotchi olimlar segment vositalarga urg‘u bergen bo‘lsalar, boshqa bir olimlar esa supersegment vositalarning ijtimoiy madaniy farqlanishda ahamiyati katta deb hisoblagan. Aslida esa segment va

supersegment vositalarning o‘ziga yarasha o‘rni va ahamiyati bor deb hisoblash o‘rinli bo‘lar edi.

Intonatsiya faqatgina fikrni ifodalashdan tashqari nutqqa ma’no va emotsiyal-ekspressivlik beradi. Shuningdek intonatsiya tinglovchining hislariga ta’sir eta olish kuchiga ham ega desak xato bo‘lmaydi. Intonatsiya tufayli so‘zlovchi nutqi o‘ziga xos bo‘yoq bilan jilolangan turli-tuman nutq shakllariga ega bo‘ladi<sup>5</sup>. Tilshunos olim N.I.Jinkin ta’biri bilan aytganda “intonatsiya “ifoda indikatori” bo‘lib, shaxsning o‘zini tanituvchi va namoyon qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi<sup>6</sup>.

Har qanday tildagi interferensiya hodisasi uning intonatsiyasida yorqin namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘rganilayotgan tillarni qay darajada o‘zlashtirishga bog‘liq jarayon hisoblanadi. Interferensianing fonetik darajasi fonetik interferensiya deb ataladi. Keyingi yillarda ko‘plab tilshunos olimlar interferensianing turlariga bag‘ishlab anchayin salmoqli ishlar, izlanishlar olib bordi. Biroq lisoniy interferensianing intonatsiya darajasida o‘rganish o‘zining murakkabligi va istalgan tilning intonasion sistemasi rang-barangli sabab, mazkur mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlar boshqa turlarining tadqiq etilishiga qaraganda kamroq o‘rganilgan.

Taniqli rus tilshunos olimi G.M.Vishnevskaya, bilingv nutqidagi intonasion sistemalarning tabiiy yoki sun’iy til kontakti sharoitida o‘zaro ta’sir etishini intonasion interferensiya, deb ta’kidlagan. Til egasiga kommunikativ jihatdan ta’sir etishda intonatsianing alohida roli bor, deb izohlaydi yana bir tilshunos olim N.D.Klimov . Bilingv tomonidan ona tili yoki ikkinchi chet tili intonasion modellarining ona tili bo‘lmagan tildagi nutqqa beixtiyor qo‘llab yuborishi muloqot davomida maqsadning notug‘ri anglanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida til normalari va qoidalarning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bilingv tomonidan yo‘l qo‘yiladigan navbatdagi xatolik bu uning o‘zlashtirgan chet tili intonasion modellarini taxminan yoki yetarli darajada bilmay turib muloqot jarayonida qo‘llab yuborishidir. Mazkur holatda tinglovchi bo‘lgan til egasidan xatoliklar yashiriladi, sababi u faqat o‘z ona tili normalaridan kelib chiqib mazkur

intonasioon modelni o‘zicha talqin qilishga urinadi va so‘zlayotgan bilingvning nima demoqchi ekanligi unga mavhumligicha qolaveradi.

Ikki til egasi ya’ni bilingv nutqining til egasi tomonidan tushunish darjasidagi interferensiya tiplarining klassifikatsiyasiga asoslanadi: tushunishni qiyinlashtiradigan interferensiya ( bunda so‘zlovchining umuman olganda, nima demoqchi ekanligini tushunish qisman saqlanib turiladi); tushunib bo‘lmaydigan interferensiya (bunda so‘zlovchining nima demoqchi ekanligi unchalik ham tushunarli emas); tushunishga to‘sinqilik qiladigan interferensiya ( muloqotni tubdan izdan chiqarib, tushunmovchilik keltirib chiqaradi). Bu kabi interferensiya turlarini mos ravishda zaif, o‘rtacha va kuchli interferenisiya, deb ham ataydilar.

Xorijlik kishi nutqini tinglayotganda intonatsiya vositalari orqali nutqdagi uning nozik ma’nosini tinglovchi o‘tkazib yuborishi yoki anglashga ulgurmay qolishi mumkin. Ma’lumki ko‘p hollarda boshqa tildagi hazil-mutoyiba, ajablanishning turli ko‘rinishlari, g‘azab, achchiqlanish, nafratlanish, jirkanish intonatsiya bilan beriladi va bu holatlarni anglash tinglovchiga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shuningdek, xorijiy tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklardan biri aynan intonatsiyadir, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Shuningdek, xorijiy tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklardan biri aynan intonatsiyadir desak xato qilmagan bo‘lamiz. Kishilar xorijiy tilda biyron so‘zlashi, so‘zlarni benuqson talaffuz qilishi mumkin, biroq aynan intonatsiyaga kelganda esa xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Intonatsiyaga asoslanib kishi qay darajada muloyim, his-hajonga boy, muloqotga dahldorligini va b. bilish mumkin. Shuningdek intonatsiya nutqning ma’no doirasinini kengaytiribgina qolmasdan balki fikrning nozik taraflarini ochib berishiga ham xizmat qiladi. “Oddiygina “salom” so‘zini, - deb ta’kidlaydi I.Andronikov, kibr bilan, uyatib, befarqlik, muloyimlik, g‘amginlik, ta’sirsiz, do‘stona, uzuq-uzuq, iztehzoli qilib aytish mumkin”.

Tilshunoslikda intonatsiyaga bo‘lgan qiziqish uzoq yillarga borib taqalsada, mazkur sath borasidagi muammolar, yechimini kutayotgan masalalar va to‘ldirilishi lozim bo‘lgan kemtik joylar hali hanuz mavjuddir. Bir so‘z bilan aytganda esa

intonatsiya masalalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan emas.

**Adabiyotlar:**

1. Palmer, H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E Palmer. – Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p. Cook V. Active Intonation.-London: Longmans,, 1968. \*» 99 р. Мартинкенас А.А. Сравнительный анализ эффективности использования визуальных опор в процессе обучения иноязычной интонации (немецкий язык, языковой вуз): Автореф. дис. . канд. филол. наук. М., 1988. - 23с. Вишневская, Г. М. Интерференция и акцент: (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка) : дис. ... д-ра филол. наук : 10.02.19 / Г. М. Вишневская. – Санкт-Петербург, 1993. - 373 с.
2. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. М. : Высш. шк., 1979. – 312 с.
3. Palmer, H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E Palmer. – Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p.
4. Cook V. Active Intonation.-London: Longmans,, 1968. \*» 99 р.
5. Всеволодский-Гернгросс, В. Н. Теория русской речевой интонации / В. Всеволодский-Гернгросс. - Петербург : Государственное издательство, 1922. - 128 с. : ил., нот.

## **KOMPYUTERLASHTIRILGAN TA'LIMNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

***Baxtiyorova Munira Mansur qizi***

***Nukus Davlat Pedagogika Instituti***

***Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 3 – kurs talabasi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonini tashkil qilish, kompyuterlashtirilgan ta'lim sohasini rivojlantirish, dars turlari va ularning o'qish samaradorligini qay darajada oshirishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, dars, dars turlari,

Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasıdir. Juhon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruqli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, mакtabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual;
- 2) sinf-dars;
- 3) ma'ruza-seminar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchining

diqqatini rivojlantiradigan omillardan hisoblanadi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda o’quvchilarning faolligini yuzaga keltirishgina emas, balki o’quvchilarning darsda o’tiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Ta’lim jarayonida o’quvchilarning bilishga qiziqishlari g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, qiziqish o’quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir. Ma’lumki, psixologiyada o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi qiziqishining ikki turi aniqlanadi. Birinchisi, bevosita, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o’quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o’quvchilarda ta’limga faol munosabat namoyon bo’ladi. Psixologiyada qiziqish — bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Bolalarda bunday qiziqishni uyg’otish asosan dars turlariga ham bog’liq. Pedagogik adabiyotlarda darslarning turlari har xil asoslар bo'yicha ifodalanadi. Darslarni o’quvchi va o’qituvchilar faolyatining xususiyati bo'yicha turlarga ajratish amaliy maqsadga muvofiq emas, bunday ajratishni ta’lim metodlarini amalga oshirish usillari bo'yicha bajarish lozim. Dars turlari quydagicha:

1. a) dars ma’ruza
  - b) dars suhbat
  - v) kino dars
  - g) nazariy yoki amaliy mustaqil ( taddiqot tipidagi ) ishlar darsi
  - d) aralash dars ( bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi )
2. a) mustaqil ( og’zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi )
  - b) dars laborotorya ishi
  - v) amaliy ishlar darsi
  - g) dars ekskursiya
3. a) og’zaki ( umumiy, yakka tartibda, guruhiy ) so’rash
  - b) yozma ( yakka tartibda) so’rash
  - v) sinov
  - g) sinov amaliy ( laborotorya ishi)
  - d) yozma ish

e) aralash dars

Darsning bunday turlari o'quvchilarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytish kerakki hozirgi kunda axborot texnologiyalariga bo'lgan talab ortib bormoqda ayniqsa kopyuterlashgan ta'lim tizimiga chunki hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda bunday vositalarsiz ish yuritish qiyin. Shuning uchun maktablarda zamonaviy ta'lim tizmini rivojlantirish, bolalarning kopyuter savodxonligini oshirish va yangi bilimlarni berish zarur. Dars jarayonida ham dars turlarini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib darsni tashkil qilish kerak. Pedagog, o'qituvchilar hozirgi kunda psixolog ham bo'lishi va o'quvchilarning xarakter – xususiyatlaridan kelib chiqib ularga ta'lim berishi lozim. Chunki ertangi kunning kelajagi yoshlari, ularga hozir qanday ta'lim – tarbiya berilsa, jamiyatga foydasi tegadigan insonlar bo'lib yetishib chiqadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova  
“Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya” Toshkent-2019
2. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti “ Toshkent – 2017.
3. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, N.Voxidov, K.Matnazarova “ Pedagogika Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti) Toshkent – 2013.

**JAHON PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYALARI**

**Baxtiyorova Munira Mansur qizi**

*Nukus Davlat Pedagogika Instituti*

*Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 3 – kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda shaxs haqida umumiy tushuncha va jahon psixologiyasida shaxs nazaryalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik,

Shaxs u yoki bu xildagi hayot tarzini tanlash imkonyatiga ega bo'lgan ongli va faol insondir. Shaxs biologik tur bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida muayyan tarixiy davr va ma'lum mamlakatdagi ijtimoiy muhitning ham farzandi hisoblanadi. Shaxsning qaysi tarixiy davirda, qaysi ijtimoiy muhitda yashashiga qarab uning fe'l – atvorida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazaryalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rghanishda turlicha pozisiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashuvga egadirlar. Mazkur nazaryalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitiv, psichoanalistik, bixevoiristik kabilarni kiritish mumkin. Biogenetik nazariyaning negizida yetilish bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga (aniqlov-chilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi. Biogenetik yo'nalish namoyandalari olimlar e'tiborini taraqqiyotning psixik va jismoniy o'zaro bog'liqligini o'rghanishga qaratdilar. Bu psixofiziologiya uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Psixika taraqqiyotini faqat biologik qonunlar asosida tushunish muvaffaqiyatga erishmadi. Ular taraqqiyotning ijtimoiy omillarining rolini yo'qqa chiqarib, faqat biologik omillarning rolini bo'rttirmoqchi bo'ldilar. Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo'lgan nazariya sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalardan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart - sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi

darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi. Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflar tomonidan keltirilgan ta'riflar tahlillarining keltirib o'tamiz. A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti ham sub'ektidir. A.N.Leont'ev ushbu masalaga boshqacharoq yondashadi va unga shunday ta'rif beradi: shaxs faoliyat sub'ektidir. Xulosa qilib aytish mumkinki shaxs nazaryalari shaxs rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Har bir nazarya o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan shaxs rivojlanishiga va jamiyatda o'z o'rnini egallashiga sabab bo'ladi. Bu shaxs nazaryalari bo'yicha juda ko'p olimlar ish olib borgan va juda qimmatli bo'lgan ma'lumotlar qoldirgan. Genetik jihatdan chegaralangan tabiiy omillarga ijtimoiylik katta ta'sir ko'rsatishi natijasida odam hayotining davomiyligi ham uzayib boradi. Bilologik jihatdan mehnat qila olish imkonini beruvchi tana tuzilishiga ega bo'lgan odam shaxsga – ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi, voqelikni biluvchi hamda aktiv o'zgartiruvchi subyektga aylanib boradi. Shaxs o'zi avvalo o'zining qadr – qimmati va kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol qatnashganligi hamda ta'lim – tarbiya natijasida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo'lgan konkret tirik odamdir.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya” Toshkent-2019
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” Toshkent-2013.
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova “Umumiy psixologiya” Toshkent – 2009.

**OILAVIY HAYOTGA TAYYORLIK MUAMMO SIFATIDA**

---

*Baxtiyorova Munira Mansur qizi*

*Nukus Davlat pedagogika Instituti*

*Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 3 – kurs talabasi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada yigit qizlarni oilaga tayyorlash, er-xotinlik va oilaviy munosabatlarning barqarorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, nikoh, oilaviy munosabatlar, Amir Temur fikrlari.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri. Shunday ekan shunday oilani barpo etish uchun yoshlarimizni qanday tarbiyalashimiz kerak degan savol tug'iladi. Bizning o'zbek oilalarda shaxsni tarbiyalashda bevosita bobo va buvilar ishtirok etadi. Azaliy turkiy udimga binoan ota – onadan ko'ra bobo – buvilarning ta'siri kuchliroq bo'lган. Masalan Amir Temur shahzodalar tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug' bibilari – buvilar shug'ullanishini lozim topgan. Demak farzandlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda oila azolarining barchasi birdek ma'suldirlar. Ko'pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar, oila qurish arafasida bo'lar ekanlar aksaryat hollarda o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun o'z ota – onasi oilasini ideal qilib oladilar. Chunki ular shu oilada tarbiyalanar ekanlar, "Eslarini taniganlaridan buyon" ota – onasining nizolashib tortishganlarini, bir – birlariga hurmatsizlik qilganlarini eslay olmaydilar. Lekin shunday oila qurishni tasavur qilgan yoshlarimiz, oila qurbanlaridan so'ng o'zlar kutganidek turmush kechira olmasalar, nikohning dastlabki eng nozik, murakkab, qiyin, yangi ijtimoiy vaziyatlar, sharoitlar, bir – birlariga moslashish jarayonlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolib, oila qurishda "adashkanliklari" dan nolib qolishlari mumkin. Shuning uchun ham yoshlarni oilaviy hayotga

tayyorlashda oilaviy hayot, er – xotin munosabatlarini faqat bir yoqlama va faqat yaxshi tomondan ko’rsataverish ham maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar butun borligicha: baland – pasti-yu shirin – achchig’i, qorong’u kechalari – Yu yorug’ kunduzlari bilan ko’rsatgan maqlul. Shundagina yoshlarimizda oilaviy hayot haqida nisbatan adekvaturoq tasavvur shakillanishi mumkin. Islom ta’limoti, sharq mutafakkirlari merosida ham nikoh – oila munosabatlari, oila odobi, farzand tarbiyasi masalalariga alohida e’tibor berilgan. Oilali bo’lib yashash, bola – chaqa qilish sunnatdir. Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom bu haqda shunday deganlar: “Ey yigitlar! Qaysi biringiz turmush qurishga qodir bo’lib, imkon topsangiz, tezda uylaning, chunki uylanish inson ko’zini poklaguvchi chiroq, ya’ni u nomahramlarga qarab gunohga botishdan saqlaydi degan. Shu gaplarda ham qanchalik ma’no bor. Bu orqali sof muhabat asosiga qurilgan oila mustahkam bo’ladi va oilada faqat muhabbat emas balki o’zaro hurmat bo’lishi kerak shundagina oila tinch, baxtli bo’ladi. Yoshlarimizda eng avvalo shu xususiyatlarni tarbiyalashimiz darkor. Er-xotinlik va oilaviy munosabatlarning barqarorligi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga, ya’ni oilaviy hayotga ijobiy emotsiyonal munosabatni ifodalaydigan shaxsning ko’rsatmalarining butun boshli tizimiga bog‘liq. Bugun birga yashaydigan va rasmiy ravishda nikohni qayd etishdan qochadigan yoshlarning soni tobora oshib bormoqda. Bunday holat birga yashash munosabatlarining psixologik mohiyati, birga yashovchilarining yetuklik darajasi va ularning fuqarolik nikohi istiqboliga yo‘nalganlik darajasini aniqlashtirishga yordam beradigan bir qator savollarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, nikohga tayyorlik shunday yetuklikning mezonlaridan biri bo’lib, tadqiqotchi uchun qiziqarli mavzu bo’lib bormoqda. Yosh avlodni axloqiy tarbiyalashning eng muhim jihatni hozirgi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni tashkil yetishdir. Yoshlarda oila va nikohning ma’naviy-psixologik asoslari, oilaviy va oilaviy munosabatlarda xulq - atvorni tartibga solish haqidagi g‘oyalar tizimini shakllantirish dolzarb ehtiyojdir. Asosiy e’tiborni axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy fazilatlarni, odatlarni rivojlantirish, yoshlarning axloqiy ongi, xulq-atvori va his tuyg‘ularni birligini tarbiyalash, yoshlarning axloqiy saviyasini oshirishga qaratilmoqda. Tor ma’noda, demak, bo’lajak oila va nikoh rollarini samarali ijro etish

uchun yoshlar oilaviy hayot sohasida muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak. Oilaviy hayotga tayyorlashning muhim vazifasi yigit-qizlar o‘rtasida oila va nikoh munosabatlari sohasida adekvat munosabatni shakllantirishdan iborat. Bo‘lajak oila va nikoh rollarini samarali bajarish uchun yosh shaxs mustahkam, baxtli oila va oila vazifalarini (reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy va h.k.) mas’uliyatli bajarishga qaratilgan ijobiy munosabatlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.). Umuman olganda, insonning oilaga bo‘lgan ehtiyojini, uning zarurligi va muqaddasligiga ishonishini tasdiqlash kerak shuningdek, insonning oila qadrini, uning jamiyatdagi o‘rni va shaxs rivojlanishi uchun ahamiyatini anglash; oilaviy hayot idealini shakllantirish va sozlash; farzand ko‘rishga psixologik tayyorlik va ularni to‘g‘ri tarbiyalash istagini shakllantirishdan iborat. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki yoshlarni oilaviy hayotga tarbiyalashda ota – onaning ro‘li juda muhim sanaladi. Oiladagi psixologik iqlim va er – xotin o‘rtasidagi munosabatlar asosida bolada oilaviy munosabatlar haqida tushunchalar paydo bo‘lib boshlaydi. Oila qurish bu juda katta masulyatni va irodani talab qiladi. Hozirgi kunda yoshlarimiz oilaviy hayotning qiyinchiliklari, qaynona – qaynota, arning injiqliklarini ko‘tara olmasdan, ajrashish holatlarigacha bormoqda. Bunga sabab esa ularning hali to‘liq oilaviy munosabatlar o‘rnatishga tayyor emasliklari hisoblanadi. Ikki yosh o‘rtasida o‘zaro hurmat, mehir – muhabbat bo’lsa va asosiysi oilaning nimaligini, uning qanchalar muqaddasligini tushunsa, bu oila eng baxtli oilalardan biri bo‘ladi. Oila bu kichik jamiyat shu jamiyatni qanday barpo qilsak, kelajak ham shunday davom etadi. Hozirgi kunda yoshlarimizni oilaviy hayotga tarbiyalash bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Qizlarimizni farzand tarbiyasi, uy ishlari va eng asosiysi savodli qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki farzand dastlabki tarbiyani onasidan ya’ni u tug’ilmasidanoq onadan oladi. Shuning uchun hozirgi kunda qizlarni savodli qilish va bilimini yanada oshirish, o’zlarini turli sohalarda qo’llab ko‘rishi uchun imkonyatlar yaratilmoqda. Bu ham oilaviy munosabatlarga albatta ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Sh.A.Do'stmuhammedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova, G.Ziyavitdinova  
“ Umumiy psixologiya “ 2 – kitob ( Yosh davrlar va pedagogik psixologiya )  
Toshkent – 2020
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” Toshkent-2013.
3. R.Mavlonova, N.Rahmonqulova, N.Voxidov, K.Matnazarova “ Pedagogika ( Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti) Toshkent – 2013.
4. G’.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog’inov, F.A.Akromov, G.Solihova,  
G.Niyozmetova “Oila psixologiyasi” Toshkent-2008.

**OLIY TA'LIMNI TIZIMLI ISLOH QILISHNING USTUVOR  
YO'NALISHLARINI BELGILASH**

*Baxtiyorova Munira Mansur qizi*

*Nukus Davlat pedagogika Instituti*

*Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'naliishi 3 – kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limga yangi o'zgarishlar, ta'lim tizimini rivojlantirish va yetuk kodirlarni yetkazish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql - zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak deb ta'kidladilar. 2019.08.10 dagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga yangi qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish kerakligini takidladi. Hozirgi davrda mamlakatimizda, shu jumladan xalq maorifi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'qituvchilar, barcha pedagoglar oldiga o'quvchining bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishi; o'quvchilar mustaqil tafakkurini, ular aktivligini rivojlantirish; ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash;

ularning tafakkur, muloqot, o'qish, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Buning uchun esa oliv ta'lim tizimini yaxshilash, yangi dunyoviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash zarur. Dastlab oliv ta'lim tizimi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish lozim.

Oliv ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliv ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Olyi ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliv ta'lim. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliv ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliv ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliv ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi. Bu ta'lim tizimi yoshlarimizning bilim saviyasini oshirishi uchun juda katta imkonyat bermoqda. Olyi ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliv malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlami tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish

yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi. Hozirgi kunda ham shunday raqobatga bardoshli kadrlarni chiqarish uchun oliv ta’lim tizimida katta o’zgarishlar ro‘y bermoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki oliv ta’limga e’tiborning yaqqol dalili sifatida kvotalarning oshishi, yoshlarga yaratilayotgan imkonyatlar, kam taminlangan, nogronligi bo’lagan, yoshlar daftariga kirgan oila farzandlari uchun grandlarning tashkil qilinishi hisoblanadi. Yoshlarimizning bilimini oshirish uchun modil kredit tizimining tashkil qilinishi, magistratura va doktoranturaga kirish imtihonlari uchun sertifikatlarning tasis etilishi bejiz emas. Chunki hozirgi zamон talabi, yetishib chiqayotgan kadrlar chet tillarini bilishi va jahon mamlakatlari bilan tajriba almashina olishi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda chet tillarini o’rgatishga katta e’tibor berilmoqda va keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Sh.A.Do’stmuhammedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova, G.Ziyavitudinova “ Umumiy psixologiya “ 2 – kitob ( Yosh davrlar va pedagogik psixologiya ) Toshkent – 2020
2. Z.T.Nishonova, N.G’.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya” Toshkent-2019
3. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti “ Toshkent – 2017.
4. M.X.To’xtaxo’djayeva “ Pedagogika “(Pedagogika nazaryasi va tarixi ) 1 – qisim. Toshkent – 2010.

**MEDIA, JURNALISTIKA VA MEDIA JURNALISTIKA HAQIDA  
TUSHUNCHА**

*Xayriniso Jo'rayeva Shavkat qizi*

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti*

*"Xalqaro jurnalistika" yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada jurnalistikaning o'ziga xos bo'lgan turi, media jurnalistika predmeti va obyekti o'rganilib, uning barcha sabablari, obyektlari, farqi, natijasi va yechimi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Jurnalist, media,OAV tushunchasi, media jurnalistikasi, axborot, media mahsulot.

### **KIRISH**

**Jurnalist** - taqdim etilayotgan mahsulotning iste'molchiga bilvosita va bevosita yetkazib beruvchi shaxs hisoblanadi. Har qanday jurnalist hukumatning quroliga aylanib qolmasligi va doimo xalqqa xizmat qilishi muhimdir.

Jurnalistlar gazetalar, veb-saytlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalarida qiziqarli bo'limgan badiiy adabiyotlarni o'z jamoalari bilan baham ko'rish uchun ishlaydi. Ular hikoyalar uchun g'oyalar ishlab chiqaradi va ularni muharrirga taklif qiladi, so'ngra tafsilotlarni to'playdi va faktlarni tekshiradi.

Ular jiddiy siyosiy voqealar, jamiyatni qiziqtirgan hikoyalar yoki yengil mavzular haqida yozishlari mumkin. Jurnalistlar boshqa maqolalarni o'qish yoki o'zlarining asosiy manbalarini to'plash orqali tadqiqot o'tkazishlari mumkin. Jurnalistlar aniq ma'lumot oqimiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun jamiyatdagi turli manbalar va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatadilar. Ular o'z fikrlarini tartibga soladilar va o'zlarining g'oyalarini to'liq maqolaga aylantirish uchun jozibali tildan foydalanadilar. [1]

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Turli mavzularga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jurnalistlar ham muayyan hududda bo'ladigan voqeа-hodisalarni yoritib berishiga ko'ra turlarga bo'linadi. Sport jurnalistlari voqeа sodir bo'layotgan joydan reportaj tayyorlashlari va uni to'g'ri sharxlab berishlari muhimdir. Ommaviy axborot vositalari shunchalik kengki, ular yozishdan tortib to bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarigacha. Muayyan aloqa vositasining kontseptsiyasiga ko'ra, jo'natuvchi va qabul qiluvchining rollari almashinishi yoki o'zgarmasligi mumkin. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari kamida ikkita asosiy aloqa paradigmalariga javob berishadi:

- 1) Qabul qiluvchining oldida sub'ektlardan faqat bittasi yuboruvchi vazifasini bajaradigan bir tomonlama aloqa.
- 2) qabul qiluvchi yoki qabul qiluvchilar yuboruvchiga aylanadigan va aksincha, ikki tomonlama yoki ko'p yo'nalishli aloqa.[2]

### **Ammo, media jurnalistikasi deganda bugungi kunda nima tushuniladi?**

**Media-** turli xil axborot va chiqarilayotgan mahsulotning tomoshabinga qay tomonlama yetkazib berishidir. Media OAV ning ajratilmas tarkibiy qismidir.

Ommaviy axborot vositalari – bu ma'lum bir iste'molchiga axborot xabarini u yoki bu shaklda etkazish uchun xizmat qiluvchi texnologik vositalar va texnikalarning butun majmuasini o'z ichiga olgan keng tushunchadir.

Ommaviy axborot vositalari ko'p sonli bo'lib, ular orasida ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, kitoblar, televidenie, kabel tarmoqlari, radio, kinoteatrlar), individual ma'lumotlar va ma'lumotlar tashuvchi vositalar (xatlar, har qanday ommaviy axborot vositalaridagi audio va video yozuvlar, kompakt disklar), shuningdek, aloqa jamiyatni tizimlari kiradi. (telegraf, telefon, pochta, kompyuter tarmoqlari).

Shuningdek, “Ommaviy axborot vositalari” atamasi konteksga qarab quyidagilarni anglatishi mumkin:

Media-ma'lumotlar – qo'shimcha audio va vizual ma'lumotlarni o'z ichiga olgan har xil turdagи ma'lumotlar to'plami (matnli xabarlarga qo'shimcha ravishda): grafik, video, animatsiya (multimedia deb ataladigan); media fayl – musiqa tinglash,

grafikalar, videolar, media-san'at – asarlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya (yoki media) texnologiyalari, asosan, video, kompyuter va multimedia texnologiyalari, Internet yordamida yaratilgan va taqdim etiladigan san'at turi. Asarlarning alohida guruhlari ko'pincha "yangi media san'ati", "elektron san'at", "raqamli san'at" sifatida tavsiflanadi. [3]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

"Demak, media jurnalistika deganda axborotlarning uzatilish kanallariga qay darajada to'g'ri yuborilishiga qaralar ekan. “,- degan fikr bu noto'g'ri tushuncha beradi. Yuqorida jurnalist va medianing vazifalari o'zining o'rmini to'laqonli bajarishi mumkin, lekin media jurnalistikada esa olib borilayotgan ishlar odatdagি jurnalistlarning vazifalaridan keskin farq qiladi.

Media jurnalistikada boshqa jurnalistik yo'nalishlar asosida voqeа joyidan reportaj yoki intervyu degan tushunchalar bo'lmaydi. Media jurnalistikada ishlayotgan har bir kishi o'z kasbining barcha elementlarini iste'molchiga tez yetkazib berishi shart hisoblanadi. Media jurnalistikani chet elda SMM sohasi sifatida o'rganish va undan jurnalist bo'lмаган shaxslar ham Katya mablag' topishini keltirib o'tamiz. Bu kasbda shaxslar reklamalar orqali faol ijtimoiy sahifalardan daromad olishadi. Bugungi kunda bu tarmoqlardan voyage yetmagan yoshlarning ko'p foydalanayotganini kuzatamiz.

Chiqarilayotgan reklama tizerlaridagi salbiy qarashlar yoshlarning tushunish salohiyatini pasaytirishi mumkin. Bunday holatda chiqarilayotgan mahsulotning obyektiv yomon ta'siridan iste'molchilarining ko'p qismi ma'naviy tomondan qoloq shaxs bo'lib kamol topishi amri mahol.

Dunyoda media-ta'limini ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar UNESKO tashkilotining rezolyutsiya hamda tavsiyalarida media-ta'lim muhumligi alohida ta'kidlanib, media-ta'lim rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan (mediaeducation barcha turlari elektron, bosma, grafik, media va boshqalar) hamda turli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi va insonlarni quyidagi faoliyatlarga yo'naltiradi.

1. Media-matnlarni tahlil qilish tanqidiy anglash va yaratish.

2. Media-mahsulotlarni (matn, video-audio) manbalarini toppish va ularning quyidagi: • siyosiy; • iqtisodiy; • madaniy; • iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash va ularni asl ma'nosini o'rGANISH.
3. Media-mahsulotlarini tushunish.
4. Shaxsiy media-mahsulotlarini yaratish tarqatish va ularga qiziqadigan audito-riyaga ega bo'lish.
5. O'rGANISH hamda yaratgan media mahsulotlarni hayot tarzini aniqlash. Media-ta'lim — bu butun hayot uchun konsep-siyasi deyiladi. [4]

Agar biron bir narsa bo'lsa, ijtimoiy media ommaviy axborot almashinuviga nisbatan ancha tezroq, ko'proq samimiy almashinish uchun harakat qilish kerak, agar u qo'lida o'chirilmagan bo'lsa, u erda qolgan yuzlab yoki minglab izdoshlarga qandaydir narsalarni portlatish kerak emas. Instagram, Snapchat-ga o'xshash hikoyalar xususiyati bilan efemerlikontentni almashish bo'yicha harakatni o'tkazib yubordi, shuning uchun ko'pgina platformalar tez orada ta'qib qilinadi. [5]

### **XULOSA**

Media jurnalistikaga berilayotgan chet ellik va o'zbek manbalarida axborotni to'g'ri va xolis OAV kanallarida uzatish tushuniladi. Biroq, media jurnalistika va SMM nomi va vazifalari bir biri bilan keskin farq qiladi.

Shuni aytish muhimki, gazeta, TV yoki radioda chiqarilayotgan axborot SMM axborotidan mutlaqo boshqa tushunchalardir. Bu jurnalistika va media jurnalistika o'zaro farqlanadi degani emas va ularning ham bog'lovchi belgilari bor. Albatta, ularning farqlari bog'lovchi nuqtasidagi. Ya'ni ularning hammasi ham yoritilish kanallari internet orqali uzatiadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://www.journalismjobs.com> “ Jurnalistika darajasi bilan qilishingiz mumkin bo'lgan 5 ta muqobil ish. “ Olindi: 23.08.2022
2. <https://uz.warbletoncouncil.org> “ Medianing ma'nosisi”
3. [www.indeed.com](http://www.indeed.com) “ Ijtimoiy media mutaxassis, AWS Employer Brand. “ Olindi: 23.08.2022
4. [www.uz.m.wikipedia.org](http://www.uz.m.wikipedia.org) “ Sardor CR7 “ Olindi: 23.08.2022
5. [www.eyewated.com](http://www.eyewated.com) “ Ijtimoiy media nima? “

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKA  
O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

***Hamidova Feruza G‘iyosovna***

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2- umumta’lim maktabi*

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

*Tel: 93 612 63 03*

**Annotatsiya:** Maqolada ijod, ijodkorlik, bugungi jamiyatda kichik mакtab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbliги, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning psixologik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchi faoliyat, psixologik xususiyat, psixologik imkoniyat.

**PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING CREATIVITY TO JUNIOR  
SCHOOLCHILDREN**

**Abstract:** The article reveals the importance of creativity, creative abilities, the importance of developing children's creative activity in modern society from an early age, the psychological potential and importance of teaching creativity to younger schoolchildren, the effectiveness of organizing students' creative activity based on modern educational approaches.

**Keywords:** creativity, creative activity, primary education, learning process, teacher, student activity, psychological feature, psychological opportunity.

Bugungi jamiyatda kichik mакtab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish ta’lim tizimining dolzarb vazifasidir. Bizning vaqt - o‘zgarishlar davri. Endi bizga nostandard qarorlar qabul qilishga qodir, ijodiy fikrlashga qodir insonlar kerak. Afsuski, zamonaviy mакtab hali ham bilimlarni o‘zlashtirishga ijodiy bo‘lmagan

yondashuvni saqlab qolmoqda. Xuddi shu harakatlarning monoton, stereotipli takrorlanishi o'rganishga bo'lgan qiziqishni o'ldiradi, bolalar kashfiyot quvonchidan mahrum bo'ladi. Zamonaviy maktab ta'limi asosan o'quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'limga bunday yondashuv shaxsning ijodiy tomonining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarining ijodiy faoliyatni rivojlantirish muammosi har tomonlama dolzarb bo'lib qolmoqda. Ijod - bu ongning oliv darajasi, faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, u insonga hosdir. Ijod insonning barcha psixik jarayonlarni, barcha bilim, malaka, barcha hayotiy tajriba, ahloqiy, jismoniy kuchini mobilizatsiyasi natijasida original va tarixiy-ijtimoiy, betakror sifat yangiliklari bo'lib tug'iluvchi mo'jizadir. Ta'limda ijodning natijasi yangi g'oyalar va rivojlanishga xizmat qiluvchi innovatsion tadqiqotlar hisoblanadi. - ijodkorlik - bu o'ziga xos qiymatga ega bo'lgan g'oyalarni yaratish jarayonidir. Bu bir kechada sodir bo'lgan voqeа emas, balki jarayon. Asl g'oyalar kamdan-kam hollarda tasodifan yuzaga keladi (garchi ular shunday bo'lsa ham). Qoidaga ko'ra, murakkab muammoni hal qilishdan oldin siz ko'p vaqt va kuch sarflashingiz kerak. Keyin bu qarorni amalga oshirish kerak va yakuniy natija asl g'oyadan juda farq qilishi mumkin. - ijodiy fikrlash asl fikrlashdir. Butun dunyo uchun yangi narsalarni o'ylab topish shart emas, fikr o'zingiz uchun va, ehtimol, sizning davrangiz uchun o'ziga xos bo'lishi kerak. Ba'zida odamlarning atrofdagi dunyoga bo'lgan qarashlarini butunlay o'zgartiradigan kashfiyotlar sodir bo'ladi, ammo bu ijodkorlik uchun zaruriy shart emas. - har qanday ijodiy jarayonda "ideal"ga erishish uchun o'z ishimizga baho berib, tanqid qilishimiz kerak. Siz she'r yozyapsizmi, nutq so'zlayapsizmi yoki rejallashtiryapsizmi, o'z ishingizga qarab, "bu men o'ylaganimdan biroz boshqacha" yoki "Men yaxshi ish qilganimga ishonchim komil emas" kabi his qilish tabiiy. u." Biz doimo biror narsani baholaymiz, o'zgartiramiz, chunki ijodkorlik boshlanishi va oxiri bo'lgan o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jarayon emas. Ko'pincha hamma narsa aqliy hujum, nazariyalar va farazlar bilan boshlanadi, keyin esa tinimsiz mehnat, hamma narsani to'g'ri qilishga qayta-qayta urinish. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini faollashtirish jarayonini o'rganish uchun asos sifatida biz G.S.ning asarlariga murojaat qildik. Altshuller, X.Aristova, D.B.Epiphanу,

G.Weintswaig, L.S.Vygotskiy, G.M.Komskiy, E.V.Krilova, V.A.Molyako, miloddan avvalgi Muxina, A.N.Luk, R.A.Nizomov, V.V.Belich, G.I.Shchukina, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojets va boshqalar. Qadriyat yo'nalishlari hayot davomida shakllanadi, lekin axloqiy va qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirish uchun eng muhimi 6-12 yoshda bo'lib, bu yoshda atrofdagi dunyoni va o'zini bilishning intellektual mexanizmlari shakllanadi. Maktabga qabul qilish bilan bolalar rivojlanishida burilish yuz beradi. Butun hayot tarzi va qadriyatlari boshqacha bo'ladi. Kichik maktab o'quvchisida yangi intilishlar imkoniyatini va voqelikka munosabatning zarur darajasini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarning jadal shakllanishi mavjud. Kichik maktab yoshi - bilimlarni o'zlashtirish, to'plash davri, mukammal assimilyatsiya davri. Ushbu muhim hayotiy funktsiyani muvaffaqiyatli bajarishga ushbu yoshdagи bolalarning o'ziga xos qobiliyatları to'sqinlik qiladi: hokimiyatga ishonchli bo'ysunish, sezgirlikni oshirish, ta'sirchanlik, ular duch keladigan ko'p narsalarga sodda o'ynoqi munosabat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'rganilayotgan o'quv materialiga va o'z o'quv faoliyati jarayoniga shaxsiy va semantik munosabatini tahlil qilish va baholash imkonini beruvchi ko'rsatkich бўлиб, ular quyidagilardir: ➤ umuman mavzuga bevosita qiziqish; ➤ o'rganilayotgan fanning ijtimoiy ahamiyatiga o'quvchining bahosi; ➤ kognitiv faoliyat tajribasidan foydalanish va ijobiy o'zgartirish zarurati: o'quv ishlari usullari, to'plangan bilimlar; ➤ maktab o'quvchilarini tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan (intellektual, axborot, tadqiqot va boshqalar) o'quv ishining usullarini shakllantirish, unda o'quv jarayonida o'zlashtirilgan material bilan ishlash usullari va ўқувчining o'z tajribasini to'plash natijalari taqdim etiladi; Maktab o'quvchilarining meta-bilimga ega bo'lish mezoni quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi: ➤ meta-bilimni o'zlashtirish zarurati (bilim haqidagi bilim); ➤ meta-bilimning mavjudligi - o'quv materialini o'zlashtirish texnikasi va vositalari haqidagi bilimlar (aqliy faoliyat texnikasining mohiyati haqida bilim); ➤ har qanday turdag'i matnlarning mazmuni va tuzilishini, o'quv topshiriqlarini tahlil qilish qobiliyati; ➤ ta'riflar, muammolar va teoremalarda asosiy narsani ajratib ko'rsatish qobiliyati. ➤ kognitiv ob'ektlarni taqqoslash, tasniflash qobiliyati. Keyingi ko'rsatkich o'quvchining ilmiy

bilim mantig`ini o`zlashtirish mezoni hisoblanadi. Ushbu mezon doirasida talabalarning fan bo'yicha bilim sifati hisobga olinadi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, "ta'lim sifati" ni quyidagicha belgilash mumkin. O'qitish sifati - bu diagnostik maqsadlarga erishish mezoni sifatida maqsadlar va o'quv natijalarining nisbati bo'lib, u o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri natijasini tavsiflovchi ta'lim ko'rsatkichlarining yaxlit to'plami bilan tavsiflanadi. ikkinchisi tomonidan taqdim etilgan o'quv materiali. Bugungi kunda maktab ichidagi boshqaruvdagi nazorat o'z o'rnini diagnostikaga bo'shatib bormoqda. An'anaviy nazorat usullarini qayta ko'rib chiqishga nima sabab bo'ldi? Bu ta'limtarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning kuchayishi, o'quvchiga faol, ongli, teng huquqli ishtirokchi sifatida munosabatda bo'lish, bolalarning imkoniyatlari va qobiliyatiga jiddiy e'tibor qaratish bilan bog'liq. Ijodkorlikni baholab bo'lmaydi, degan fikr bor. Biroq, ta'rifga qaytadigan bo'lsak, ijodkorlikning asosiy tushunchalari o'ziga xoslik va qiymatdir. Har qanday sohada o'ziga xoslik mezonlarini belgilash mumkin, shuningdek, qanday g'oyalarni qimmatli deb hisoblash, qanday g'oyalarning kreativ va noyob ekanligini tahlil qilish mumkin. Buning uchun o'qituvchining ta'lim - tarbiya jarayoniga akmeologik yondashuvi o'quvchilardagi kreativlikning rivojlanishiga yordam beradi. Kreativ shaxsni tayyorlash - ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni; Ijod - ijtimoiy sub'ektning yangiliqi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari: 1) bilishga oid (gnostik) malakalar; 2) loyihalash malakalari; 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar; 4) tadqiqotchilik malakalari; 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalar; 6) tashkilotchilik malakalari; 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar; 8) texnik-texnologik malakalar Mehnat ijodning ichida boshqa faoliyatlar qatori (ancha yashirin, «ichki» sezgi, hotira, tafakkur va boshq.) faoliyat bo'lsada, unda ijodning natijalari yaqqol ko'rindi. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida o'quvchilarini ijodkorlikka o'rgatishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo'lib, улар ҳар бир болада ўзгача намоён бўлади. Psixologiyada shaxsiyatning

xususiyatlari, o'zlarini muntazam ravishda namoyon etadigan asosiy xususiyatlarning barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, har bir kishi tasodifiy kerakli ma'lumotlarni unutishi mumkin, ammo umuman olganda hammasi unutilmaydi. Yagona holatlar belgilar xususiyatining mavjudligini ko'rsatmaydi. Qarama-qarshilikka uchragan shaxslarning xarakteristikalari odad va bezovtalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin, lekin bu boshqalarga g'azablanishga qodir bo'lgan har bir kishi ziddiyatli shaxs bo'lishini anglatmaydi. Shuni aytib o'tish joizki, inson hayot tajribasini yig'ib oladigan barcha fazilatlar oladi. Doimiy ravishda emas, balki umr bo'yi o'zgarishi mumkin. Qobiliyatlar, qiziqishlar va xarakterlar - bularning barchasi hayot tarzida o'zgarishi mumkin. Shaxs ekan, rivojlanadi va o'zgaradi. Shaxsiyatning hech qaysi belgisi tug'ma bo'lishi mumkin emas, deb ishoniladi - ularning barchasi hayot davomida qo'lga kiritilgan. Tug'ilganda, insonga his-tuyg'ular organlari, asab tizimi va miya ishlarini o'z ichiga olgan fiziologik xususiyatlar beriladi va ularning xususiyatlari xarakterning rivojlanishi hisoblanadi. Masalan, o'quv jarayonida o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati va akmeologik yondashuvi orqali topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilardagi yashirinib turgan kreativlikka yon bosuvchi psixologik holatlar yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa, hissiyot - ijod kuchlari orasida alohida o'rinni egallaydi, bu reproduktiv kuchi deb aytildi, qaysiki uning yordami bilan inson tashqi olam bilan aloqada bo'ladi va o'zining aql-idroki bilan aks ettiradi. Hissiyot idrok, sezgi, hotira asosida, shuningdek tafakkur va boshqalar bilan insonga hayotdan olgan taassurotlar zapasiga ega bo'lishni taqozo etadiva bu sohada turli faoliyatlarni amalga oshiradi, jumladan, mehnatning eng oliy darajasi hisoblangan ijod bilan ham. Shunday qilib, mehnatning oliy shakli ijoddir. Har bir inson dunyoni idrok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his etib boradi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib hotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi. Bular asar yaratishda juda ham zarur, qaysiki, hotirada faqat o'z mazmunida borliqqa estetik, hissiy munosabat aks etib turuvchi voqealar aks etadi. Xotira - xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni - odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan

bog‘lamasdan hotiraning aralashuviziz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idroq etib bo‘lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o‘tolmay qoladi, xususan u o‘sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o‘tgan, ko‘rganlarini, anglaganlarini va taasurot materiallarini taxliliga ko‘ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo‘ladi. O‘tmish tajriba faqat hotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin. Iroda - ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsada, lekin mehnatning samarasini irodaviy xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga bog‘liq. Irodasizlik ma’naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so‘ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va xatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi xaqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o‘zida shaxsning ongli ravishda o‘z xarakatlarini boshqaradigan psixik jarayon bo‘lib, maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘lidagi ko‘nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo‘ladi. Iroda maqsadga yetish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga hosdir. Iroda oddiy va murakkab xarakatlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy xarakatlar avvalo, anglash va masalani qo‘yish, masalani qo‘yish va rejalshtirish, rejalshtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi. Iroda ma’lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

➤ harakatchanlik ➤ mustaqillik ➤ qat’iyatlilik, ➤ sabr-toqatlilik ➤ o‘z-o‘zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, irodaviy imkoniyatlarni so‘zsiz, quyidagi psixik jarayonlar - hayol, sezgi, hotira, tasavvur kabilar bilan bog‘laydi. Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natjalarga erishishi va yana o‘quvchining yetuk shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi. Tafakkur - ijodiy faoliyatning mukammallashtiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o‘ynaydi. Intuitsiya - sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo‘lib, inson ruhiy faoliyatida - ya’ni ijodiy mexnatda,

xususan badiiy ijodda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga so‘zsiz intuitsiya hotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo‘ladi. Intuitsiya obyektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo‘lsada, uni rivojlantirish yo‘llari ham bordir. Mana shu zaruriy jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoèn qilishlari uchun imkoniyat yaratib bera olsa, o‘quvchilar birin - ketin muvaffaqiyatga erishib boradilar. Agar ta’lim berishda noto‘g‘ri metod yoki yo‘nalish tanlansa, ya’ni o‘quvchi tanqidga uchrasa bunday vaziyatda unda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish èki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. O‘quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Дилова Н.Г. (2012). Возможности организации учебного процесса на основе педагогического сотрудничества. Молодой ученый. Т. 46, № 11, С. 409- 411.
2. Дилова Н.Г. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. Замонавий таълим. №3, 63-68 б.
3. Дилова Н.Г. (2013). Требования к учителю по организации сотрудничества учащихся начальных классов в учебном процессе. Актуальные проблемы современной науки. № 4 (72). С. 55-57.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI  
OSHIRISHDA O‘QITUVCHINING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI  
TUTGAN O‘RNI**

*Hamidova Feruza G‘iyosovna*

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2- umumta’lim maktabi*

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

*Tel: 93 612 63 03*

**Annotatsiya:** maqlada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ritorika, nutq, fikr, notiq nutqi, mustaqil fikrlaydigan

Ritorika yunoncha “ notiqlik san’ati” keng ma’noda esa badiiy nasr haqidagi fan bo‘lib, miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda yuzaga kelgan. Miloddan. avvalgi III-II asrlarda tizimli fan sifatida shakllangan. U Sharqda voizlik san’ati sifatida nom qozongan. Bizga ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongiga va qalbiga berilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni chuqur singdirish, jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, har tomonlama barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatlari, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatan taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, o‘ziga va o‘z imkoniyatiga ishongan yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish bugungi kun va pedagogikaning asosiy maqsad va vazifalaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim doirasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ya’ni bolada ijobjiy munosabatni shakllantirish, o‘qish savodxonligini tarkib toptirish, ularda mantiqiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish, ularni og‘zaki va yozma muloqot me’yorlarini egallashga hamda o‘z-o‘zini boshqarish va tuta bilishga o‘rgatish uchun boshlang‘ich sinflarda sifatli ta’limiy faoliyatni tashkil etishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bilimi sayoz bo‘lsa, yuqori sinflarda ham fanlarni o‘zlashtirishi talab darajasida bo‘lmasligi aniq, ya’ni ta’limda poydevorni

mustahkam qo‘ymay turib, uning pirovard natijasiga erishib bo‘lmaydi. Shunday ekan, sohada hal qiluvchi o‘rin tutadigan malakali kadrlar ta’minoti, ularning kasbiy salohiyatini oshirish borasida alohida e’tiborga molik talablar joriy etilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan malaka talablari, umuman, shu kabi me’yorlar zamon talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilmoqda. Boshlang‘ich sinflar uchun belgilangan bilimlar massasini o‘qituvchi o‘quvchiga to‘liq va to‘g‘ri yetkazib berishi juda muhimdir. Zero, bu o‘qituvchining notiqlik san’ati, ya’ni ritorika salohiyatiga bog‘liqdir. Voizlik san’ati pedagogning o‘quvchiga ta’sir etish va yetkazib berishining asosiy kalitidir. Binobarin, pedagogda bilim va fikrlash san’ati bor, biroq notiqlik va e’tibor tortish san’ati bo‘lmasa, dars ilmiy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsada, o‘z samarasini bermaydi. Bunda ritorikaning 5 qismini ko‘rib chiqish va pedagog bularning bari yuzasidan o‘zida kasbiy va metodik mahoratni shakllantirish bo‘yicha ishlashi lozim. Materialni topish. Topilgan va berilmoqchi bo‘lgan bilimlar to‘plami qabul qiluvchi, ya’ni o‘quvchinig yosh va individual xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘quvchi yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos bo‘lмаган yangi tushunchalar ular ongida singib, o‘z aksini topmaydi. Tushunish oson bo‘lishini ta’minalash va ma’lumotlarni joylashtirish. Maktabgacha ta’lim va kichik mактаб yoshidagilar ta’limida o‘zlashtira olmaslik sabablari sifatida e’tirof etiluvchi bu jihat o‘quvchi bilish faoliyatiga kuchli va tartibsiz bosimni yuzaga keltiradi. Qadimgi yunon notiqlarining fikricha, yaxshi nutqning kuchi fikrlarning o‘zaro bog‘lanishi bilan belgilanadi. Agartinglovchilar bir fikrni qabul qilsa, u bilan bog‘liq qolgan fikrlarni ham tan oladi. Demak, tayyorlangan materiallar tushunishga oson bo‘lishini ta’minalash uchun to‘g‘ri izchillik asosida prinsipi asosida berilishi lozim. Bu orqali izchil muntazam o‘qilayotgan fanlar orqali o‘quvchilarda bilish qobiliyati, o‘zlashtirish darajasi va ularning ijodiy kuchlarini rivojlantirib borishni nazarda tutadi. So‘z bilan ifodalash. Notiqning nutqi bu uning asoosiy quroolidir. Olimlar uni dudama hanjariga qiyos etishadi. Ya’ni u ikki tomoni ham kesuvchi quroldir. Bir tomonida adolat tursa, ikkinchi tomonida adovat. Darhaqiqat, bugungi zamon rivoji kishidan o‘z fikrini to‘g‘ri va to‘laqonli ta’sirli qilib bayon etishini talab etadi. Nutqimizning ta’siri ikki xil omilga bog‘liqdir: -nutq sifati; -texnikasi. O‘qituvchi yetkazayotgan fikrlari, yoinki, nutqining

to‘g‘ri, aniq, mantiqiy, sof, ta’sirli, jo‘yali, boyligi, ifodaviyligi, soda va qisqaligini talab etuvchi omillar uning sifatini tashkil etadi. Nutq paytida o‘qituvchining o‘zini tutishi, eng avvalo, auditoriyaga kirib kelish jarayoni, xarakteri, so‘zlash manerasi(ya’ni so‘zlovchining ovoz tembri, toni va tovush to‘lqinining tarqalish masofasi), fikr yuritish usuli, tana harakatlari, nutq jarayonida auditoriyani ko‘z orqali nazoratga olish va shu orqali so‘zlasha olishi uning texnikasini tashkil etadi. O‘qituvchi darsni shunday boshlab, davom etib, yakunlanishi kerakki, tinglovchi kim bo‘lishidan qat’iy nazar (u o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va h.k) so‘zlovchini yoqtirib qolishi, hech bo‘lmaganda, haftada bir soat dars bo‘lsa, shu vaqtda sizning leksiyangizdan to‘lqinlanib, o‘zaro muhokama qilishi kerak. O‘qituvchi ovoz tonining o‘zgarishiga alohida e’tiborli bo‘lmog‘i lozim. Sinf xonasiga o‘quvchilar shovqinini bartaraf etish va diqqatlarini o‘ziga qaratib olish uchun har kuni turli xil uslublardan foydalanishi va bu foydalanayotgan uslub dars xarakteriga mos bo‘lishi ta’lim sifatining oshishini ta’minlaydi. Misol uchun, o‘qish darsiga ustoz “ bir bor ekan, bir yo‘q ekan. ....-maktabning ....-sinfidagi zukko o‘quvchilar bugun ....(mavzu nomiga mos keltirish) olamiga qilishar ekan. Bu sayohatga ular 3 guruhga bo‘linib, birinchi (ikkinchi, ....) sayyoohlар jamoasiga (har bir qator uchun to‘polonchi o‘quvchilar aytilishi kerak) sardor etib tayinlanibdi va h.k”. (Shu o‘rinda ularning vazifalari o‘qituvchi tomonidan aytib ketiladi.) sayohat har bir jamoadagi sayyoohlар(o‘quvchilar) to‘liq yo to‘liq emasligini aniqlash olish orqali davom ettiriladi. Darsning boshlanishini o‘qituvchi qanday boshlassa, dars so‘nggiga qadar shu atmosfera auditoriyani tark etmasligini unutmaslik kerak. Yodlash. Ko‘plab o‘qituvchilarda kuzatiladigan asosiy kamchilik bu ularning o‘z nutqlarini yoddan bayon etishlaridir. Dars strukturasini tuzgan vaqt pedagog ketma-ketlikka rioya qilgan holda yuqorida sanalgan jihatlarni inobatga olib, o‘z nutqini yodlamagan tarzda bayon etishi lozim. Bunda, albatta, o‘qituvchidan yillik va kundalik tayyorgarligi, so‘z boyligi, mahorati va ijodkorligi talab etiladi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘zida quyidagilarni jamlagan bo‘lishi tavsiya etiladi: - pedagogning o‘zi juda dadil va fikriga amin bo‘lishi kerak; - nutq to‘la isbotlanishi lozim; - nutqdagi hamma narsa muhim hisoblanishi kerak; - nutq materialini sidqidildan to‘plash va idrok etgan bo‘lishi lozim; - so‘zlovchi va tinglovchi

o‘rtasida erkin muloqot muhitini yaratishi kerak. Talaffuz. So‘zlovchining talaffuzi to‘g‘ri, aniq va yoqimli bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, yaxshi nutq yutuq manbai. Talaffuz tonining o‘zgarmay, bir me’yorda davom etishi tinglayotgan o‘quvchilarni zeriktiradi va diqqatini tarqoqs holatga olib keladi. Ovoz tonining 3 holati: yuqori, o‘rta, pastki holatidan birdek o‘rinli foydalanish zarur. Sharq Uyg‘onish davrining yetuk namoyondalaridan biri Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida mudarrislarga faoliyatida muvaffaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: Bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish; Berilayotgan bilimning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tibor qaratish; O‘quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish; Bilimlarni o‘quvchining yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda olib borish; Har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish; Bolalarni fanga qiziqtira olish. Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda ta’lim va muloqotning kaliti nutq bilan, tarbiya va muomalaning kaliti xulq bilan ekanligini yodda tutish zarur.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Y.Rasulova, O.Nurmatova “Pedagogika” o‘quv qo‘llanma / –T.Adabiyot uchqunlari
2. “KUGlarda ta’lim-tarbiya ishlari nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma/ N.Nasritdinova, D.Maqsdanova—T.
3. “boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy konferensiyalar maqolalar to‘plami—T.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARI  
ORQALI VATANGA MUHABBAT HISLARINI OSHIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

*Hamidova Feruza G'iyofovna*

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2- umumta'lim maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Tel: 93 612 63 03*

**Annotasiya:** Maqolada tarbiya fanining maqsadi, tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi uchun adabiyotlar ro'yxati, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik hislarini oshirishda tarbiya fanida qo'llaniladigan metodlar to'g'risida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, vatanparvarlik, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya fani, darslik, tarbiya fani maqsadi, interfaol metodlar.

**Kirish:** Atoqli fransuz adibi Viktor Hyugoning: "Maktab ochish turmani yopishdir" degan hikmatli iborasida purma'no so'z borligi barchamizga ma'lum. Ya'ni maktab ochilgan joyda ta'lim bo'ladi. Tarbiya bor joyda ma'naviyati yuksak o'quvchilar bo'ladi. Demak o'z-o'zidan qamoqxonalarga extiyoj qolmaydi. Ta'lim va tarbiya – birining o'rmini biri to'ldiruvchi tushunchalardir. Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrofmuhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni kamol topishida ota-onasiga, tarbiyachi, o'qituvchi muhum ahamiyat kasb etadi. Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir. Inson hayotining aynan yoshlik, bolalik davrida o'rganilgan har qanday bilim, ko'nikmalar u

ulg`aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo`lib xizmat qiladi. Bolalik – kishi umrining ko`klam davri, unda hayotning bo`lg`usi yillari uchun urug` ekiladi. Ulug` allomalarimiz tarbiyaga e'tibor qaratgani, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan Abdulla Avloniy. Ta'lim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yurtning jadal rivojlanishi, xalqining farovon yashashi davlatdagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularga yaratilayotgan sharoitlarga chambarchas bog`liq. **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr “Uzliksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirdari haqida”gi 1059-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 –yil 6-iyul “Umumiy o`rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to`g`risida” 422-sonli qarori qabul qilindi. “Tarbiya” darsligi “Odobnama”, “Vatan tuyg`usi”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma‘naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirdi. “Tarbiya” fani 1 - 9-sinflarda 2020/2021 o`quv yilidan, 10 — 11-sinflarda esa — 2021/2022 o`quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o`quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko`nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo`yish va unga intilish ko`nikmasini shakllantirib boradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tarbiya darsi 1-sinfda o`quvchi dastlab orzularini aniqlay olishni o`rgatilsa, 2-sinfda o`z oldiga maqsad qo`ya olish ko`nikmasi shakllantiriladi. 3-sinfda o`quvchida dasturni o`zlashtirish natijasida maqsad va orzuumidlarini amalga oshirishga harakat qilish ko`nikmasi paydo bo`ladi. 4-sinfda atrofda bo`layotgan voqeа-hodisalarga sog`lom munosabat bildira oladi, shaxs sifatida o`zini anglaydi va o`z xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab o`z ona shahri, milliy an'analarining o`ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr, saxiy munosabat, birovning qayg`usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimi oilada axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi muhum ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan

eng dolzarb muammolarni hal etishning dolzarbligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda vatanparvarlik tuyg'usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga - onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga munosabatidan boshlanadi. O'z uyiga muhabbat va mehrni o'zining asl ma'nosida rivojlanish vatanparvarlikning birinchi boshlang'ich bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich 1-2-sinflar o'quvchilari uchun Vatan tushunchasini tushuntirish bir muncha onson bo'lishi uchun uni o'ziga bo'lgan munosabatni, birinchi do'stlari, u boradigan bolalar bog'chasi, uyi joylashgan ko'cha - bularning barchasi bolaning o'z uyi, uning uyi haqidagi g'oyalarini tushuntirish va sindirishdan boshlash maqsadga muvofiq. Tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi o'z ustida ishlashi uchun ma'naviy adabiyotlar bilan ishslash metodi muhum omil. Masalan, Imom Buhoriy "Sahih Hadis", Alisher Navoiyning "Hikmatlari", Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Hadis va hayot", Obiddin Mahmudovning "Farzandnoma", Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish muhum. Tarbiya fani keng qamrovli fan bo'lib, fanni o'qitish metodlari: og'zaki, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko'rgazmali, monolog, dialog, keys,namoyish metodi, amaliy ishlar metodi, interfaol metodlar va boshqalar. 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan davrda o'quvchilarga ta'lim berishning eng maqbul shakli - bu o'yin. Boshlang'ich sinf yoshdagi o'quvchilarning xulq-atvorning ijtimoiy shakli oddiy taqlid qilishga qaratilgan. O'quvchilarga turli ta'limiy o'yinlar orqali vatanga muhabbat, kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o'qitiladi, qadriyatlar tushuntiriladi. 1-sinfda ko'pincha og'zaki, 2-3-4 sinflarda esa yozma ravishda metodlar qo'llash tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash, fikriga asoslagan holda himoya qila bilish, mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish fikrini bayon qilishga, o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollilikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga, ijodiy izlanish, tahlil qilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanishi bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirish xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tarbiya darslarida "Aqliy hujum", "Fikrlar

Maktablarda tashkil etilgan geografiya fan to'garaklarida shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ayniqsa, topografik planni o'qish, uni tuzish, hamda topografik amaliy mashg'ulotlarni (7-sinf geografiya darsligidagi 7-8-paragraf mavzulariga oid bo'lган) bajarish murakkab ko'nikma hisoblangani sabab, ba'zi o'qituvchilarning o'zlari ham topografik masalalarning yechimini topishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Xulosa qilib aytganda - "O'qituvchi" maqomini yanada ko'tarishda har bir fan sohasi bo'yicha o'qituvchi o'zining ustida muntazam ishlashi, zamon bilan hamohang bilimlarni o'zlashtirib borishi va uning yaxshi dars o'ta olishi uchun yetarli, qulay shart-sharoit ham yaratilishi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilsa quyidagi istiqbollarga erishishi mumkin:

- mutaxassis dunyoda bo'layotgan fan yangiliklaridan tezda xabardor bo'ladi;
- masofadan turib ham ta'lim olish imkoniyatlarining mavjud ekanligi;
- tinglovchilar eng yuqori darajada tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni.
3. G'ulomov P., Vahobov H., Baratov P., Mamatqulov M. Geografiya. 7-sinf uchun darslik. - Toshkent, - "O'qituvchi", 2017.

**GEOGRAFIYA DARSLARINI MUSTAQIL O'RGANISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI**

**Xamraqulova Dilshoda Mamirjonovna**

*Farg'on'a viloyati Furqat tumani*

*31-umumiy o'rta ta'lif maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

**Xamraqulova Gulnoza Mamirovna**

*Farg'on'a viloyati Marg'ilon shahar*

*19- umumiy o'rta ta'lif maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tabiiy geografiya darslarini mustaqil o'rganishda qollaniladigan interfaol metodlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** geografiya, "Toifalash" grafik organayzeri, golfstrim, Avstraliya, iqlim mintaqasi, tabiat zonasasi, yozuvliz xarita, materik, interfaol metod.

**Аннотация:** В данной статье написано об интерактивных методах, используемых при самостоятельном изучении уроков естественной географии и возможностях их использования.

**Ключевые слова:** география, графический органайзер «Categorize», Гольфстрим, Австралия, климатический регион, природная зона, пустая карта, континент, интерактивный метод.

**Abstract:** This article is about the interactive methods used in the independent study of natural geography and the possibilities of their use.

**Keywords:** Geography, "Classification" graphic organizer, gulfstream, Australia, climate zone, nature zone, unwritten map, continent, interactive method.

Bugungi kunda geografiya fani talabalarga tabiat va Yer haqidagi bilimlarni hamda ilmiy dunyoqarashini vujudga keltirib, yer yuzi tabiatini, xo'jaligi va aholisi haqidagi turli ma'lumotlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa yer yuzining tabiiy manzarasi, tabiatdan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish

samaradorligini oshirish, aholi turmush darajasini, atrof-muhit holatini yaxshilash vositalari, insonlarda ekomadaniyatni shakllantirish usullari haqida mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Tabiiy geografiya kursi talabalarda yerga, atrof-muhitga bo'lган munosabatni, ekomadaniyatni vujudga keltirishda va shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Hozirgi pandemiya sharoyitida masofaviy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil ishlashi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, bevosita talabalar o'zlari mustaqil kitob o'qishlari hamda mustaqil o'rganishlari talab qilinmoqda. Chunki, har bir mavzuni mustaqil o'rganishda talabalar o'z xotiralarida ma'lumotlarni ko'proq saqlay oladi lar hamda ularda mustaqil fikrlash doirasi kengayib, turli innovatsion g'oyalarni vujudga keltira boshlaydilar.

AQShda B.Blum, D.Kratvoll, N.Gronlund, J.Kerol, J.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tamonidan rejalshtirilgan natijajalarni olishni kafolatlaydigan hamda qayta takrorlanadigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi.

Rossiyada B.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.G.Guzeyev, T.S.Nazarov, P.K.Selevko va boshqalar pedagogik texnologiyalar sohasida ulkan ishlarni amalga oshirishdi.

O'zbekistonda B.P.Farberman, N.Saidahmedov, F.Jumabayev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuhamedov, SH.Abdullahayev, J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov va bohqalar yirik ilmiy ishlar hamda o'quv qo'llanmalar yaratishdi.

Mamlakatimizda geografiya ta'limi sohasida M. Nabixonov, O.Mo'minov, T.Abdullaeva, P.Musaev, M.YUnusova, R.Qurban niyozov, H.Vahobov, P.Baratov, O'.Safarov, P.Saidov, R.Gaypova, A.Xayitov, M.Abduraxmanov, X.Nikadamboyeva va boshqalar pedagogik texnologiyalarni qo'llash va geografik texnolo giyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy metodik ishlarni amalga oshirganlar.

Tabiiy geografiya darslarini mustaqil o'rganishda talabalar quyidagi metodlardan foydalanishi samarali hisoblanadi. Masalan, Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi kursidagi ma'lum turga oid ma'lumotlarni "Toifalash" grafik organayzeridan foydalanib jadval shaklida jamlash va ularni tartiblab joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, materik va okeanlarning iqlim mintaqalari hamda tabiat zonalari mavzularidagi ma'lumotlardan foydalanib yozuvsız xaritaga ulardagi asosiy ma'lumotlarni tushirib chiqishi ma'lumotlarni yodda qolishida katta

yordam beradi. "Toifalash" grafik organayzeri talabalarni o'rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat va jihatlarini aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi. Bir turdag'i ma'lumotlarni jamlab jadval shakliga keltirib o'rganish interfaol metodi yangilik bo'lmasa ham hozirda ushbu metoddan foydalanuvchilar soni kamayib bormoqda bunga sabab esa dars vaqtida bu metod biroz ko'p vaqtni olishi hisoblanadi. Lekin, bu metodni mustaqil o'rganish vaqtida yo'lga qo'yish birmuncha samarali hisoblanadi. Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi o'quv kursini mustaqil o'rganish davomida o'quvchilar quyidagi jadvallarni tuzishi samarali hisoblanadi. Geoxronologik jadval, havo haroratlari, yog'inlar, milliy bog' va qo'riqxonalar, materik burunlari, cho'qqilar, vulqonlar, tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, botiqlar, cho'kmalar, ko'llar, daryolar, ilmiy stansiyalar, tuproqlar, o'simliklar, hayvonot olami va sayohatchi geograf olimlar, Dunyo okeani dengizlari, Dunyo okeani oqimlari kabi jadvallar tuzish mumkin. Quyida ulardan misollar keltiramiz (1 va 2-jadvallar). Bu jadvalni tuzish orqali talabalar o'zi bilgan ma'lumotlarni bir tartibga keltirib olishadi hamda uni to'ldirish natijasida qo'shimcha adabiyotlar va xaritalar bilan mustaqil ishlashni o'rganishadi.

Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini mustaqil o'rganishda yana bir ko'makchi bu yozuvsiz xarita hisoblanadi. Yozuvsiz xarita bilan ishlaganda biror materik yoki okean mavzusidagi asosiy ma'lumotlarni yozuvsiz xaritaga tushirish samarali hisoblanadi. Masalan, Avstraliya iqlim mintaqalarini yozuvsiz xaritaning iqlim mintaqalari uchun ajratilgan xaritasiga tushirish quyidagicha amalga oshirilsa, ma'lumotlarni yodda qolishi juda yuqori bo'ladi. Materiklarning iqlim mintaqalari mavzusini yozuvsiz xaritalar orqali o'rganishda darslikdagi ma'lumotlarni (yog' in miqdorlari, havo haroratlari, hududidagi tabiiy geografik obyektlar) xaritaga tushirish, iqlim mintaqalari chegaralarini ajratib chiqish va turli ranglarga bo'yash talab etiladi.

Avstraliya materigi iqlim mintaqasi xaritasi

Materiklarning tabiat zonalari mavzusini yozuvsiz xarita orqali o'rganganda esa mavzuda keltirilgan turli ma'lumotlarni (tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi) xaritaga tushirish va tabiat zonalari chegaralarini ajratib chiqish va turli xil ranglarga bo'yash

talab etiladi. Ushbu ma'lumotlarni xaritaga tushurishda turli rangdan iborat ruchkalardan foydalanish ularni takrorlash vaqtida juda foydalidir. Chunki, yashil rangli yozuvlar - o'simliklarini, qora rangli yozuvda - tuproqlari, qizil rangli yozuvda - hayvonot dunyosini anglatadi. Buning sababi o'quvchilar yozuvsiz xaritasidan foydalanib, o'qigan ma'lumotlarini takrorlaganda tezda ko'zga tashlanishi va ajralib turishi uchun turli rangli ruchkalardan foydalanish talab etiladi. Bu usulni tabiiy geografiya darslarining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Amaliy mashg'ulot darslarida talabalar materiklarning chekka nuqtalarini va relyefini yozuvсiz xaritaga tushirishadi lekin ular asosan atlasdagi mavjud geografik obyektlarni tushurishadi, lekin talaba mustaqil holda ma'ruzada olgan bilimlarini mustaxkamlash maqsadida atlasda mavjud bo'limgan geografik obyektlarni toifaga ajratib, ularni yozuvсiz xaritaga tushirganlarida ko'proq ma'lumotlarni yodda saqlab qolishadi, bu ma'lumotlarni toifaga ajratish va yozuvсiz xaritaga tushirish ko'proq vaqtini talab qiladi, lekin talabalarni xotirasida yaxshi saqlanib qoladi.

Oliy o'quv yurtlarida malakali geograflar tayyorlashda tabiiy geografiya kurslarining o'rni benihoya kattadir. Chunki bu kursni o'qitish orqali talabalar sayyoramizning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarni chuqur o'rganadilar hamda tabiiy unsurlarning bir-biriga uzviy bog'liq va aloqadorlik qonuniyatlarini tushunib etadilar. Natijada sayyoramiz tabiatini chuqur va har tomonlama biluvchi uni tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanib, muhofaza qilishni yosh avlodga etkazuvchi geografiya o'qituvchilari tayyorlanadi. O'zbekiston Oliy va o'rta mahsus talim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejada tabiiy geografiya kurslarida nazariyaga ajratilgan soatning kamligi sababli, yer yuzi tabiatining o'ziga hos hususiyatini talabalarga chuqur o'rgatish imkoniyati cheklangan, aksincha amaliy mashg'ulotlariga va mustaqil ta'limga umumiy soatning ko'p qismi ajratilgan. Binobarin, topshiriqlarni amaliy mashg'ulot darslarida va mustqil holda puxta bajarsalar nazariyadan olgan bilimlarini mustahkamlashdan tashqari talabalarda mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Chunki amaliy mashg'ulot darslarida va mustqil holda topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar darslik, o'quv qo'llanma, har xil adabiyotlar, xarita va atlaslardan foydalanib

berilgan topshiriq va savollarni sinchkovlik bilan puxta bajarsalar ular uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi malaka va ko'nikmalar shakllanadi:

- amaliy mashg'ulotlarda tematik xaritalar va atlaslar bilan ishlab, ularni taqqoslash orqali talabalarda ma'lum tabiiy geografik obyektlarning hozirgi holati, unda sodir bo'layotgan va bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarni bilish malakasi shakllandi;

-tabiatning tabiiy unsurlarini bir-biriga taqqoslab ularni ajratilgan holda emas, balki uzviy aloqada bo'lib, agar uning biror unsuriga noto'g'ri tasir etilsa, u o'z navbatida boshqa tabiat elementlarining holatini o'zgarishiga sababchi bo'lishi mumkinligi haqida talabalarda mustaqil ravishda hulosalar chiqarish malakasi vujudga keladi;

- turli hil manbalarda hamda o'quv qo'llanmalarda berilgan jadvallardan foydalanib raqamli malumotlarni tahlil qilish, profillar tuzish, grafik va diagrammalar chizish malakasi shakllanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlarni mustaqil o'rganishda qo'llash juda samarali hisoblanib, talabalar ayniqsa o'z ustida ko'proq ishlovchi talabalar uchun juda foydali metod hisoblanadi. Hozirgi kunning talabi yoshlarni iqtidorli, aqli, innovatsiyaga ega bo'lishlari bilan bir qatorda har tomonlama yetuk va barkamol shaxsga aylanishi bugungi ta'lim sohasidagi olib borilayotgan ishlarning natijasidir. Mana shunaqa turli mazmundagi jadvallarni tuzish va uni to'ldirish talabani iqtidori va innovatsiyaga intilishidan dalolat beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattarov Abdisamat Umirkulovich (2020)
2. Radjabov, F. (2020). Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products.
3. Туракулович, РФ (2020). Динамика и региональные особенности сельскохозяйственного производства. В Республике Узбекистан. Международный журнал психосоциальной реабилитации, 24 (2).
4. Komilova, N. K., Haydarova, §. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial Structure of Agriculture Development in Uzbekistan in Terms of Economical Geography.
5. Салиев Абдусами Салиевич, & Ражабов Фуркат Туракулович (2016). Особенности демографического и социально-экономического развития Кашкадарьянской области Республики Узбекистан. Псковский регионологический журнал, (1 (25)), 23-30.

**“GEOGRAFIYA FANIDAN GURUHLAR BILAN ISHLASH BO'YICHA  
USLUBIY QO'LLANMA”**

**Xamraqulova Dilshoda Mamirjonovna**

*Farg'on'a viloyati Furqat tumani*

*31-umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

**Xamraqulova Gulnoza Mamirovna**

*Farg'on'a viloyati Marg'ilon shahar*

*19- umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu uslubiy qo'llanma zamonaviy geografiya darslarining asosiy savoli "Nimani?" va "Qanday" o'qitish zarur kabi savollarga javob beradi. Geografiya fanida guruqlar bilan ishlash, ular o'rtasida sog'lom raqobat orqali o'qitishni shakllantirish. Guruqlar va individual o'qitishda kreativ fikrlash uchun zarur bo'lgan sharoitlar va mashg'ulot haqida ma'lumotlar, "Mening fikrim", "kreativ yondashuv", "Taassurot" kabi yangicha o'qitish uslublari bilan tanishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Kreativ geografiya, GIS meni top, mo'lljallangan maydonda yashirin so'z, kreativ fikirla, javobini top, poytaxt va bayrog', ob havo darakchisi ilmiy tahlil, xulosa.

**Аннотация:** В данном методическом пособии рассматривается главный вопрос современных уроков географии: «Что?» и отвечает на такие вопросы, как «Как» необходимо обучение. Работа с группами по географии, формирование обучения через здоровую конкуренцию между ними. Информация об обучении и условиях, необходимых для творческого мышления в группах и индивидуальном обучении, могут быть введены новые методы обучения, такие как «Моя идея», «Творческий подход», «Впечатление».

**Ключевые слова:** творческая география, ГИС найди меня, скрытое слово в целевой области, мыслить творчески, найти ответ, столица и флаг, научный анализ синоптика, заключение.

**Abstract:** This methodological guide addresses the main question of modern geography lessons: "What?" and answers questions such as "How" training is needed. Working with groups in geography, forming learning through healthy competition between them. Information about training and conditions necessary for creative thinking in groups and individual training, new teaching methods such as "My idea", "creative approach", "Impression" can be introduced.

**Keywords:** Creative geography, GIS find me, hidden word in the target area, think creatively, find the answer, capital and flag, weather forecaster scientific analysis, summary.

*Bugun biz o'quvchiga berayotgan bilimimiz shunchaki bilim emas  
ijod manba bo'lmos'i lozim. (N.D.Ta'nakulovna)*

Ushbu metodologik uslubiy qo'llanma kutilayotgan "Yangi milliy dastur" uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga nimani qanday o'rgatish zarurati borasida yechimlarni taqdim etadi. Endilikda geografiya darslarida ham xalqaro talablarga mos ravishda o'qitish yo'lga qo'yiladi, ya'ni o'quvchi bilim olishi uchun unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, bilim ko'nikma orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlashni yuksaltirish, masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqsad: Guruhlar bilan ishlash bo'yicha o'qituvchilar uchun tizimli qo'llanma yaratish. Samaraga ega bo'lgan uslublar bilan ishlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar va misollar keltirish, geografiya o'qituvchilarda kreativ o'qitish metodikasi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish, geografiya fani "Yangi milliy dastur" bo'yicha o'qitishga o'quvchilarni moslashtirib borish.

O'qituvchilar oldidagi vazifalari:

- ✓ Guruhlar bilan o'tkazilgan musobaqalarga yangicha yondashuv kiritish
- ✓ Guruhlar bilan ishlashda yangi o'quv uslublarini qo'llashni targ'ib qilish
- ✓ Ijodiy geografiya darslarini tashkil etish
- ✓ Maqsadli geografiya darslari bo'yicha o'qituvchilarga tavsiyalar berish

- ✓ Yangicha o'quv metodikasini taqdim etish va ommalashtirish
- O 'quvchilar oldidagi vazifalari:

  - ✓ O'quvchilarni geografiya faniga qiziqishini shakllantirish
  - ✓ O'quv samaradorligini oshirish
  - ✓ O'quvchilarni maktab darajasidan ijodiy fikrlashga o'rgatish orqali, geografik global muammolar borasida o'z yechimini taqdim qilishga o'rgatish
  - ✓ O'quvchilarda amaliyotda zarur bo'lgan hayotiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish

Asosiy qism

1-jadval

Guruhralar bilan ishlashda tavsiya etilgan metodlar va interfaol o'yinlar

№ Guruhi o'qitish metodlari nomi Tashkiliy Mo'ljallangan guruhralar soni vaqt

1 Mo'ljallangan maydonda yashirin so'z 6 ta 2 mn

2 Ob havo darakchisi ilmiy tahlil 2 ta 1 mn

3 Gap yasash 3 ta 3 mn

4 Bayroq va Poytaxt 4 ta 2 mn

5 GIS -meni top 3 ta 1 mn

6 Kreativ fikirla 4 ta 4 mn

7 Javobini top 2 ta 3 mn

Yuqorida keltirilgan o'quv metodlari va interfaol o'yinlar bilan batafsil tanishib chiqamiz:

Mo'ljallangan maydonda yashirin so 'z

Tavsifi: Ushbu o'yin o'quvchilardan epchillik topqirlik zukkolikni talab qiladi, o'quvchilarni materiklarni o'rganishda u yerdagi davlatlar va o'ziga xos jihatlari bilan birga qo'shma ma'lumotlar bilan eslab qolishga undaydi. Zarur sharoit: O'yin uchun 3 yoki 4 kishidan iborat kichik jamoalar jami 6 ta jamoaga ajratiladi. Kichik qog'ozlarga 6 ta materik nomi yoziladi va guruhlardan bittadan vakil chiqib o'z tanlovi yo'li bilan ma'lum bir qog'ozni tanlaydi ,ushbu qog'ozda tushgan materik nomini e'lon qiladi.

O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan xarita yoki doskaga chizilgan xaritaga maxsus xar bir materikka yashirin so'zlarni joylaydi ushbu so'zlar o'sha materikning o'ziga xos jihatini ifodalashi kerak. Bolalar 2 daqiqa ichida materikdagi lug'atdan foydalanib materikning o'ziga xos jihatlarini sanab berishlari zarur. O'quvchilarga shart tushuntirilgach vaqtga start beriladi

Misol 1.

Yevrosiyo materigi

Taklif etilgan lug'atlar: Quruqlik, katta, aholi, orol

Javob

1. Quruqlikning 36,6 % ni tashkil qiladi
2. Yer sharidagi eng katta materik
3. Aholining 74 % (5.2 mld) joylashgan
4. 2.75 million km<sup>2</sup> qismi orollardan iborat

Shu kabi Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya, Antraktida materiklariga ham lug'atlar taklif qilinib javoblar 2 daqiqadan so'ng tekshirib ko'rildi qaysi komanda shartni to'liq va tezroq yakunlasa o'sha guruh balli sistemada baholanadi.

Ob havo darakchisi ilmiy tahlil

Tavsifi: Ushbu o'yin o'quvchilarni hodisalarni ilmiy tahlil qilishga o'rgatish va fanlar o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi

Bunda Hayvonlardagi ob havo sharoiti o'zgarishi kutilishini bildiruvchi xususiyatlari o'rganiladi.

Zarur sharoit: ikkita yirik guruhga bo'linishadi. O'qituvchi navbat bilan hayvonlardagi xususiyatni aytganda guruhla navbat bilan bu xususiyat qanday ob havo oqimin olib kelishi mumkinligi borasida o'z fikrlarini bildirib bu hodisani ilmiy tahlil qilishga urinishadi va buning uchun o'quvchilarga 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

Misol-2

Savollar

Baqalar qurullay boshlasa(o'qituvchi)

Javob:

- Nam havo yog'ingarchilik kutiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma o'quvchilarga:

- ❖ guruhan bilan ishlashni
- ❖ egallagan bilimni hayotda qo'llashni
- ❖ Fanlar o'rtasida bog'liqlikni shakllantirilishda
- ❖ Geografik tushunchalari joy nomlarini bir biriga bog'liq ma'lumotlar bilan birga eslab qolishni

- ❖ Tezkor fikrlashni
- ❖ Tabiat hodisalarini o'zaro bog'lab ilmiy tahlil qilishni
- ❖ Kreativ g'oyalarni topish muammoni yechimi uchun kreativ fikrlashni
- ❖ O'quvchining fikrlash dunyosini tasavvur dunyosini kengaytishni

va boshqa ko'plab ijobiy ko'rsatgichlarni shakllantirilishda rivojlantirishda qo'llash samarali natijalar beradi. Ushbu metodlarni nafaqat guruhi balki individual ravishda shug'ullanish, uyga vazifa sifatida berish yoki darsda jarayonida, boshlashdan oldin qo'llash o'quvchilar e'tiborini qaratishga fanga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Qo'llanmani o'qituvchilar o'z ijodiy qobiliyatlaridan foydalanib o'z pedagogik qarashlari sohadagi moslashi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rajabov Furkat Turakulovich, Sattarov Abdisamat Umirkulovich (2020) FARMS OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT, SPECIALIZATION, GEOGRAPHY. Journal of Critical Reviews, 7 (6), 1189-1196.
2. Radjabov, F. (2020). Describe the Individual Food Industry Contents and their Role in the Delivery of Agricultural Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 19(1), 292-294.
3. Туракулович, РФ (2020). Динамика и региональные особенности сельскохозяйственного производства. В Республике Узбекистан. Международный журнал психосоциальной реабилитации, 24 (2).
4. Komilova, N. K., Haydarova, §. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial Structure of Agriculture Development in Uzbekistan in Terms of Economical Geography. Journal of Advanced Research in Law and Economics, 10(8 (46)), 2364-2372

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING  
INNOVATSION USULLARI**

*Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o‘g‘li*

*O‘zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti  
2-bosqich 56-21 guruh magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy tarbiyani rivojlanishining ijtimoiy qonuniyatlarni, jismoniy madaniyat tarixi, jismoniy tarbiyani tashkil etilishini, jismoniy mashqlar ta’sirida inson psixikasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari va shakllari, uslublarini qo‘llanish mohiyati va qonunlari, sportda yuksak natijalarga erishish qonuniyatlarini o‘rganadigan ijtimoiy fanlar, jismoniy madaniyat sotsiologiyasi, jismoniy tarbiya tarixi va jismoniy tarbiyani tashkil etish umumiy pedagogikasi, jismoniy mashqlar va sport psixologiyasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati shakllari uchun sport klastrlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Jismoniy tarbiya va sport, sport klastrlari, sport inshooatlari, jismoniy rivojlanish, ommaviy sog‘lomlashtirish.

Hozirgi zamon sharoitlarida jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligi jismoniy sifatlarni kompleks holda tarbiyalash vositalari va metodlaridan to’g‘ri foydalanishga bog’liq. Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, bolalar va o’quvchi yoshlarning sport bilan ommaviy shug’ullanishlari, faol dam olish shakllaridan foydalanishni ta’minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlanтирish, sog‘lom avlodni tarbiyalash respublikamiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, « butun ta’lim tizimining eng muhim vazifikasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir» Bugungi kunda umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo‘yicha belgilangan meyor talablarini bajara

olmaydigan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalarning soni ko‘pligini inobatga olgan holda ular bilan jismoniy tayyorgarlik yuzasidan korreksiyalash ishlarini olib borish taqozo etiladi.

Buning uchun, birinchi navbatda, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligini monitoring qilib borish, o‘sishda ortda qolayotgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmualarini yaratish zarur. Bunday mashqlar majmualaridan foydalangan holda har bir o‘quvchi uchun uning individual kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumta’lim maktabi sharoitlarida monitoring ma’lumotlaridan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabaqalashtirilgan jismoniy tayyorgarligi metodikasini ishlab chiqish bizning ilmiy tadqiqotlarimizning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907- son «Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2018 yil 5 martdagи PF-5368-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni 2019–2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlanadirish konsepsiysi hamda uni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi tasdiq Quyidagilar ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar etib belgilandi:

- aholining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish;
- ilg‘or jahon tajribasi asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlanirishni ilmiy-metodik ta’minlashni takomillashtirish;
- yangicha fikrlaydigan trener kadrlarni hamda innovatsion tafakkurli ma’muriy kadrlarni tanlash va tayyorlashni tashkil etish;

sport tibbiyotini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzini va sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- seleksiya yo‘li bilan iqtidorli sportchilarni tanlash, seleksioner trenerlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- jismoniy tarbiya va ommaviy sportni, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida axborotlashtirishning yuqori darajasini ta’minlash va multimedia mahsulotlaridan foydalanish;
- energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarini faol joriy etish asosida davlat sport muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- jismoniy tarbiya va ommaviy sportni hamda sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish bo‘yicha innovatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Kadrlar salohiyatini oshirishga katta e’tibor beriladi. Sport tayyorgarligi eng muvaffaqiyatli tizimga ega bo‘lgan mamlakatlardan mutaxassislarini jalb etib, yangicha fikrlaydigan trenerlar va ma’muriy kadrlarni tayyorlash uchun eng yangi sport texnologiyalaridan foydalanib, sport ixtisosligidagi xorijiy oliy ta’lim muassasalari va sportchilarni tayyorlash markazlarining filiallarini tashkil etish mo‘ljallangan. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirish diqqat markazida bo‘ladi. Xususan, mutaxassislarning Sport Management (sportni boshqarish), Sport Leadership (sportda rahbarlik qilish), Sport Administration (sport ma’muriyatshiligi) yo‘nalishlari bo‘yicha yetakchi jahon sport markazlarida tajriba orttirishi tashkil etiladi.

«Sport – turmush tarzi» xeshtegi ostida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni ommaviylashtirish kampaniyasini ijtimoiy tarmoqlarda ilgari surish rejalashtirilmoqda. sportklastr.uz axborot portali ishga tushiriladi.

Mavjud resurslardan oqilona foydalanishni hisobga olgan holda hamda jismoniy tarbiya va sport xizmatlariga talab va taklif o‘rtasidagi eng maqbul muvozanat muammosini hal qilish. Jismoniy tarbiya va sportga xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning marketing faoliyatini

takomillashtirish quyidagi an'anaviy marketing savollariga javob berish bilan tavsiflanishi mumkin:

Shunday qilib, sport marketingi sport yordamida bozor extiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘zining mahsulotini foydalanuvchilarga yo‘naltirishdan iborat. Jismoniy tarbiya va sport sohasida marketingni takomillashtirish orqali biz talabani bevosita jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga undaymiz. Jismoniy tarbiya va sport xizmatlarining yagona oxirgi iste’molchisi aynan shu shaxsdir. Universitetning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’lim xizmatlari marketingining maqsadi va mazmuni talaba shaxsining jismoniy tarbiya va sportini shakllantirishga, yoshi, individual qiziqishlari va extiyojlarini xisobga olgan holda uning qobiliyatlarini tarbiyalashga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni tazarda tutgan holda o‘qitishning an'anaviy shakllaridan uzoqlashishga qaratilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi marketing strategiyalari talabalarning sport ixtisosligiga o‘tish va taqsimlanishini, ularning sportni faol tanlashini ta’minlaydi;

- -jismoniy tarbiya vositalaridan mustaqil ravishda foydalanish darslari, qobiliyatlar, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Biroq, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida marketingni takomillashtirishning ijobjiy ta’siriga qaramay, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan ishlab chiqish holati hozirgi vaqtda uni yanada rivojlantirish uchun yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti.

Bu mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida ishlab chiqilgan marketingning umumiy nazariyasi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning sanoat ishlab chiqarish tajribasi asosida yaratilganligi va jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xizmat ko‘rsatish sohasi sharoitlariga moslashtirilmaganligi bilan bog‘liq. Shu sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu loyihami amaliyoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya tizimiga bo‘lgan munosabati haqidagi so‘rovnomaning tahlili o‘tkazilgan, o‘smirlarning jismoniy tayyorgarligi tajriba dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot natijalari bayon qilingan. O‘smirlarning jismoniy tayyorgarligini

pedagogik nazorat qilish muvaffaqiyati nazorat mashqlarining tanlab olinishiga ko‘proq bog‘liq.

**Adabiyotlar:**

1. Akramov J.A. Kerimov F.A. Innovatsionne pedagogicheskie texnolgii v upravlenii sistemoy podgotovki sportsemonov k olimpiskim igram 2012 goda // Fan-sporga №3 -2009
2. Akramov J.A Obidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. // Fan-sporga №1 -2007
3. Adinaev Sh.Sh., Temrov A.A./Java dasturlash tilini o‘rgatishda talabalarga mustaqil ish topshiriqlarini berishning namunaviy tuzilmasi //Fizika, matematika va informatika//2021. –2. –B. 16-23
4. Абидова, Ф. Ш., Хамрокулова, Г. Т., & Темиров, А. А. (2019). АЛГОРИТМ БЫСТРОГО СТРОКОВОГО СОПОСТАВЛЕНИЯ СЕТЕВЫХ СИСТЕМ ОБНАРУЖЕНИЯ ВТОРЖЕНИЙ. Мировая наука, (4), 170-177.
5. Godik M.A. Dvigatel'naya aktivnost futbolistov v usloviyah sorevnovatelnoy deyatelnosti. // Fan sportga №3, 2005.

**JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOM AVLODNI SHAKLLANTIRISH  
HAQIDA**

***Mamayusupov Ulug'bek Qosimovich***

*O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti*

*2-bosqich 56-21 guruhan magistranti*

**Annotatsiya.** Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy tetiklik, balki ruhan sog'lomlik uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bugun dunyoviy ishlarning barchasi to'rtburchak onlayn quti va uni yonidagi kichik stulga tayangancha amalga oshirilayotgan bir vaqtda jismoniy xususiyatlar va ularga talabchanlik yanada ortib bormoqda. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariida jismoniy sifatlarning ahamiyati va dolzarbliги haqida batafsil bayon qilinadi.

**Kalit so'lar:** jismoniy tarbiya, jismoniy tafakkur, xususiyatlar, fizikal mashqlar, organizm, ruhiy sog'lomlik va h.k.

Mamlakatimiz kelajagi uchun sog'lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazishda jismoniy tarbiya va sportni ahamiyati juda katta. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda bolalar cporti bilan birga xotin –qizlar cportiga ham juda katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda cog'lom farzatlarni voyaga keltirib, ularni cog'lom, barkamol tarbiyalashda ayollarni o'rni juda katta. Shu boisdan ham xotin – qizlar cportiga berilayotgan etibor va yaratilayotgan shart sharoitlarni barcha cheka-cheka qishloqlar miqyosida ko'rishimiz mumkin. Tarixan mavjud bolgan jismoniy tarbiya tizimlariga insonning jismoniy (harakat) sifatlarini tarbiyalay olishiga qarab baho berilgan. Insonning organizmida turli darajada shakllangan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, tana bog'inlari harakatchanligi va muskullar egiluvchanligini jismoniy sifatlar deb atash qabul qilingan. Inson organizmining shu sifatlarini qanday namoyon qila olishiga qarab individga kuchli, chaqqon, tezkor va h.k. deb baho bergenlar. Bu sifatlar olchovga ega, uning korsatkichlari jismoniy tayyorgarlik korsatkichlari deb ataladi va korsatkichlar orqali individning ijodiy mehnatga va vatan

mudofaasiga tayyorligi aniqlanadi. Masalan, individ 100 kg og'irlikdagi shtangani elkaga olib faqat 3 marotaba otirib tura olsa, boshqasi shu vazn bilan 5 marotabadan ortiq otirib tura olishi mumkin. Shu mashqni ikki marta ortiq bajarganligi uchun ikkinchi ortoqning kuch sifati rivojlangan deb baholanadi. Bu sifat organizmning suyak, muskul va boshqa azolarining toqimalari, hujayralari vahokazolarning rivojlanganligigagina bog'liq bolmay, manaviy-ruhiy fazilatlariga ham bog'liq. SHuning uchun harakat sifatlarini tarbiyalash manaviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalash ishi bilan cham barchas bog'liq va tarbiyaning shu yonalishiga vosita bolib xizmat qiladi.

Harakat sifatlarini tarbiyalashga intilish insoniyatning azaliy orzusi. Mehnat qurollari, harbiy anjom va aslaxa bilan muomala qilishning samaradorligi tabiat insonga inoom etgan va uni tarbiya jarayonida rivojlantirish mumkin bolgan jismoniy fazilatlarga bog'liq tarbiyalash lozimligi masalasini kondalang qoyadi. Jismonan barkamol, axloqan pok, estetik didli, etiqodli, sadoqatli, texnika ilmining zamonaviy asoslarini puxta egallagan, har taraflama manaviy etuk, jismonan garmonik rivojlangan kishini tarbiyalash hozirgi kunga Cha davrimizning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanib kelindi. Hozir ham bu dastur oz ahamiyatini yoqotgani yoq. U mamlakatimizda amalga oshiralayotgan "sog'lom avlod uchun" dasturining ozagini tashkil etadi. Sport va jismoniy mashqlar, konsentratsiyadan tashqari, odatni saqlab qolish va vaqt o'tishi bilan doimiy harakatni o'z ichiga olgan ishlarni bajarish majburiyatini qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, u hayotning boshqa sohalariga ekstrapolyatsiya qilinishi mumkin bo'lgan intizomli munosabatning paydo bo'lishini osonlashtiradi. Muntazam jismoniy mashqlar tananing tashqi ko'rinishiga ta'sir qiladi, vazn va tana yog'ini kamaytiradi va tanani tonlaydi. Bu, o'z navbatida, o'z-o'zini tavsiflash va o'z-o'zini anglashga ta'sir qiladi, o'zingizni yanada jozibali, baquvvat va chaqqon his qiladi va o'zingizni hurmatingizni oshiradi. Bundan tashqari, doimiy tartib va intizomni saqlash haqiqati bizni yanada izchil va qat'iyatli ko'rinishga va maqsadlarimiz uchun kurashishga qodir qiladi. Mashq qilish giyohvand moddalarni suiiste'mol qilishga qarshi kurashda tavsiya etilgan mashqdir, chunki u iste'mol qilish istagini oldini oladi va susaytiradi va iste'mol qilish uchun kamroq zarur bo'lgan endogen endorfinlarni ishlab chiqaradi, bundan tashqari, bu bilan mos kelmaydigan

javob. Shu ma'noda, ta'sir sirkadiyalik ritmlarning o'zgarishi bilan ham bog'liq. Jismoniy mashqlarning 3 turi mavjud:

1. Kuch mashqlari. Ushbu jismoniy mashqlar mushaklarning maksimal qisqarishi bilan amalga oshiriladi. Bu guruhga barbell, tosh va dumbbell liftlari kiradi.
2. Kuch va tezlik bilan bajariladigan mashqlar. Ushbu mashqlarda mushaklar bir vaqtning o'zida nisbatan katta kuch va tezlikda qisqaradi. Bu guruhga yugurish, uzunlikka sakrash, qumda sakrash va diskda sakrash kiradi.
3. Chidamlilikka asoslangan mashqlar. Bu mashqlar mushaklardan kuch va tezlikni talab qilmaydi. Ushbu guruh sog'lomlashtirish mashqlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mashqlarni bajarish qobiliyati shifokor tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinishi kerak, chunki mashqlarni noto'g'ri tanlash, mashg'ulotda stressni qo'llash nafaqat sog'likka zarar etkazishi, balki sportga bo'lgan ishtiyoqni ham yo'qotishi mumkin. Shuning uchun o'rta va katta yoshdagi odamlarga ko'p jismoniy kuch talab qiladigan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish tavsiya etilmaydi. Keksa odamlar uchun uchinchi yoki ikkinchi guruh mashqlarini bajarish yaxshidir. Sport - ingliz tilidan tarjima qilinganda o'yin, o'ynash degan ma'noni anglatadi. Sport inson salomatligi va jismoniy faolligini saqlashning muhim omilidir. Sportdagi asosiy talablardan biri stressning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligiga mos kelishidir Har qanday harakat biror-bir konkret harakat vazifasi deb ataladigan vazifani hal qilishga qaratiladi. Masalan, iloji boricha balandroq sakrash, topni ilib olish, raqibni aldab otish, shtangani kotarish va hokazo. Harakat vazifasining murakkabligi, bir vaqtida va ketma-ket bajariladigan harakatlarning uyg'unligiga bolgan talablar, harakatlar koordinatsiyasini tarbiyalaydi. Harakatlarning koordinatsiyaviy murakkabligi chaqqonlikning birinchi olchovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalari harakat vazifasiga mos bolsa, harakat etarli darajada aniq boladi, harakat vazifalari harakatning aniqligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Chaqqonlikni rivojlantirishi usuliyati bilan tanishib chiqsak. Birinchidan Chaqqonlikni rivojlantirish koordinatsiya jihatdan murakkab harakatlarni bajarishni, ikkinchidan harakat faoliyatini tosatdan ozgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta tuza olish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir. Bunda chaqqonlik uchun zarur

bolgan oz harakatlarini fazo va vaqtda aniq idrok etish, lozim bolsa, stabil harakatlar qila bilish, muvozanat saqlay olish, galma-gal zor berish va muskullarni boshattirish yoki, aksincha, muskullarni taranglashtirish qobiliyati va shunga oxshash boshqa xususiyatlarni tanlab takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Demak “Chaqqonlik” deganda, harakatlar koordinatsiyalarning umumiy toplami yig’indisi tushuniladi.

Xulosa qilganda jismoniy tarbiyani, xususan, jismoniy sifatlarni rivojlantirishni mohiyatining yuqoriligi va salmoqliligi kozga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ularning (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va hokazolarning) barchasini ozaro uzviy bog’lab olib borishni tarbiya jarayoni taqazo qiladi. Lekin sportning malum bir turida muayyan fazilat kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u etakchi harakat sifati tarzida nomoyon boladi. Boshqa sifatlar ham nisbatan rivojlanadi, lekin ular yordamchi, komakchi harakat sifati tarzida namoyon bolishi mumkin. Masalan, sport oyinlaridan basketbolda asosan chaqqonlik sifatini rivojlantiradi deb hisoblansa, tezlik yordamchi sifati tariqasida rivojlanadi. Lekin basketbol chidamlilikni ham tarbiyalashda asosiy vositadir. Og’ir atletikaChilarda kuch jismoniy sifati etakchi fazilat sanaladi. “Siltab kotarish (rivok)”ni kop mashq qilish esa tezkorlikni rivojlantiradi. Amaliyotda bu mashqlar orqali chidamlilik va egilivchanlik ham komakchi jismoniy sifat tarzida rivojlanishini guvohimiz. Umuman, chaqqonlikni rivojlantirish uchun koproq oyinlardan: voleybol, basketbol, futbol, tennis, stol tennisi, gandbol, xokkey, regbi va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqli. Aslida bu oyinlar uchun tezlikning ahamiyati ham ikkinchi darajali emas. Chaqqonlikni rivojlantirish esa tez ozgaruvchan oyin sharoitiga moslasha bilishni, kuzatuvchanlikni, moljalga tog’ri olishni, qisqa fursat ichida turli murakkab vaziyatda aniq, toxtamga kelish, uni his qilish va oz harakatlarini shu vaziyatga moslay olishdek hayotiy zaruriy Amaliy harakat malakalarni shakllantiradi. Velosiped, harakatli o`yinlar ham chaqqonlikni rivojlantiradi.

**Adabiyotlar:**

1. И.Азимов “Физиология человека”, Ташкент - 1991 - yil.
2. Г.Azimov “Sport fiziologiyasi”, Toshkent - 1993 - yil.
3. Брехман И.И. Валеология наука о здоровье, Москва - 1990.
4. Вилкин Я. “Организация работы по массовой физической культуре и спорта” Москва - 1995.

**SPORTNING KURASH TURI TARIXI VA O'ZBEKISTONDAGI O'RNI**

---

*Mirzaqulov Ulug'bek To'lqinovich*

*O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti*

*2-bosqich 56-21 guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada kurash sporti, uning shakllanish tarixi, o`zbek kurashi paydo bo,,lishi va qodalari bayon etilgan. Shuningdek, kurash sportining inson va jamiyat uchun ahamiyati ochibberilgan.

**Kalit so‘zlar:** kurash, milliy kurash, Xalqaro kurash assotsiatsiysi, Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon, O'zbekistonda belbog‘li kurash federatsiyasi, Komil Yusupov, kurash qoidalari.

Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida paydo bo,,la boshladi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi(hozir unga 144 mamlakat a“zo, Xususan, mamlakatimiz unga 1993-yilda a’zo bo,,lgan). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalovchi asosiy vositalardan biridir. Mutaxassislar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug,ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan Bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon kurashi tasvirlangan. Yana bir artefaktda esa polvonlarning Kurash usullari namoyishi aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 mingyl ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganini anglatadi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash

musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — „Alpomish“dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi.“ Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘otit turk“, Alisher Navoiyning „Hamsa“, „Holoti Pahlavon Muhammad“, Zayniddin Vosifiyning „Badoye‘ ul-vaqoye“, Husayn Voiz Koshifiyning „Futuvvatnomai sultoniy“, Z.M.Boburning „Boburnoma“ asarida kurash haqida qimmatli ma’lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o‘rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar dovrug‘i butun Sharqqa tanilgan.

O‘zbek xalq yakka kurashining belbog‘li kurash deb nomlangan turi ham bor. Bunga taalluqli ko‘plab topilmalar va tarixiy qo‘lyozmalar mavjud. 5 ming yil ilgari Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog‘li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning „Tan-shu“ qo‘lyozmasida Dovon davlati(Farg‘ona vodiysi) to‘ylar, sayllar kurash musobaqalarisiz o‘tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo‘ja polvon kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan(XIX asr oxiri — XX asr boshi). Chorizm va sho‘rolar davrida mafkuraviy harakatlar negizida o‘zbek milliy kurashini xalq 1991-yilda kurashchilar sulolasi vakili, bir necha kurash turlari bo‘yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o‘zbekcha kurashning xalqaro andozalarga moslangan quyidagi qoidalarini ishlab chikdi: Ku tushuvchilar 14 x 14 m dan 16x 16 m gacha bo‘lgan, chetroq qismi qizil rangli „xavfli chiziq“ bilan belgilangan ko‘k- yashil tusli gilamda tik turgan holatda bellashadilar. G‘olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo‘yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo‘g‘ish, raqibga og‘riq beruvchi usullar qo‘llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko‘k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, belga eni 4—5 sm li belbog‘ bog‘lanadi, erkaklar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, va 78 kg dan ziyod vazn toifalarida bellashadilar (bolalar, o‘smlar, o‘sprinlar, yoshi ulug‘lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalari belgilanadi).

